ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

1-son

(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
R. Djuraev	4	Ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
N. Murodov	7	Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar
M. Cho'lliev	12	Pedagogik tadqiqotlarda action research (amaliy tadqiqot) usulidan foydanish
S. Abduxamidov, M. Qarshiyeva	17	Bo'lajak o'qituvchilar innovatsion salohiyatini rivojlantirishning ijodiy faoliyat metodikasini takomillashtirish
D. Adilova	20	Jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar sharoitida yoshlarimizning raqobatbardoshligini ta'minlashda "Steam" texnologiyalarining ahamiyati
K. Seytjanova	24	"Kelajak soatlari" darsining bola tarbiyasidagi o'rni
B. Toshpo'latova	27	Mahallada ijtimoiy profilaktik tadbirlarni tashkil etishda yunogogik yondashuvning ahamiyati
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	30	Uslubiyatning fonetik vositalari
Sh. Kamolxo'jayev	35	Texnika oliy ta'lim muassasalarida "Fizika" fanini o'qitishda pedagogik texnologiylardan foydalanish
N. Abduvalitov, R. Bazarbayeva	38	Badiiy asarni tushunish va talqin qilish jarayonida interpretatsiyaning o'rni
E. Xolmaxmadova	43	Biologiya fanini o'qitishda raqamli va innovatsion metodlardan foydalanishning yangi yondashuvlari
N. Esnazarova	47	"Uchburchaklar" mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish
A. Aitmuratova	52	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi
A. Nurillaeva	55	Biologiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Rustamova	58	Tarbiyaning umumiy metodlari (Zamonaviy yondashuvlar)
M. Muxitdinova	62	Talabalarni ingliz tiliga sun'iy intellekt texnologiyalari yordamda o'qitishning psixolingvistik jihatlari
Z. Alimova	68	Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv jarayonini faollashtirishda interfaol metodlarni o'rni va ahamiyati
Sh. Mirzayeva	72	Pedagogika nazariyasida raqamli texnalogiyalardan foydalanish jarayoni va dasturiy ta'minotlar
R. Davletov	75	Dars jarayonida o'yinga asoslangan "Kahoot" o'quv platformasidan foydalanib test tuzish imkoniyatlari
E. Shamsuvaliyeva	78	Oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishning innovatsion-madaniy yondashuvlari

R. Ergashev, Sh. Yoqubjonova	84	Yuqori sinf o‘quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Temirova	87	Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ertak tanlashga oid mashqlarni tashkil etish
		TA’LIMDA MENEJMET
G. Sattorova	93	Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
G. Axmadalieva	97	Olimpiya ta’limining pedagogik asoslarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida shakllantirish
F. Tashpulatov	102	O‘quv mashg‘ulot guruhida uch hatlab sakrovchi sportchilarning sakrash texnikasini rivojlantirishda o‘yin elementlardan foydalanish
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
Sh. Mo‘minova	107	Inklyuziv ta’limda ilg‘or yondashuvlar (Finlyandiya Respublikasi tajribasi)
		MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI
J. Xaliqov	112	Musiqiy didni rivojlantirishda aksiologik yondashuv: o‘quvchilarda qadriyatga yo‘naltirilgan estetik qarashlarni shakllantirish
		MAKTABGACHA TA’LIM
I. Oxunov, R. Kimsanboyeva	115	Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash
		PSIXOLOGIYA
Sh. Boyanbaeva, B. Erimbetova	119	O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini o‘rganish usullari
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
А. Эгамова	122	Проектирование организационно-методического обеспечения педагогического просвещения родителей
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
О. Курбанбаева	126	Современные образовательные технологии науроках математики
		ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
Ш. Ёрмаматова	130	Функции методического сопровождения воспитателей по использованию здоровьесберегающих технологий в дошкольном образовании
		ПСИХОЛОГИЯ
М. Алиев	135	Герменевтика как метод психологического анализа самопознания

Risbay DJURAEV,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti bo'lim mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

TA'LIM OLUVCHILARDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirishning zaruriyati, bunda vatanparvarlik tarbiyasining tutgan o'rni yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-ma'naviy madaniyat, tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi.

В статье раскрывается роль воспитания патриотизма, необходимость формирования у учащихся социально-духовной культуры в процессе непрерывного образования/

Ключевые слова. Непрерывная образования, социально-духовная култура, воспитания, воспитания патриотизма.

The article highlights the need for students to form a socio-spiritual culture, as well as the education of patriotism in the process of continuous education.

Key words. Continuous education, socio-spiritual culture, education, education of patriotism.

Asrlar mobaynida xalqimizda yuksak ijtimoiy-ma'naviyat madaniyat, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlar Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlandi. Shuningdek, mazkur falsafiy-axloqiy ta'limotlar xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy aloqada Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimiz merosiga tayangan holda shakllanishi lozim.

Biz uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashimiz, yuksak xalq ijtimoiy-ma'naviy madaniyati nima ekanini yoshlar ongiga singdirishimiz zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy madaniyat nima? – Ijtimoiy ma'naviy madaniyat jamiyatda shakllangan va e'tirof etilgan axloq-odobga oid me'yorlar, yuksak ma'naviy-ma'rifiy qarashlar va bilimlarga asoslangan madaniy prioritet, o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usiga ega bo'lish demakdir.

Bunda bolalikdan olingan ta'lim-tarbiya, o'quv jarayonining muhim vositalari hisoblanuvchi darslik, qo'shimcha o'quv materiallari, dars ishlanmalari muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan, "Tarbiya" fanini o'qitishda g'oyaviy mafkurani tarbiyalash, bunda nomlari tarix zarvarag'iga oltin harflar bilan bitilgan, har birining yaratgan asarlari o'zbek milliy madaniyatida katta o'rin egallagan ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy merosidan foydalanish zarur.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri vatanparvarlik tarbiyasi bo'lib, yoshlar qalbiga Vatan tuyg'usini singdirish yo'li bilan ularda

ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni tarkib toptirish mumkin. Ota-bobolarimizning hayot yo'li, Vatan himoyasi yo'lida hayotini fido etgan tarixiy qahramonlarning ibratli jasoratlari, allomalarning vatanparvarlik, el-yurt manfaati, baxt-saodati yo'lida fidoyilik ko'rsatish haqidagi, mardlik va jasoratni ulug'lovchi hikmatli so'zlari va fikrlaridan o'quv materiali sifatida foydalanish maktabda bolalik va o'smirlik davrida o'quvchilarga vatanparvarlik g'oyalarini singdirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham yosh kadrlarni tanlash va tayyorlashga qo'yilgan talablar doirasida vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni tarbiyalashning zaruriyatini alohida ta'kidlaydi: "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi".

"Vatanni sevmoq iymondandur" ("Hubbul – vatani minal imoni") deya uqtiriladi muqaddas hadisda. Haqiqatan Vatanga muhabbat bilan yongan qalblarda o'tkinchi, bema'ni hoyu-havaslarga qiziqish bo'lmaydi. Bunga vatanparvar, oqil, ma'rifatparvar, xalq va Vatan ozodligi yo'lida ham o'tkir qalami, ham siyosiy faoliyati bilan birdek kurash olib borgan, butun ongli hayotini, hatto shirin jonini Vatan ozodligi yo'lida qurbon qilgan Abdurauf Fitratning Vatanga samimiy munosabati ifodalangan quyidagi satrlari misol bo'la oladi: "Ey, ulug' Turon... Sen mening Vatanimsan... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq - mening o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdur. Panohim, sajdagohim, umidim! Yotlaring seni shu kuyga soldilar... Zolimlar seni kimsasiz ko'rdilar! Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men, chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o'lurman.

Ey, turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga!".

Ulug' allomalar ijodida xalq va Vatan tushunchasi hamisha yonma-yon keladi. Odamlarga yaxshilik qilish – Vatanga xizmat qilish deb tushuniladi. Demak, Vatanni sevmoq – bu o'z elini sevmoq va uning xizmatiga shay turmoqdir:

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,
Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il.[1]

ya'ni, "Zamon ahlining jismida jon bo'l, ham jonlariga darmon bo'l", deya uqtiradi she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy.

"Vatanni shod etish uchun ko'p qayg'uring", deya ta'kidlaydi oqila momolarimizga ilm-ma'rifat bergan ustoz Dilshod Barno. Vatanga muhabbat va fidoyilik tuyg'usi uning she'rlarida o'zgacha shukuh bilan jaranglaydi:

O'zungni o'ylama tanho, el ichra sodiq bo'l,
No'xotcha yetsa ziyoning, o'zing hayotdan kech.[2]

Vatanga va xalqqa muhabbat egizak tushunchalardir. Kimki Vatanni sevsa, xalqining og'ir-yengil yumushiga kamarbasta, inson zotiga mehr-muhabbatli, yurt ravnaqi yo'lida g'ayrat-shijoatli bo'ladi. Yurt ozodligi va xalq farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsatib, xalqqa yaxshilik qilishni shiori deb bilib, shu bilan xalq nazar-e'tiborga tushgan shoir Berdaq ta'kidlab aytganidek:

Yaxshi bo'lsang, murodingga yetarsan,

[1] Yoshlarga donolar o'giti. O'zbekiston yoshlar ittifoqi. Respublika iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.- 146 b.

[2] Alisher Navoiy. Hikmatlar. - "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006 y. – 223 b. – 48-b.

Necha manzil, xavfli joydan o‘tarsan,
Yomon bo‘lsang, ohu fig‘on etarsan,
Yomonni uchratsang, daf qil xalq uchun[3].

Insoniyat tarixida odamzodga yaxshilik qilishni odat qilgan, bu fazilatni insonning eng muhim fazilati sifatida yuksaklarga ko‘targan mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning o‘rnini alohida qayd etish joizdirki, u xalqning salomatligi uchun qayg‘urib, kasal kishilar dardiga davo izlab, hamisha darbadarlikda hayot kechirgan ulug‘ alloma hisoblanadi. “Arastuning shogirdi ham bo‘lmasdan, o‘zining aql-iste’dodi va zehni bilan Arastuga barobar” bo‘lgan Abu Ali Ibn Sino (980-1037) tibbiyot va fanning turli sohalariga oid bilimlardan tashqari, insonga xos go‘zal fazilatlarga oid go‘zal pand-nasihatlarni ham meros qoldirdi. Uning fikrlari ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sohasida ilg‘or qarashlar ilgari surilgani bilan e’tiborga molikdir.

Shu sababli o‘z faoliyati misolida insoniyat dardiga shifo izlagan Ibn Sinoning quyidagi fikrini ibratli va ta’sirchan fikr sifatida yoshlarga taqdim etish lozim deb bilamiz: “Kishidagi eng yaxshi xulq-atvor odamlarning qayg‘u-hasratiga sherik bo‘lishdir”[4].

Yaxshilikni Vatan timsoli bilan bog‘lagan inson adashmaydi. Chunki ezgu tushunchalarning barchasi Vatan siymosi bilan uyg‘un tarzda idrok etiladi.

Vatan inson ko‘z ochib ko‘rgan ona maskan, bolalik va yoshligining eng go‘zal xotiralari o‘tgan bog‘u bo‘ston, qadrdon qishlog‘i, farovon shahridir. Ota-ona, oila, ona tili, mahalla-ko‘y, maktab, madaniyat va ma’rifat, umuman, inson qadrlaydigan va qumsaydigan barcha oliy tuyg‘ular Vatan va xalq tushunchasi bilan uyg‘unlikda asl ma’no kasb etadi. Vatan farovonligi uning bag‘ridagi har bir kishining erkin va ozod, turmush mashaqqatlaridan xoli, bemalol, o‘z orzu-maqsadi yo‘lida g‘ayrat-shijoat bilan mehnat qilish, tabiat go‘zalligidan rohatlanish baxtiga erishishga sharoit yaratadi. Shu sababli, dono xalqimiz “Vataning tinch-sen tinch” deb aytadilar.

Ta’kidlash joizki, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarda Vatanga muhabbatni shakllantirishda, yoshlarda ijtimoiy odob-axloqni tarbiyalashda “Vatan tuyg‘usi” o‘quv predmeti muhim o‘rin egallaydi. Ushbu fan bo‘yicha o‘quv dasturi va rejasida o‘quvchilarni Vatanga muhabbatli, oilasi, do‘stlari va qarindoshlariga sadoqatli, Vatan xizmatiga kamarbasta, mard va jasoratli, komil inson qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilgan.

Umumta’lim maktablarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida o‘rganiladigan “Tarbiya” fanini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda Vatan, jamiyat haqidagi tushunchalar kengayadi, hayotiy tushunchalar bilan boyib boradi. Albatta, “Tarbiya” o‘quv predmeti mohiyatiga ko‘ra xalqning ma’naviy-axloqiy tarixidan ibrat olishga, bolalarda Vatan tuyg‘usini shakllantirishga, ularni xalqimizning eng yaxshi an’analari asosida tarbiyalashga qaratilgan fandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoshlarga donolar o‘giti. / O‘zbekiston yoshlar ittifoqi; Respublika iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIIU, 2018. – 146 b.

2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – Toshkent: Sharq NMK, 2006. – 223 b.

3. Aminov B., Rasulov T. Vatan – yurakdagi javohir. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 232 b. (Iqtibos olingan betlar: 220–221).

4. Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 459 b.

[3] Bilol Aminov, To‘lqin Rasulov. Vatan- yurakdagi javohir. – O‘qituvchi nashriyoti, 2001 y. – 232 b. – 220-221-b.

[4] Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. – T.: Ma’naviyat, 2006.

Nodirbek MURODOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNING SIYOSIY ONGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Maqolada milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar tizimi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, pedagogik, psixologik va texnologik omillarning o'zaro ta'siri va ularning yoshlarning siyosiy ongiga bevosita va bilvosita ta'sir mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat siyosati va huquqiy-me'yoriy baza, ta'lim tizimining holati va imkoniyatlari, oilaviy muhit va ijtimoiy institutlarning roli, globallashuv va axborotlashtirish jarayonlarining ta'siri, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik, milliy-madaniy muhit va qadriyatlar tizimi, demografik o'zgarishlar va yoshlar xususiyatlari batafsilroq tahlil etiladi. O'zbekiston kontekstida ushbu omillarning hozirgi holati, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni kengaytirish va samaradorlikni oshirish uchun zarur strategik yondashuvlar va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar, milliy qadriyatlar, yoshlarning siyosiy ongi, davlat siyosati, ta'lim tizimi, oilaviy muhit, globallashuv, axborotlashtirish, iqtisodiy omillar, madaniy kontekst, ijtimoiy institutlar, media ta'siri, fuqarolik jamiyati, tarbiyaviy omillar.

В данной статье проводится комплексный анализ системы факторов, влияющих на совершенствование социально-педагогических возможностей развития политического сознания молодежи на основе национальных ценностей. В исследовании рассматриваются взаимосвязь и механизмы прямого и косвенного воздействия социально-политических, экономических, культурных, педагогических, психологических и технологических факторов на формирование политического сознания молодежи. В статье подробно анализируются государственная политика и нормативно-правовая база, состояние и возможности системы образования, роль семейной среды и социальных институтов, влияние процессов глобализации и информатизации, экономическое развитие и социальная стабильность, национально-культурная среда и система ценностей, демографические изменения и особенности молодежи. В контексте Узбекистана раскрываются современное состояние данных факторов, их положительное и отрицательное влияние, а также предлагаются стратегические подходы и рекомендации по расширению социально-педагогических возможностей и повышению их эффективности.

Ключевые слова. Влияющие факторы, социально-педагогические возможности, национальные ценности, политическое сознание молодежи, государственная политика, система образования, семейная среда, глобализация, информатизация, экономические факторы, культурный контекст, социальные институты, влияние СМИ, гражданское общество, воспитательные факторы.

This article provides a comprehensive analysis of the system of factors influencing the improvement of socio-pedagogical opportunities for developing youth political consciousness based on national values. The study examines the interrelation and mechanisms of direct and indirect influence of socio-political, economic, cultural, pedagogical, psychological, and technological factors on the formation of youth political awareness. The article offers an in-depth

analysis of state policy and the legal framework, the condition and potential of the education system, the role of the family environment and social institutions, the impact of globalization and digitalization processes, economic development and social stability, the national-cultural environment and value system, as well as demographic changes and youth characteristics. Within the context of Uzbekistan, the current state of these factors, their positive and negative effects, as well as strategic approaches and recommendations aimed at expanding socio-pedagogical opportunities and enhancing their effectiveness, are presented.

Key words. Influencing factors, socio-pedagogical opportunities, national values, youth political consciousness, state policy, education system, family environment, globalization, digitalization, economic factors, cultural context, social institutions, media influence, civil society, educational factors.

Yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish ko‘p omilli, murakkab va dinamik jarayon bo‘lib, u turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, pedagogik va boshqa omillarning o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi hisobotlarida ta’kidlanishicha, yoshlarning siyosiy sotsializatsiyasi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayoniga ko‘plab tashqi va ichki omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarni to‘liq va chuqur tushunish yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va bir qator boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar bu sohada kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi. Biroq, bu chora-tadbirlarning samaradorligi yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishga ta’sir etuvchi barcha omillarni hisobga olish, ularning ijobiy potensialini kuchaytirish va salbiy ta’sirlarini kamaytirish bilan belgilanadi.

Davlat siyosati va uning me’yoriy-huquqiy asoslari yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishga ta’sir etuvchi eng muhim makro-darajadagi omillardan biridir. Davlat yoshlar masalalariga qanday yondashishi, qanday ustuvorliklar va maqsadlar belgilashi, qanday resurslar ajratishi yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va siyosiy ishtirokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yoshlar siyosatiga katta e’tibor qaratilmoqda – 2016-yilda “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi kabi maxsus institutlar yaratildi, yoshlar uchun turli imtiyozlar, grantlar va dasturlar ishlab chiqildi. Davlat siyosatining ijobiy ta’siri quyidagilardan iborat: yoshlar masalalariga davlat darajasida e’tibor yoshlarning o‘z-o‘zini qadrlashini va jamiyatda o‘z o‘rnini his qilishini kuchaytiradi; ta’lim, tadbirkorlik, sport, madaniyat sohasida yoshlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish ularning ijtimoiy faolligini oshiradi; yoshlar tashkilotlari va uyushmalarini qo‘llab-quvvatlash fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga yordam beradi; milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltirilgan dasturlar yoshlarning milliy identitligini mustahkamlaydi.

Yoshlar huquqlarini belgilovchi huquqiy-me’yoriy baza yoshlarning siyosiy ongini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Konstitutsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun yoshlarning huquqiy maqomini belgilaydi. Qonunlarning demokratikligi, shaffofligi, amalda qo‘llanilishi yoshlarning huquq va qonun ustuvorligiga ishonchini shakllantiradi. Davlat institutlarining samaradorligi va sifati ham muhim – agar davlat institutlari samarali ishlasa, adolatli va shaffof bo‘lsa, yoshlarda davlatga ishonch va sodiqlik shakllanadi. Ta’lim siyosati va ta’lim tizimidagi islohotlar yoshlarning siyosiy ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh

qilish – maktabgacha ta’limni rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’limni 11 yillik tizimga o‘tkazish, oliy ta’lim sifatini oshirish, ta’lim mazmunini yangilash – yoshlar ta’lim-tarbiyasining sifatini oshirishga qaratilgan. Ta’lim dasturlarida milliy tarix, madaniyat, fuqarolik tarbiyasi fanlarini kuchaytirish yoshlarning milliy identitligi va fuqarolik ongini shakllantiradi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi va yoshlar uchun iqtisodiy imkoniyatlar ularning siyosiy ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy barqarorlik, o‘sish, ish o‘rinlari yaratilishi, daromadlar o‘sishi yoshlarda kelajakga ishonch, hayotdan qoniqish va davlat siyosatiga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Aksincha, iqtisodiy inqiroz, ishsizlik, qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik yoshlar orasida norozilik, siyosiy radikallashuv yoki passivlikni keltirib chiqaradi. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarining rivojlanishi, xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Yoshlar uchun tadbirkorlik sohasida imtiyozlar, mikrokredit dasturlari, startaplarni qo‘llab-quvvatlash ularning iqtisodiy faolligini oshirmoqda. Yoshlarning iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy mobillik imkoniyatlari ularning siyosiy ongiga ta’sir qiladi. Agar yoshlar o‘z mehnat va qobiliyatlari orqali ijtimoiy maqomini yaxshilash, iqtisodiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ular mavjud tizimni qo‘llab-quvvatlashga moyil bo‘ladi.

Ijtimoiy tengsizlik darajasi – daromadlar, imkoniyatlar, resurslar taqsimoti bo‘yicha farqlar – yoshlarning siyosiy ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Haddan tashqari tengsizlik, ayniqsa agar u adolatsiz deb qabul qilinsa, ijtimoiy keskinliklar, norozilik va radikallashuv xavfini oshiradi. Adolatli taqsimot, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, barcha uchun teng imkoniyatlar ijtimoiy barqarorlik va yoshlarning tizimga ishonchini ta’minlaydi. Urbanizatsiya va ichki hamda tashqi migratsiya yoshlarning siyosiy ongiga ta’sir etuvchi muhim demografik-ijtimoiy omillardir. Qishloqdan shaharga ko‘chish, mintaqalararo migratsiya, mehnat migratsiyasi yoshlarning hayot tajribasi, qadriyatlar tizimi va siyosiy qarashlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shahar muhiti ko‘proq imkoniyatlar, turli madaniyatlar bilan tanishish, zamonaviy hayot tarzini taklif etadi, ammo bir vaqtning o‘zida an’anaviy qadriyatlar va mahalliy ijtimoiy nazoratdan uzilib ketish xavfini ham yaratadi. Oila – yoshlarning siyosiy sotsializatsiyasining birinchi va eng kuchli agenti. Oila tuzilmasi, oilaviy munosabatlar sifati, ota-onalarning ta’lim darajasi, iqtisodiy ahvoli, qadriyatlar tizimi va tarbiya uslublari yoshlarning siyosiy ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning siyosiy qarash va xulq-atvori, oiladagi siyosiy muhokamalar, milliy an’analarni saqlash darajasi yoshlarning siyosiy identifikatsiyasida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda an’anaviy oila qadriyatlari hali ham kuchli, ammo zamonaviy transformatsiyalar oila tuzilmasi va munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Kichik oilalarning ko‘payishi, ayollarning bandlik va mustaqillik darajasining oshishi, yoshlarning erta oila qurish yoshining kechikishi oilaviy dinamikani o‘zgartirmoqda. Ota-onalar va yoshlar o‘rtasida qadriyatlar va dunyoqarash farqi ham kuchaymoqda, bu ba’zan ziddiyatlarga olib keladi. Tarbiya uslubi – avtoritar, demokratik yoki liberal – yoshlarning siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatadi. Demokratik tarbiya uslubi mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli, demokratik qarashlarga ega yoshlarni tarbiyalaydi. Avtoritar uslub yoki haddan tashqari liberal uslub yoshlarda passivlik yoki aksincha, qo‘pollik va radikalizmni keltirib chiqarishi mumkin. Ta’lim institutlari – maktabgacha ta’lim, maktablar, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim muassasalari – yoshlarning siyosiy sotsializatsiyasining rasmiy agentlari hisoblanadi. Ta’lim institutlarining sifati, ularning moddiy-texnik bazasi, o‘qituvchilarning malakasi, ta’lim dasturlarining mazmuni va zamonaviyligi, ta’lim jarayonining tashkili yoshlarning bilim, ko‘nikma va qadriyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ta’lim institutlarining sifati turli mintaqalar va muassasalar o‘rtasida sezilarli farq qiladi,

bu tengsizliklar yoshlarning ta’lim sifati va kelajakdagi imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Mahalla – o‘zbek jamiyatining an’anaviy va muhim ijtimoiy instituti – yoshlarning tarbiyasida va siyosiy sotsializatsiyasida o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Mahalla ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam, an’anaviy qadriyatlarni uzatish funksiyalarini bajaradi. Yoshlar tashkilotlari, sport klublari, madaniy markazlar, diniy jamoalar, ko‘ngillilar harakati kabi jamoat institutlari ham yoshlarning ijtimoiy va siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy madaniyat, tarix, an’analar, til, din – yoshlarning identefiktik va siyosiy ongini shakllantiruvchi asosiy omillardir. Milliy-madaniy merosning boyligi, uning saqlanishi va avlodlarga uzatilishi, zamonaviy sharoitda qayta talqin qilinishi yoshlarning milliy identitligini mustahkamlaydi. O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi – Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar, Amir Temur, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi buyuk shaxslar, boy adabiyot va san’at an’analari – yoshlarda milliy g‘urur va identitlik hissini shakllantiradi. Biroq, globallashuv va madaniyatlar o‘zaro ta’siri milliy qadriyatlarga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. G‘arb va Sharq madaniyatlari, zamonaviy pop-madaniyat, yangi hayot tarzi va qadriyatlar yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Bu jarayon madaniy boylik va tanlov erkinligini kengaytirsa-da, milliy dentefiktik inqirozi, qadriyatlar ziddiyati xavfini ham yaratadi. Milliy va umuminsoniy, an’anaviy va zamonaviy, mahalliy va global qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni topish yoshlar siyosatining muhim vazifasidir.

Zamonaviy media va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlarning siyosiy ongiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Televideniye, radio, gazeta-jurnallar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenger dasturlar, video platformalar, bloglar – bularning barchasi axborot va g‘oyalar tarqalishining kuchli kanallari hisoblanadi. Yoshlar, ayniqsa “raqamli avlod”, kuniga bir necha soat onlayn muhitda bo‘ladi va u yerdan axborot, g‘oya, qadriyatlarni qabul qiladi. Media yoshlarning siyosiy ongiga axborot berish, kun tartibini belgilash, voqealarni taqdim etish, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni uzatish, yoshlarni siyosiy faoliyatga jalb qilish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, media ta’sirining salbiy jihatlari ham mavjud: noto‘g‘ri va yolg‘on ma’lumot, manipulyatsiya va propaganda, faqat bir tomonlama ma’lumotlarni ko‘rish, haddan tashqari axborot yuklama, virtual faollik real siyosiy ishtirokni almashtirish. San’at, adabiyot, kino, musiqa, teatr kabi madaniy mahsulotlar yoshlarning estetik didini, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashini shakllantiradi. Milliy adabiyot va san’at an’analari, zamonaviy milliy ijodkorlarning asarlari yoshlarda milliy identitlik va g‘ururni kuchaytiradi. Ommabop madaniyat yoshlar orasida keng tarqalgan va ularning hayot tarziga, qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuv – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot sohalarda mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarning kuchayishi – yoshlarning siyosiy ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv yoshlarga keng imkoniyatlar yaratadi – xalqaro ta’lim, sayohat, ish, axborot va g‘oyalarga kirish, turli madaniyatlar bilan tanishish. Biroq, globallashuv bir vaqtning o‘zida milliy identitlik, an’anaviy qadriyatlar va madaniy o‘ziga xoslik uchun muayyan tahdidlar ham yaratadi. Globallashuv yoshlarning siyosiy ongiga quyidagi yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi: kosmopolitik dunyoqarashning shakllanishi, universal qadriyatlarning tarqalishi – inson huquqlari, demokratiya, gender tengligi kabi global qadriyatlar yoshlar orasida keng qabul qilinmoqda, madaniy gibridlashuv – milliy va global madaniyatlarning qorishishi natijasida yangi identitliklar paydo bo‘lmoqda, transnatsional aloqalar va tarmoqlar – yoshlar xalqaro hamjamiyat, onlayn jamoalar, global harakatlarga qo‘shilish imkoniyatiga ega. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ham muhim omildir. Ta’lim sohasida xalqaro dasturlar, talabalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqotlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Xalqaro

tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan yoshlar dasturlari, grantlar, treninglar yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini oshiradi. Biroq, xalqaro ta’sir ba’zan milliy manfaatlar va qadriyatlar bilan ziddiyatga olib kelishi mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘lib, murakkab tizimni tashkil etadi. Asosiy omillar qatoriga davlat siyosati va huquqiy-me’yoriy baza, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, oilaviy muhit va ijtimoiy institutlar, madaniy va axborot muhiti, globallashuv va xalqaro ta’sirlar kiradi. Bu omillarning har biri yoshlarning siyosiy ongiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijobiy omillarni kuchaytirish va salbiy omillarning ta’sirini kamaytirish yoshlar siyosatining strategik vazifasidir. Davlat, jamiyat, oila, ta’lim institutlari, media va boshqa subyektlarning muvofiq va kompleks harakatlari orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy, tanqidiy fikrlovchi va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNDP. Youth Political Participation and Decision-Making. – United Nations Development Programme, 2013. – 68 p.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.

3. Inglehart R., Welzel C. Modernization, Cultural Change, and Democracy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 333 p.

4. Wilkinson R., Pickett K. The Spirit Level: Why Equality is Better for Everyone. – London: Penguin Books, 2010. – 374 p.

5. Baumrind D. Current Patterns of Parental Authority // Developmental Psychology Monographs. – 1971. – Vol. 4, № 1. – P. 1-103.

6. Sunstein C.R. Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. – Princeton: Princeton University Press, 2017. – 328 p.

7. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.

Mansur CHO‘LLIEV,
“International School of Finance Technology and Science” (ISFT instituti) nodavlat oliy ta’lim muassasasi, pedagogika yo‘nalishi magistranti

PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA ACTION RESEARCH (AMALIY TADQIQOT) USULIDAN FOYDANISH

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida amaliy tadqiqot (Action Research) metodologiyasini qo‘llash orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil yechim topish, faol ishtirok va metata’limiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan tarix fanidan o‘tkazilgan amaliy tadqiqotda GROW-modeli, infografika, klaster va refleksiv tahlil elementlaridan samarali foydalanish natijasida dars samaradorligini oshirishga erishilgan. Ushbu yondashuv pedagogning kasbiy refleksiyasi va tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, Action Research usulining empirik, sikllı va muammoga yo‘naltirilgan xususiyatlari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi omil sifatida ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogika, metod, Action Research, “aqliy hujum”, differensiatsiya, ko‘nikma, baholash vositalari, refleksiya.

В статье рассматриваются возможности применения методологии Action Research в образовательном процессе для формирования у учащихся навыков критического мышления, самостоятельного анализа и участия. На основе педагогического эксперимента по преподаванию истории автор демонстрирует эффективность использования таких инструментов, как модель GROW, инфографика, кластерный анализ и рефлексивные методики. Подчёркивается значение данного подхода для развития профессиональной рефлексии и исследовательской компетентности педагога. Метод Action Research представляется как эмпирически обоснованный, циклический и проблемно-ориентированный инструмент повышения качества обучения.

Ключевые слова. Педагогика, метод, Action Research (действующее исследование), мозговой штурм, дифференциация, навык, средства оценивания, рефлексия.

This article explores the integration of Action Research methodology into the educational process as a means to foster students’ critical thinking, independent reasoning, and active participation. Based on an instructional experiment in teaching history, the author demonstrates the effectiveness of tools such as the GROW model, infographics, cluster analysis, and reflective practices. The study highlights the method’s relevance in enhancing teacher’s professional reflection and research competencies. Action Research is presented as a problem-oriented, cyclic, and empirically grounded strategy for improving educational quality.

Key words. Pedagogy, method, Action Research, brainstorming, differentiation, skill development, assessment tools, reflection.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga tanqidiy yondashuvi va amaliyotni muntazam tahlil qilish orqali ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatish zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda. Ushbu talab pedagogning mustaqil tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish va ta’limda izchillikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni chuqur tahlil qilish va ularga ilmiy yechim topishda “Action Research” usuli samarali vosita sifatida faol qo‘llanilmoqda. Ushbu usul o‘qituvchining kasbiy o‘sishini rag‘batlantiruvchi, ta’lim jarayonini monitoring qilish, tahlil etish va takomillashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvni nazarda tutadi.

“Атион-ресеарч как стратегия повышения эффективности собственной деятелности современного педагога” maqolasida zamonaviy pedagog faoliyatining samaradorligini oshirishda action-research (amaliy tadqiqot) metodining ahamiyati tahlil qilingan. Mualliflar amaliy tadqiqotni nafaqat ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatida, balki pedagogik muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi, innovatsion, reflektiv va ko‘p bosqichli jarayon sifatida yondashadi.

“Атион Ресеарч в профессионалной подготовке педагогов” maqolasida mualliflar pedagoglarni tayyorlash jarayonida Action Research usulining ahamiyatini yoritadilar. Ushbu yondashuv orqali pedagoglar o‘z amaliyotlarini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqolada Action Research usulining bosqichlari, pedagogik amaliyotga integratsiyasi va uning samaradorligi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

A.V. Savelevning “Primenenie metoda Action Research v obrazovatelnoy praktike” nomli maqolasi Action Research metodining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi va uning amaliy afzalliklariga bag‘ishlangan. Muallif Action Research usulini o‘qituvchining professional refleksiyasi, doimiy o‘sishi va dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda kuchli vosita sifatida taqdim etadi.

Maqolada Action Research metodining asosiy xususiyatlari (muammoga yo‘naltirilganlik, sikliklik, o‘zgarishga ochiqlik) va uni amaliyotda tatbiq yetish bosqichlari yoritilgan. Muallifning fikricha, bu metod o‘qituvchiga o‘z tajribasini chuqur tahlil qilish, dars jarayonini takomillashtirish va o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Gary Ye. Mills tomonidan yozilgan ushbu qo‘llanma o‘qituvchilar uchun action research metodining nazariy asoslari va amaliy tatbiqini mukammal tarzda tushuntiradi. Muallif bu metodni o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va o‘zgarishlarni kiritish orqali rivojlanish vositasi sifatida ko‘rsatadi.

Kitobda action research quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

– u o‘qituvchi tomonidan olib boriladi (teacher-led);

– amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘ladi (practice-driven);

– siklik xususiyatga ega (cyclical);

– muammoni hal etishga qaratilgan (problem-solving);

– reflektivlik asosida qurilgan (reflective thinking).

Mills o‘qituvchilarning sinfdagi real holatlarni o‘rganish orqali o‘z faoliyatini takomillashtirishi mumkinligini asoslab beradi va bu jarayonda to‘rt bosqichli modelni taklif qiladi: belgilash, yig‘ish, tahlil qilish, harakatga o‘tish (identify, collect, analyze, act).

Action Research usulining ta’lim jarayonidagi qo‘llanilishi o‘qituvchi faoliyatini refleksiv tahlil asosida tashkil etish va bu orqali ta’lim samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Garri Ye. Mills (Mills, 2017; Zeer, 2020) tomonidan taklif etilgan to‘rt bosqichli model – “aniqlash – ma’lumot yig‘ish – tahlil – harakatga o‘tish” (identify, collect, analyze, act) – o‘qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tizimli ravishda hal etishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yondashuv o‘qituvchi faoliyatining empirik tadqiqoti, tahliliy yangilanishi va metodik takomillashuvi uchun nazariy-amaliy asos yaratib beradi.

Ta’lim jarayonida Action Research usulini joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olishdagi faol ishtiroki, muammoni tahlil qilish, mulohazali yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish kabi kognitiv kompetensiyalarining shakllanishi ta’minlandi. Ushbu holat mazkur tadqiqotda ikki alohida sinfdagi natijalar orqali empirik jihatdan asoslandi. Ay-

niqsa, tarix fanining tahliliy va muloqotga asoslangan xususiyatlari Action Research metodining mazmunan mosligini namoyon qildi.

Darslarni zanjirli (siklli) tashkil etish hamda har bir bosqichda ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish jarayonlari asosida fanlararo va metata’limiy ko‘nikmalar shakllanishiga zamin yaratildi. Bu holat Zeer va Sidorenko (2020) ta’kidlaganidek, pedagogik tadqiqotning qiymatini oshiradigan ko‘p bosqichlilik va o‘zgarishga ochiqlik xususiyatlari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot jarayonida o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan faol kuzatuv, joriy va yakuniy refleksiya orqali dars samaradorligini baholash, interfaol munosabatni shakllantirish va manbalar bilan mustaqil ishlash mexanizmlari mustahkamlandi. Refleksiv mulohazalarda o‘quvchilarning o‘z ta’lim jarayoniga munosabatidagi o‘zgarishlar, qiziqishning kuchayishi va ma’naviy anglashuvning chuqurlashuvi yaqqol ko‘zga tashlandi. Masalan, frontdagi ayollarning faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni ifoda etgan 10-“A” sinf o‘quvchisining so‘zlari ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini ifodalaydi.

Joriy etilgan metodikada ta’limni shaffof baholash, GROW modeli orqali tarkibiy fikrlashni rivojlantirish va ta’limiy natijalarni aniqlashda infografika kabi vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarning muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirgani test natijalaridagi o‘sish orqali ham o‘z isbotini topdi.

Ta’limda Action Research usulini qo‘llash nafaqat o‘qituvchi faoliyatini monitoring qilish, balki ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini refleksiv va ijodiy faoliyatga jalb etish orqali ko‘nikma shakllanishiga xizmat qiladi, ushbu metodologiyaning aniq bir fan – tarix – asosidagi afzalliklarini aniqlash va baholash imkonini berdi.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik amaliyotda Action Research usulini tizimli tatbiq etish o‘qituvchi-metodistlarning kasbiy o‘sishida, ta’lim sifatini oshirishda va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti sifatida tarix fanini o‘qitishda Action Research usulining tatbiqi belgilandi. Uning predmeti sifatida ta’lim jarayonida amaliy tadqiqot strategiyasini qo‘llash orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ta’limga qiziqishni shakllantirish jarayoni olindi.

Tadqiqot maqsadi – ta’lim jarayonida Action Research metodologiyasini samarali qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchining refleksiv va tahlilchi kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

– qiyosiy tahlil;

– faol kuzatuv;

– refleksiv mulohazalar yig‘imi;

– intervyu;

– test va so‘rovnomalar orqali natijalarni baholash.

Darslar zanjirli shaklda tashkil etildi va har bir bosqichda ma’lumotlar yig‘ildi,

Tadqiqot jarayonida ikkita 10-sinf – 10-“A” (38 nafar o‘quvchi) va 10-“B” (35 nafar o‘quvchi) ishtirok etdi. Ularning har biriga O‘zbekiston tarixi va Jahon tarixi fanlari bo‘yicha uchtadan mavzu o‘qitildi. Action Research usuli doirasida faol kuzatuv, joriy va yakuniy refleksiya, savol-javob va test shaklidagi baholash metodlari qo‘llanildi.

1. O‘zbekiston tarixi mavzulari bo‘yicha natijalar

Mavzu	**Metodlar**	**Sinf**	**Faol ishtirok (%)**	**Aniq xulosalar va kuzatuvlar**

O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida	Klaster, tarixiy hujjat tahlili	10-“A”	82%	Aksariyat o‘quvchilar front ortidagi mehnat mavzusini chuqur angladi.
O‘zbekistonliklarning frontdagi qahramonliklari	“Aqliy hujum”, poster tayyorlash	10-“B”	77%	Shaxsiy fikrlash va tarixiy shaxslarni baholash qobiliyati oshdi.
O‘zbekiston fan va madaniyatining g‘alabaga qo‘shgan hissasi	Infografika, GROW-modeli	10-“A”	86%	Fan-ilm rivoji va madaniyat rolini bog‘lash ko‘nikmasi shakllandi

2. Jahon tarixi mavzulari bo‘yicha natijalar

Mavzu	**Metodlar**	**Sinf**	**Faol ishtirok (%)**	**Aniq xulosalar va kuzatuvlar**
Liberal-demokratik mamlakatlarda rivojlanishning yangi muammolari	SWOT tahlil, infografika	10-“B”	74%	Demokratik jamiyat muammolarida mulohazali yondashuv shakllandi.
Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari:	Xronologiya tuzish, GROW-modeli	10-“A”	79%	Siyosiy rejimlar farqi va natijalariga tanqidiy qarash yuz berdi.
Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari	Diskussiya, jamoaviy tahlil	10-“B”	83%	Mustaqillik va modernizatsiya masalalari bo‘yicha fikrlar rivojlandi.

O‘rtacha faollik darajasi 10-“A” sinfda – 82.3%, 10-“B” sinfda – 78%

Test natijalarida o‘sish:

10-“A” sinfda 3-mavzudan keyingi baholashda o‘rtacha 18% o‘sish kuzatildi

10-“B” sinfda esa 14 foiz o‘sish qayd etildi

Refleksiv mulohazalardan iqtiboslar

“Meni tarixga qiziqtirgan narsa – frontdagi ayollarning hissasi bo‘ldi. Ularning jasorati menda faxr tuyg‘usini uyg‘otdi.” (10-“A” o‘quvchisi)

“Biz GROW usulida tuzgan reja orqali jamiyatni tahlil qilishni o‘rgandik. Har bir javobimizni asoslashga majbur bo‘ldik.” (10-“B” o‘quvchisi).

Xulosa qilib aytganda, Action Research (amaliy tadqiqot) usulini ta’lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda ayrim ijobiy natijalarga erishish imkonini berishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Bunday yondashuv o‘qituvchiga o‘z faoliyatini tahlil qilish, dars jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularga nisbatan maqbul yechimlar izlash imkonini yaratadi.

Darslarni bosqichma-bosqich va siklli shaklda tashkil etish, GROW-modeli, infog-

rafika va boshqa vizual metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda fikrlash, izlanish va mulohazali munosabat bildirish kabi ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi kuzatildi. Tadqiqot jarayonida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari interfaol tus olgani va darsdan keyingi refleksiv mulohazalar orqali ayrim konstruktiv xulosalar shakllangani qayd etildi.

Ushbu tajribalar Action Research metodologiyasini umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi ayrim fanlar bo‘yicha eksperimental asosda sinovdan o‘tkazish, pedagoglarni qayta tayyorlash kurslarida ushbu yondashuv elementlarini kiritish imkoniyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, metodning milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan qo‘llanmalari va metodik tavsiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha alohida tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Action Research metodining ta’limdagi imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish va uning ta’sirini xolis baholash kelgusidagi ilmiy-amaliy ishlar uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зеер Э.Ф., Сидоренко Е.В. Методы педагогических исследований: учебное пособие. – Екатеринбург: УрГПУ, 2020. – 182 с.

2. Петрунина С.С., Чекмарева Е.Н. Action-research как стратегия повышения эффективности собственной деятельности современного педагога // Педагогическое образование в России. – 2021. – №2. – С. 111.

3. Макарова Н.В., Ковалева А.А. Action Research в профессиональной подготовке педагогов // Педагогическое образование и наука. – 2020. – № 5. – С. 98–102.

4. Савельев А.В. Применение метода Action Research в образовательной практике // Современные научные исследования и инновации. – 2021. – № 4(116). – URL: https://web.snauka.ru/issues/2021/04/94436.

5. Mills G.E. Action Research: A Guide for the Teacher Researcher. – 6th ed. – Boston: Pearson, 2017. – 272 p.

6. Ждан А.Н. Развитие профессионального самосознания учителя средствами action-research // Психологическая наука и образование. – 2022. – Т. 27, № 1. – С. 54–65.

7. Hodjaev B. va boshq. Всемирная история: методическое пособие для учителей 10-х классов. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

8. Zamonov A., Ismatova N. va boshq. История Узбекистана: хрестоматия для учителей 10-х классов. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.

Sardor ABDUXAMIDOV,
“International School of Finance Technology and Science” (ISFT instituti) nodavlat oliy ta’lim muassasasi, “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi, v.b. dotsent, p.f.f.d. (PhD)
Muattar QARSHIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJODIY FAOLIYAT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini shakllantirishda ijodiy faoliyat metodikasining nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv va pedagogik tajriba uyg‘unligi o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga asos bo‘lishi ko‘rsatilgan

Tayanch so‘zlar. Innovatsion salohiyat, ijodiy faoliyat, metodika, o‘qituvchi tayyorlash, kreativ fikrlash, pedagogik yangilik.

В статье анализируются теоретические основы и практические направления методики творческой деятельности в формировании инновационного потенциала будущих учителей. Также показано, что сочетание инновационного мышления, креативного подхода и педагогического опыта является основой профессионального роста учителей.

Ключевые слова. инновационный потенциал, творческая деятельность, методика, подготовка учителей, креативное мышление, педагогическое новшество.

The article analyzes the theoretical foundations and practical directions of the methodology of creative activity in the formation of the innovative potential of future teachers. It is also shown that the combination of innovative thinking, a creative approach, and pedagogical experience is the basis for the professional growth of teachers.

Key words. Innovative potential, creative activity, methodology, teacher training, creative thinking, pedagogical innovation.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – raqobatbardosh, ijodkor va innovatsion fikrlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy pedagogik jarayonlar nafaqat bilim berishga, balki bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish hamda yangilik yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijodkorlik, innovatsiya va metodika integratsiyasini o‘rganish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy va ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion salohiyati ularning kasbiy faoliyatida ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, innovatsion salohiyatni shakllantirishda ijodiy faoliyat metodikasining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil

qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, keys-stadi, aqliy hujum va interfaol o‘yin texnologiyalarining bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonlarda ijodkorlik, innovatsiya va metodika integratsiyasini o‘rganishda juda dolzarbdir.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishdir. Ta’lim jarayonida ijodiy yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va o‘qituvchilarning kreativ faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Innovatsion salohiyat bu o‘qituvchining yangilik yaratish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, ta’lim jarayonini o‘zgartirish va uni samarali tashkil etish qobiliyatidir. Bunday salohiyatni shakllantirishda ijodiy faoliyat metodikasi markaziy o‘rin tutadi.

Ijodiy faoliyat metodikasi bu o‘quvchi, talaba va o‘qituvchi faoliyatida yangilik yaratishga yo‘naltirilgan o‘qitish usullarining majmui bo‘lib, u quyidagilarga asoslanadi:

– muammoli o‘qitish;
– loyiha asosida ta’lim;
– keys-stadi metodlari;
– aqliy hujum (brainstorming);
– interfaol o‘yin texnologiyalari.

Bu metodlar o‘qituvchida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va innovatsion yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion salohiyatni shakllantirishning birqancha bosqichlari mavjud bo‘lib quyidagi diagrammada bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion salohiyatni shakllantirish jarayonining bosqichlari tasvirlangan

Innovatsion salohiyatni rivojlantirish bosqichlari

Bosqich	Faoliyat yo‘nalishi	Natija
Bilim bosqichi	Innovatsion tushunchalar bilan tanishish	Asosiy nazariy bilimlar shakllanadi
Amaliy bosqich	Ijodiy topshiriqlar, loyihalar bajarish	Mustaqil fikrlash rivojlanadi
Refleksiya bosqichi	O‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish	Innovatsion tajriba hosil bo‘ladi

Taqqoslama jadval-grafik (An’anaviy va innovatsion metodlar samaradorligi)

Ko‘rsatkich	An’anaviy metod (%)	Innovatsion metod (%)
Talaba faolligi	40	85
Mustaqil fikrlash	45	88
Ijodiy yechim topish	30	90
Rag‘batlanish darajasi	50	80

Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda amaliy usullarning o‘rni beqiyosdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun quyidagi amaliy usullar samarali natija beradi:

1. “Kreativ loyiha” usuli talabalarga ta’limda yangilik kiritish g‘oyasini ishlab chiqish topshiriladi.

2. “Aqliy hujum” muammoli vaziyatni birgalikda tahlil qilib, noodatiy yechimlar topiladi.

3. “Rolli o‘yinlar” pedagogik vaziyatlarda ijodkorlikni namoyon etish imkoniyati yaratiladi.

4. “Innovatsion laboratoriya” yangi ta’lim texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishda ijodiy faoliyat metodikasi muhim o‘rin tutadi. U pedagogik jarayonda yangilik yaratish, o‘z fikrini mustaqil bayon etish, zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashga yo‘naltiradi.

Ijodiy faoliyat metodikasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘qituvchini nafaqat bilim egasi, balki innovatsion fikrlaydigan yetakchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida ijodkor o‘qituvchilarni tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion salohiyatni samarali rivojlantirish uchun ijodiy faoliyatni tizimli tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Quyida bu yo‘nalishda amalga oshirish mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalar keltiriladi.

1. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida “Innovatsion fikrlash va ijodkorlik” fanini joriy etish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ijodiy loyiha laboratoriyalarini tashkil etish.

3. Har yili “Ijodkor pedagog” nomli tanlov o‘tkazish orqali kreativlikni rag‘batlantirish.

4. Ta’lim jarayonida interfaol, raqamli va innovatsion metodlardan keng foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Innovatsion ta’lim va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

2. Karimova G. Ijodiy yondashuv metodlari va ularning samaradorligi // Ta’lim va taraqqiyot jurnali. – 2024. – №2. – B. 41–47.

3. Sattorova Z. Ijodkorlik va pedagogik tafakkurni rivojlantirish asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

4. Xolmatov B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘qituvchi kompetensiyasi // Pedagogika va psixologiya. – 2024. – №2. – B. 28–35.

Dilorom ADILOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Pedagogika psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti, “Pedagogika” kafedrasi, dotsent

JAHONDA SODIR BO‘LAYOTGAN O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA YOSHLARIMIZNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHDA “STEAM” TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada XXI asrning global bilim maydoni, raqamli iqtisodiyot va innovatsion mehnat bozori sharoitida Yangi O‘zbekiston yoshlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta’limi qanday strategik ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzu doirasida STEAM yondashuvining nazariy asoslari, kompetensiyalar tizimi, ta’lim jarayonidagi fanlararo integratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari, jahon tajribasi (Finlandiya, AQSH va boshqa davlatlar) hamda milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan modelning zarurati bayon qilinadi.

Tayanch so‘zlar. STEAM ta’limi, global bilim maydoni, Yangi O‘zbekiston, yoshlar raqobatbardoshligi, raqamli iqtisodiyot, bir million o‘zbek dasturchisi, IT Park, robototexnika, kreativ fikrlash.

В данной статье проводится научный анализ того, какое стратегическое значение имеет образование STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) в обеспечении конкурентоспособности молодежи Нового Узбекистана в условиях глобального образовательного пространства XXI века, цифровой экономики и инноватsionного рынка труда. Также в рамках темы раскрываются теоретические основы подхода STEAM, система компетенций, экономические и социальные результаты междисциплинарной интеграtsii в образовательном процессе, мировой опыт (Финляндия, США и другие страны), а также необходимость разработки модели, адаптированной к natsionальной системе образования.

Ключевые слова. Образование STEAM, глобальное образовательное пространство, Новый Узбекистан, конкурентоспособность молодежи, цифровая экономика, “Один миллион узбекских программистов”, IT Park, робототехника, креативное мышление.

This article provides a scholarly analysis of the strategic role of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) education in ensuring the competitiveness of New Uzbekistan’s youth within the global knowledge space of the 21st century, under the conditions of the digital economy and an innovation-driven labor market. The paper also examines the theoretical foundations of the STEAM approach, the related system of competencies, the economic and social outcomes of interdisciplinary integration in the educational process, international experience (Finland, the USA and other countries), as well as the necessity of developing a model adapted to the national education system.

Key words. STEAM education, global knowledge space, New Uzbekistan, youth competitiveness, digital economy, One Million Uzbek Coders, IT Park, robotics, creative thinking.

Hozirgi davrda jahon taraqqiyoti markazida bilim, innovatsiya va yuqori texnologiyalar turibdi. Global bilim maydoni tobora transmilliy xususiyat kasb etar ekan, inson kapitalining sifati, raqamli savodxonlik, muhandislik va kreativ

kompetensiyalar har bir davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy forumi, OECD va boshqa nufuzli tashkilotlar hisobotlarida kelgusi o‘n yilliklarda mehnat bozori tarkibi keskin o‘zgarishi, odatiy, takroriy, “rutina” xususiyatga ega ishlarning avtomatlashtirish hisobiga qisqarishi, buning evaziga murakkab tahlil, kreativ dizayn, yuqori darajadagi kommunikatsiya va jamoada ishlashni talab qiluvchi kasblar ulushi sezilarli oshishi ta’kidlanadi. Shu jihatdan qaraganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini tubdan yangilash, uni faqat bilim beruvchi emas, balki global raqobat sharoitida yurt yoshlarining intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan mexanizm sifatida tashkil etish zarurati paydo bo‘ldi.

Bu transformatsiyada STEAM ta’limi markaziy o‘rin egallaydi. Chunki u an’anaviy “fanni alohida o‘qitish” modelidan farqli ravishda, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani real hayot muammolarini hal etish jarayonida integratsiyalashga qaratilgan yondashuvni taklif etadi. Ilmiy adabiyotlarda STEAM ta’limi konstruktivistik didaktika, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv va loyiha asosida o‘qitish g‘oyalari sintezidan iborat ekani qayd etiladi.

STEAM yondashuvi mohiyat e’tibori bilan o‘quvchi ongida “bilim – ko‘nikma – kompetensiya – ijodkorlik” zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda ilmiy bilimlar abstrakt formulalar emas, balki konkret loyihalar, prototiplar, texnik yechimlar, raqamli mahsulotlar shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, fizika darsida o‘quvchi faqat Ohm qonunini yodlab qolmaydi, balki sensorlar bilan ishlaydigan sodda aqlli yoritish tizimi yoki avtomatik sug‘orish prototipini yaratish jarayonida ushbu qonunni amaliy qo‘llashni o‘rganadi. Informatika darsida algoritm mavzusi, masalan, robototexnika platformasi yoki Arduino kontrolleri yordamida chiziq bo‘ylab yuruvchi robotni dasturlash orqali o‘zlashtiriladi. San’at va dizayn komponenti esa mazkur texnik yechimni inson uchun qulay, estetik va ergonomik ko‘rinishga keltirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa STEAM o‘quvchilarni nafaqat alohida fanlar bo‘yicha bilimga, balki kompleks kompetensiyalar tizimiga ega shaxs sifatida shakllantiradi. Bu kompetensiyalar tarkibiga kritik va tizimli fikrlash, muammolarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish, raqamli savodxonlik va algoritmik tafakkur, hamkorlikda ishlash, kommunikatsiya, o‘zini-o‘zi baholash va refleksiya, ijodiy tashabbus va tadbirkorlik ruhidagi yondashuv kiradi. Xalqaro tadqiqotlar aynan shunday kompetensiyalar global mehnat bozorida eng yuqori talabga ega bo‘layotganini ko‘rsatmoqda.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi aynan shu maqsad – yoshlar uchun global darajada raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratish atrofida shakllanmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish, yashil energetika, transport va logistika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sektori kabi sohalarni modernizatsiyalash bo‘yicha qabul qilinayotgan strategik dasturlar kelajakda ushbu tarmoqlarda ishlaydigan mutaxassislarning STEAM kompetensiyalariga ega bo‘lishini talab etadi. Innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan mutaxassislar profili – dasturchi, ma’lumotlar tahlilchisi, muhandis-dizayner, biotexnolog, energetik, IT-menejer, raqamli marketing mutaxassisi – barchasi STEAM bazasiga tayanadi.

Shunday sharoitda STEAM ta’limi O‘zbekiston yoshlarini global bilim maydoni bilan bog‘lovchi ko‘prik sifatida qaralishi lozim. Ularning xalqaro olimpiadalar, startap tanlovlari, onlayn kurslar, ilmiy grantlar va transmilliy kompaniyalardagi ishtiroki uzluksiz STEAM muhitiga bevosita bog‘liq.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni yangi texnologik bosqichga olib chiqish bo‘yicha qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar, xususan Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quv jarayonini STEM tamoyillari asosida tashkil etmoqda, bu yerda besh yillik dasturlar bo‘yicha matematika, informatika, muhandislikka ixtisoslashgan ta’lim berilmoqda va bu dasturlar Yangi O‘zbekiston universiteti bakalavriat dasturlari bilan integratsiyalashgan.

Umumta’lim maktablarida dasturlash va robototexnikani o‘quv dasturiga bosqichma-bosqich kiritish bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi ham STEAM ekotizimining shakl_ lanishida muhim qadam bo‘ldi. 2020-yildan boshlab yuqori sinflarda dasturlash va zamonaviy kasblarga yo‘naltirilgan o‘quv modullarini joriy etish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surilgan bo‘lib, 8–9-sinflarda o‘quvchilarga dasturchi, dizayner, tarjimon kabi istiqbolli kasblar uchun zarur poydevor ko‘nikmalarini berish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, ilmiy maqolalar O‘zbekistonda robototexnika hali majburiy o‘quv dasturiga to‘liq integratsiyalashmaganini, biroq turli nodavlat o‘quv markazlari, to‘garaklar va xususiy maktablar orqali noformal shaklda jadal kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Raqamli ko‘nikmalarni ommalashtirishda “Bir million o‘zbek dasturchisi” (One Million Uzbek Coders) tashabbusi alohida ahamiyat kasb etadi. 2019-yilda Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda boshlangan ushbu loyiha orqali uzbekcoders.uz platformasida aholiga, ayniqsa yoshlar uchun, “data analytics, Android” dasturlash, “full-stack” va “front-end” rivojlantirish bo‘yicha bepul onlayn kurslar taqdim etilmoqda. Loyihaning maqsadi – yoshlarning iste’dodini ro‘yobga chiqarish, inson kapitalini rivojlantirish va kelajak mehnat bozori uchun zarur bo‘lgan IT mutaxassislarini yetishtirishdan iborat. 2021-yilga kelib loyiha ishtirokchilari soni yarim million kishidan oshgani, g‘oliblar uchun turli rag‘batlar, jumladan sertifikatlar va ishga joylashuv imkoniyatlari taqdim etilgani qayd etilgan. 2024-yilda loyiha ikkinchi mavsumining ishga tushirilishi esa uning uzoq muddatli va barqaror xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi.

Raqamli infratuzilmani kengaytirishda IT Park va uning hududiy markazlari alohida rol o‘ynamoqda. IT Park tomonidan respublika bo‘yicha yuzlab IT markazlar tashkil etilib, ularda kompyuter savodxonligi, veb dasturlash, mobil robototexnika asoslari, grafik dizayn kabi yo‘nalishlar bo‘yicha yoshlar tayyorlanmoqda.

Oliy ta’lim tizimida ham STEM va STEAM yo‘nalishlari bo‘yicha kurslar, yangi ta’lim dasturlari joriy etilmoqda. So‘nggi yillardagi ilmiy ishlarda O‘zbekiston oliy ta’limida STEMni joriy etish bo‘yicha izlanishlar olib borilayotgani, fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsad qilinayotgani ta’kidlanadi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, bu borada maxsus konsepsiyalar va yirik dasturlar qabul qilinmoqda; “Besh million o‘zbek AI prompteri” kabi yangi tashabbuslar ham aynan raqamli kompetensiyalarni ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Finlandiya, AQSH va boshqa ilg‘or davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, STEAM ta’limi eng avvalo ta’limni fanlararo integratsiya asosida qayta tashkil etishni, o‘qituvchi rolini “ma’lumot beruvchi shaxs”dan “loyiha rahbari va mentor”ga o‘zgartirishni, baholash tizimini esa reproduktiv bilimdan ko‘ra jarayon va kompetensiyalarni hisobga oluvchi modelga aylantirishni talab qiladi. Finlandiya maktablarida o‘quvchi aerodinamika qonuniyatlarini model samolyotlar dizayni, elektrotexnika asoslarini real loyihalar orqali o‘zlashtiradi; raqamli texnologiyalar dars jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. AQSHda esa STEAM ta’limi sanoat va innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, ko‘plab maktab va kollejlarda robototexnika, kodlash, muhandis-

lik loyihalari matematika va fizika kurslariga integratsiya qilingan, shu orqali ta’lim va mehnat bozori o‘rtasida mustahkam uzviylik vujudga keltirilgan.

Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham muhim xulosalarni taqdim etadi. Birinchidan, STEAM nafaqat poytaxt yoki elit maktablarga xos bo‘lgan “maxsus yo‘nalish”, balki butun ta’lim tizimining umumiy falsafasiga aylanishi kerak. Ikkinchidan, STEAM loyihalari iqtisodiyotning real sektori, mahalliy ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, xizmatlar sohasidagi real muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi zarur. Masalan, suv tejovchi irrigatsiya tizimlari, energiya samarador binolar, aqlli transport tizimlari, raqamli xizmat ko‘rsatish platformalari bo‘yicha maktab darajasida ham loyihalar ishlab chiqilishi mumkin. Uchinchidan, san’at va gumanitar fanlar STEAMdan chetlashtirilmasligi lozim; aksincha, u texnik tafakkurni insonparvarlik, madaniyat, kommunikatsiya bilan birlashtiruvchi kuch sifatida qaralishi kerak.

O‘zbekistonda STEAM ta’limini joriy etish bo‘yicha sezilarli natijalar bilan birga qator murakkab masalalar ham mavjud. Ilmiy tadqiqotlar robototexnika va dasturlashni umumta’lim dasturlariga integratsiya qilish jarayonida infratuzilma, pedagogik tayyorgarlik, ijtimoiy tenglik masalalari muhim to‘siqlar sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Ayrim qishloq maktablarida laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, barqaror internet tarmog‘i yetarli emas; bu esa STEAM loyihalarini to‘liq amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Shu bilan birga, an’anaviy pedagogik yondashuvdan STEAMga o‘tish o‘qituvchilardan yangi kompetensiyalar, o‘quv jarayonini qayta loyihalashni talab qilmoqda.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi islohotlar, xususan Prezident maktablari, “Bir million o‘zbek dasturchisi”, IT Park markazlari, raqamli ko‘nikmalar dasturlari, oliy ta’limda STEM kurslarini kengaytirish kabi tashabbuslar milliy STEAM ekotizimi barpo etilayotganidan dalolat beradi. Agar ushbu tashabbuslar o‘zaro uzviy bog‘langan, strategik konsepsiyaga asoslangan yagona tizimga birlashtirilsa, Yangi O‘zbekiston yoshlarining global bilim maydonidagi ishtiroki yanada faol va samarali bo‘lishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirova N. STEAM ta’lim metodologiyasi va fanlararo integratsiya // Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali. – 2023. – 2(1). – B. 45–53.

2. Shodmonov G‘., Ahmedov Sh. STEM kompetensiyalari asosida dars jarayonini tashkil etish // Pedagogika va Psixologiya. – 2021. – 4(3). – B. 102–109.

3. Ibragimov A. STEAM ta’limining nazariy asoslari va amaliyotga joriy etish yo‘llari // Ta’lim, Fan va Innovatsiya. – 2020. – 1(5). – B. 33–40.

4. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – National Science Teachers Association Press, 2013.

5. Honey M., Pearson G., Schweingruber H. STEM Integration in K–12 Education. – National Academies Press, 2014.

6. Kelley T.R., Knowles J.G. A conceptual framework for integrated STEM education // International Journal of STEM Education. – 2016. – 3(1). – DOI: 10.1186/s40594-016-0046-z.

Kail SEYTJANOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qonliko‘l tumani, 6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

“KELAJAK SOATLARI” DARSINING BOLA TARBIYASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada “Kelajak soatlari”ning zamonaviy tarbiya jarayonidagi funksional o‘rni, uning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati, o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishdagi mexanizmlari tahliliy nuqtayi nazardan yoritilgan. Materialda ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan interfaol yondashuvlar, shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari hamda bola tarbiyasiga strategik ta’sir jihatlari tizimli ravishda bayon etiladi. Shuningdek, Kelajak soati formatining tarbiyaviy samaradorligini oshirish bo‘yicha metodik yo‘nalishlarni ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kelajak soati, ta’lim jarayoni, ta’lim tizimi, mehnat bozori, funksional bloklari, barqaror mexanizmlari.

В статье с аналитической точки зрения освещены функциональная роль “Часов будущего” в современном образовательном процессе, его педагогическое и социальное значение, механизмы формирования компетенций у учащихся. В материале систематически излагаются интегрированные интерактивные подходы к образовательному процессу, методы развития личностных и социальных навыков, а также аспекты стратегического воздействия на воспитание ребенка. Также раскрыты методические направления повышения воспитательной эффективности формата “Час будущего.”

Ключевые слова. Келажак соати, образовательный процесс, система образования, рынок труда, функциональные блоки, устойчивые механизмы.

The article analyzes the functional role of “Hours of the Future” in the modern educational process, its pedagogical and social significance, and the mechanisms for the formation of competencies in students. The material systematically describes integrated interactive approaches to the educational process, methods of developing personal and social skills, as well as aspects of strategic influence on child upbringing. Methodological directions for increasing the educational effectiveness of the “Kelajak soati” format are also revealed.

Key words. “Kelajak soati”, educational process, education system, labor market, functional blocks, sustainable mechanisms.

Bugungi ta’lim maskanida “Kelajak soati” formatining joriy etilishi pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik qadamlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu format avvalgi “sinf soati”ning mazmuni yangilangan, kompetensiyaga yo‘naltirilgan versiyasi bo‘lib, bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim drayver vazifasini bajaradi. Ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifa endi faqat ta’lim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki kelajak mehnat bozori talablariga mos barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat bo‘lgani uchun “Kelajak soati” o‘quvchining rivojlanishining barqaror mexanizmlarini yaratishda alohida o‘rin tutadi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni hayotga, kelajak kasblariga va jamiyatdagi faol ishtirokiga tayyorlashni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktablarda tashkil etilayotgan “Kelajak soati” mashg‘ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

“Kelajak soati”ning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda kelajak haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularni zamonaviy kasblar, texnologiyalar va global o‘zgarishlar bilan tanishtirish orqali mustaqil fikrlashga undashdir. Bu mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini anglay boshlaydi, kelajakda kim bo‘lishni xohlashlari haqida o‘ylaydi.

Mazkur soatlarda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, ekologiya, energetika, tibbiyot, muhandislik, tadbirkorlik kabi sohalar haqida tushunchalar beriladi. Natijada o‘quvchilarda zamonaviy bilimlarga qiziqish ortadi, ilm-fan va texnologiyaga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgaradi.

“Kelajak soati” yana bir muhim vazifani bajaradi – hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar jamoada ishlash, muammo yechish, muloqot qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni egallaydi. Bu esa ularning nafaqat ta’lim jarayonida, balki kelajak hayotida ham muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, “Kelajak soati” o‘quvchilarda vatanparvarlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan yetuk mutaxassis bo‘lish mas’uliyatini anglay boshlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarni tez o‘zgarib borayotgan jamiyat sharoitida mustaqil fikrlay oladigan, zamonaviy kasb va texnologiyalarga moslashuvchan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu maqsadda maktablarda joriy etilayotgan “Kelajak soati” mashg‘ulotlari o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Mazkur maqolada “Kelajak soati” mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, uning maqsad-vazifalari hamda o‘qituvchi faoliyatida qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar yoritiladi.

“Kelajak soati” mashg‘ulotlarining maqsadi va vazifalari “Kelajak soati” mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda kelajak kasblari, zamonaviy fan-texnika yutuqlari va hayotiy ko‘nikmalar haqida tasavvur hosil qilishdir.

Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish; zamonaviy kasblar va mehnat bozori talablari bilan tanishtirish; hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlashga ko‘maklashish; kasb tanlashga ongli yondashuvni shakllantirish. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘qituvchining roli “Kelajak soati”da o‘qituvchi an’anaviy bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi va tashkilotchi rolini bajaradi. O‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning faolligini ta’minlashi, ularni mustaqil fikr bildirishga va bahs-munozaraga jalb etishi zarur.

Kelajak soatlarining asosiy funksional bloklari - kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quvchilarda tashabbuskorlikni kuchaytirish, ijtimoiy ongni shakllantirish va mas’uliyatni oshirishdan iborat. Dars jarayoni an’anaviy ma’ruza usulidan farqli ravishda interfaol texnologiyalar, jamoaviy yechimlar, muammoli vaziyatlar va loyiha ishiga tayangan holda tashkil etiladi. Bu esa o‘quvchining passiv tinglovchidan faol sub’ektga aylanishiga yo‘l ochadi. Ayni paytda o‘quvchi o‘z fikrini asoslay olish, birgalikda qaror qabul qilish, shaxsiy pozitsiyasini madaniy tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kelajak soatlari o‘tilishi orqali o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol aloqa bo‘ladi. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida o‘quvchilarga kelajak soatlari o‘tilishi orqali ta’lim-tarbiya, vatanimiz merosi, qadr-qimmatini o‘rgatishda eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Kelajak soatlarining o‘tish jarayonida o‘quvchilarga berilgan dastur asosida ma’naviy oziq beriladi.

Tarbiyaviy jarayonning samaradorligi bevosita o‘quvchining psixologik muhitga qo‘shilishga qanchalik tayyorligiga bog‘liq. Kelajak soatining afzalligi shundaki, u shaxsning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan. Mavzular real hayotiy keyslar, ijtimoiy-axloqiy vazifalar, kasb tanlashga yo‘naltirilgan mashqlar orqali o‘tiladi. O‘quvchi turli vaziyatlarni modellashtirish orqali xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunadi, o‘z xulq-atvorini boshqarishni o‘rganadi. Bu yondashuv tarbiya markazida bolaning o‘zi turishini ta’minlab, ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilinadi.

Kelajak soati, shuningdek, ijtimoiy-emotsional o‘qitishning (SeL) amaliy maydoniga ham aylangan. O‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, stressga chidamlilik, empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar orqali psixologik jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan hisoblanadi. Ta’lim jarayonida boshqa fanlar bunday ko‘nikmalarni chuqur qamrab ololmaydi, shu bois “Kelajak soati” ularni to‘ldiruvchi strategik modul sifatida qo‘llaniladi.

Ushbu formatning bola tarbiyasidagi strategik ahamiyati shundaki, u oilaviy tarbiya bilan maktab tarbiyasi o‘rtasida muvofiqlashtirilgan muloqot platformasini yaratadi. Darslarda ko‘tariladigan mavzular - onlayn xavfsizlik, media madaniyat, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ekologik mas’uliyat, sog‘lom turmush tarzi kabi yo‘nalishlar – oila va jamiyatning umumiy tarbiyaviy talablariga moslashtirilgan. Shuning uchun o‘quvchi maktabda olgan bilimlarini real hayotda qo‘llashi bo‘yicha mustahkam zamin yaratiladi.

Keyingi soat davomida o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmasini kengaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, media savodxonlik, tezkor tahlil kabi ko‘nikmalar loyiha topshiriqlari orqali shakllantiriladi. Bu esa bolalarning raqamli jamiyatga moslashuvini tezlashtiradi. Ma’lumotlar oqimi keskin oshgan bugungi sharoitda o‘quvchi o‘zini axborot xurujidan himoya qilish, to‘g‘ri axborotni tanlash, yolg‘on xabarlarni ajratish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Kelajak soati bu jarayonni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yadi.

Bu darslar bolada ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga ham samarali xizmat qiladi. Jamoaviy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchi ijtimoiy rolini anglaydi, jamiyat rivojiga qo‘shadigan hissasini baholaydi. Ularga yetkaziladigan asosiy g‘oya – har bir inson o‘zining kundalik faoliyati, xulq-atvori, qarorlari orqali kelajak bunyodkori ekani. Shu tariqa bola shaxsiy qarorlarining strategik oqibatlarini tushunishga, o‘z kelajagini loyihalashga tayyorlanadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, kelajak soati – zamonaviy ta’limning tarbiyaviy va kompetensiyaviy asosini mustahkamlovchi muhim modul hisoblanadi. U o‘quvchining shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy moslashuvchanligi, axborot savodxonligi va psixologik barqarorligini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Darsning interfaol, muammoli va hayotiy usullarda tashkil etilishi tarbiya samaradorligini oshiradi hamda bolalarning kelajakda raqobatbardosh, mas’uliyatli, ongli fuqaro sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

2. G‘oziyev E. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Bilim, 2010.

3. Abdurahmonov A. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

4. To‘xtayeva D. Ta’limda raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.

5. UNESCO. Future of Education: Learning to Become. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

Bibizikriyo TOSHPO‘LATOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistrant

MAHALLADA IJTIMOIY PROFILAKTIK TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA YUNOGOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada mahallada yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy profilaktik ishlarni tashkil etish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ijtimoiy profilaktika va yunogopedagogik yondashuv tushunchalarining mazmuni ochib berilib, amaldagi tizimda mavjud metodik, tashkiliy va kadrlar bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlangan. Shuningdek, ta’kidlovchi tajriba-sinov natijalari asosida ushbu muammolarning yoshlar ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatayotgan salbiy oqibatlari asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Mahalla, ijtimoiy profilaktika, yunogopedagogika, yoshlar, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, pedagogik tizim, deviant xulq-atvor.

В статье научно-теоретически и эмпирически проанализированы основные проблемы, возникающие в процессе организации социально-профилактической работы с молодежью в махалле. В ходе исследования раскрыто содержание понятий социальной профилактики и юнолого-педагогического подхода, выявлены существующие в действующей системе методические, организационные и кадровые недостатки. Также на основе результатов констатирующего эксперимента обоснованы негативные последствия этих проблем для социального развития молодежи.

Ключевые слова. Махалля, социальная профилактика, юногопедагогика, молодежь, социально-педагогическая деятельность, педагогическая система, девиантное поведение.

The article analyzes the main problems arising in the process of organizing social and preventive work with youth in the mahalla from a scientific-theoretical and empirical point of view. In the course of the study, the content of the concepts of social prevention and the yune-pedagogical approach was revealed, and the existing methodological, organizational, and personnel-related shortcomings of the existing system were identified. Also, based on the results of the ascertaining experiment, the negative consequences of these problems on the social development of youth are substantiated.

Key words. Mahalla, social prevention, young pedagogy, youth, socio-pedagogical activity, pedagogical system, deviant behavior.

Globallashuv va ijtimoiy jarayonlarning jadallashuvi sharoitida yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy befarqlik, zararli g‘oyalarga moyillik kabi holatlarning oldini olish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda nafaqat davlat va ta’lim muassasalari, balki mahalla ham muhim ijtimoiy institut sifatida faol ishtirok etishi lozim. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish nazariyasiga ko‘ra, yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy profilaktik faoliyat tizimli, ilmiy asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lgandagina samarali natija beradi. Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahallalarda ijtimoiy profilaktik ishlarni tashkil etish jarayonida bir qator tizimli muammolar

mavjud bo‘lib, ayniqsa yunogopedagogik yondashuv yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Shu sababli mazkur maqolada mahallada ijtimoiy profilaktik ishni tashkil etishning yunogopedagogik tizimidagi muammolar va ularning oqibatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Ijtimoiy profilaktika shaxsning salbiy ijtimoiy ta’sirlarga duch kelishining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlar majmuasidir. Yunogopedagogika esa yoshlarning yosh, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy va profilaktik ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, yoshlar bilan ishlashda pedagogik ta’sir ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va motivatsiyasiga mos bo‘lmasa, profilaktik faoliyat kutilgan natijani bermaydi. Shu bois mahalla sharoitida ijtimoiy profilaktik ishlarni tashkil etishda yunogopedagogik yondashuv asosiy metodologik tayanch bo‘lishi zarur.

Ta’kidlovchi tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahallalarda ijtimoiy profilaktik ishlar ko‘pincha alohida tadbirlar shaklida, uzviylik va davomiyliksiz olib borilmoqda. Bu holat profilaktik faoliyatning yaxlit pedagogik tizim sifatida shakllanmasligiga olib keladi. Amaliyotda yoshlar bilan ishlashda ularning yosh va psixologik xususiyatlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Profilaktik tadbirlar ko‘proq umumiy va rasmiy mazmunda tashkil etilib, yoshlarning real ehtiyojlariga mos kelmaydi. Mahalla xodimlari va ijtimoiy ish mutaxassislarining aksariyati yunogopedagogik bilim va ko‘nikmalarga yetarli darajada ega emas. Bu esa profilaktik ishlarning intuitiv va formal tarzda olib borilishiga sabab bo‘lmoqda. Yunogopedagogik yondashuvga asoslangan o‘quv-metodik qo‘llanmalar va dasturlarning yo‘qligi har bir mahallada profilaktik ishlarning turlicha va fragmentar olib borilishiga olib kelmoqda.

Mahalla, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa yoshlar bilan ishlashda kompleks ta’sir mexanizmlarining ishlamasligiga sabab bo‘lmoqda. O‘tkazilgan so‘rovnoma va kuzatishlar natijasiga ko‘ra, respondent yoshlarning 62–68 foizi mahallada o‘tkazilayotgan profilaktik tadbirlar ularning real muammolariga mos kelmasligini bildirgan. Yoshlarning qariyb 47 foizi profilaktik tadbirlarga qiziqish bildirmasligini, 39 foizi esa ularni rasmiy va zerikarli deb baholagan. Mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan diagnostika natijalariga ko‘ra, ularning 61 foizi yoshlar psixologiyasi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan, 58 foizi esa ilmiy-metodik manbalardan muntazam foydalanmasligini qayd etgan. Mazkur muammolar oqibatida yoshlar o‘rtasida ijtimoiy befarqlik kuchayib, huquqiy madaniyatning past darajada shakllanishi va deviant xulq-atvor xavfining ortishi kuzatilmoqda. Tizimli yunogopedagogik yondashuv joriy etilmagan mahallalarda ijtimoiy xavf omillarining kamayishi 10–12 foizdan oshmagan bo‘lsa, tizimli yondashuv qo‘llanilgan tajriba guruhlarida bu ko‘rsatkich 25–30 foizgacha yetgan.

Xulosa qilib aytganda, mahallada yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy profilaktik ishlarni tashkil etish jarayonida qator muammolar mavjud bo‘lib, ular asosan metodik ta’minotning yetarli emasligi, faoliyatning tizimli yo‘lga qo‘yilmagani, hamkor tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning sustligi hamda malakali kadrlar yetishmovchiligi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy profilaktika va yunogopedagogik yondashuvning mazmuni yetarli darajada anglanmagani natijasida ko‘plab tadbirlar formal xarakter kasb etib, yoshlarning real ehtiyojlari va muammolarini qamrab ololmayapti. Ta’kidlovchi tajriba-sinov natijalari yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarning sifati ularning ijtimoiy faolligi, xulq-atvori va jamiyatga moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Tizimli va ilmiy asoslangan profilaktik faoliyat yo‘lga qo‘yilmagan hududlarda yoshlar orasida ijtimoiy muammolar, salbiy xulq-atvor holatlari va befarqlik darajasi yuqoriroq ekani aniq-

landi. Shu asosda, mahallada ijtimoiy profilaktik ishlarni samarali tashkil etish uchun yunogopedagogik yondashuvni amaliyotga keng joriy etish, metodik qo‘llanmalar va dasturlarni ishlab chiqish, kadrlar malakasini oshirish hamda mahalla, ta’lim muassasalari va boshqa hamkor tashkilotlar o‘rtasida uzviy hamkorlikni kuchaytirish zarurligi xulosa qilindi.

Bu esa yoshlarning sog‘lom ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, salbiy holatlarning oldini olish va ularni jamiyat hayotida faol ishtirokini tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Slastenin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2013.

3. Sharipov B.Z. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Fan, 2018.

4. Abdullayeva Sh.A. Yoshlar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF–4947-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF–5712. – 2019 yil 29 apre7. UNESCO. Youth and Social Inclusion. – Paris, 2019.

8. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.

9. UNESCO. Youth and Social Inclusion. – Paris, 2019.

Zoir TAXIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti,
"Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik" kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori

USLUBIYATNING FONETIK VOSITALARI

Annotatsiya

Maqola fonetik vositalarning uslubiy imkoniyatlari haqida so'z boradi. Unda fonetikaning leksikologiya va grammatika bilan chambarchas bog'liqligi, tovushlarning, urg'uning talaffuz etilishi nutq egasining individual xususiyati (uslubi) bilan bog'liqligiga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Tayanch so'zlar. Nutq, tovush, intonatsiya, ohang, ohangdoshlik, cho'ziqlik kuchlilik, yo'g'onlik, ingichkalik, fonema, urg'u.

В данной статье речь идет о фонетических средствах стилистики. В ней кратко излагается тесная связь фонетики с лексикологией и грамматикой, а также связь произношения звуков и ударений с индивидуальным стилем персонажа.

Ключевые слова. Речь, звук, интонация, тон, созвучие, долгота, сила, толщина, тонкость, фонема, ударение.

This article deals with phonetic means of stylistics. It briefly outlines the close connection of phonetics with lexicology and grammar, as well as the connection of the pronunciation of sounds and stress with the individual style of a character.

Key words. Speech, sound, intonation, tone, harmony, length, strength, thickness, thinness, phoneme, stress.

Fonetika (yun. – tovush) – til haqidagi fanning bo'limi, uning nutq vositalarini – tovush va ularning birikish qoidalari, urg'u va intonatsiyani o'rganadi hamda o'rgatadi. Tovush nutqning eng kichik, bo'linmas birligidir. Tovushlar ko'pgina sifatlarga ega: ohang balandligi; cho'ziqlik, kuchlilik, yo'g'onlik, ingichkalik va boshqa. Tovushlarni talaffuz etish insonning individual xususiyatiga bog'liq.

Fonetika leksikologiya va grammatika bilan chambarchas bog'liq. Tovushlar so'z qurilishi uchungina emas, balki ular shakl tuzilishi uchun ham xizmat qiladi.

Agar so'z tarkibida bitta tovush almashtirilsa, butkul boshqa ma'nodagi so'z hosil bo'ladi: ko'z – ko'r, chop – qop, gasht – dasht, hil – xil va boshqa. So'zga bitta yoki ortiq tovush qo'shilishi uning grammatik shaklini o'zgartirishi mumkin:

qo'r – qo'ra, kitob – kitoblar, dala – dalada va boshqa.

So'z ma'nosining yoki shaklining o'zgarishiga sabab bo'luvchi tovushlar tilshunoslikda fonemalar deb ataladi.

Urg'u – so'zning biror bo'g'inini ovozni kuchaytirib alohidalash, ya'ni turli fonetik vositalar bilan kuchli talaffuz etish.

Urg'u ma'no farqlash xususiyatiga ega. Bu – ayniqsa, o'zlashgan qatlamga oid so'zlarda yaqqol seziladi: aka+de-mik, aka+de+mik.

Uslubiy jihatdan gap tarkibidagi biror so'zni ta'kidlab aytilishi muhim ahamiyatga molikdir. Bunday urg'u tilshunoslikda gap urg'usi yoki intonatsiyaviy urg'u (mantiq urg'usi) deb nomlanadi. Intonatsiyaviy urg'u so'zlovchining maqsadiga (uslub talabiga)

ko‘ra gapdagi istalgan so‘zga tusha oladi, shuningdek, so‘zdagi istalgan bo‘g‘inga ham tushadi. Masalan, To‘lqin bordi (boshqa hech kim emas, To‘lqin bordi degan ma’noni bildiradi): To‘lqin bordi (To‘lqin bormadi emas bordi ma’nosini bildiradi).

Ayrim vaziyatlarda urg‘u so‘z tarkibidagi bo‘g‘inni tushirib qoldiradi. Masalan, so‘zlovchi biror hol sodir bo‘lganini bildiradi: Himoya bo‘ldi deya so‘zlovchi bo‘ldi so‘zini alohida ta’kid etadi. Lekin tinglovchi malakaviy bitiruv ishi himoyasi bo‘lganligiga ishonqiramaganidan yoki taajjublanganidan bo‘ldimi so‘zining oxirgi bo‘g‘inini qisqartirib so‘raydi: bo‘ldi? Bunda odatda –mi bo‘g‘iniga tushadigan urg‘u –di ga tushib, uning o‘rnini bosadi.

So‘zlarda asosiy urg‘udan tashqari yordamchi (ikkinchi darajali) urg‘u ham bo‘ladi. Asosiy urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushsa, yordamchi urg‘u ikkinchi yoki so‘z o‘rtalaridagi bo‘g‘inga tushadi. Urg‘u tushgan bo‘g‘indagi unli tovush asosiy urg‘u tushgan unlidan kuchsizroq talaffuz etiladi va bu tilshunoslikda reduksiya deyiladi, unli esa reduksiyalangan unli ataladi.

Masalan, talaba+miz. Asosiy urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘ini -miz ga, yordamchi urg‘u esa -ba bo‘g‘inga tushadi va aksincha, urg‘u uchinchi bo‘g‘inga, yordamchi urg‘u to‘rtinchi bo‘g‘inga tushishi mumkin.

Intonatsiya – muayyan ma’no va ifoda berish uchun gapning asosiy tovush tomoni, ovoz kuchi va cho‘ziqligining o‘zgarishi. Jumla ayni bir tarkibdan iborat bo‘lgani, so‘zlar qatori o‘zgarmagan holda intonatsiyaga ko‘ra so‘zlovchining fikri, xohishi va his-hayajoni ifoda topishi mumkin: O‘qish uchun bir yillik to‘lov sakkiz million so‘m (oddiy xabar ma’nosidagi jumla); O‘qish uchun bir yillik to‘lov sakkiz million so‘m? (savol); O‘qish uchun bir yillik to‘lov sakkiz million so‘m! (xabar, qo‘shimcha ekspressivlik bilan).

Badiiy nutqda ayrim tovushlari bir xil yoki ohangdosh so‘zlardan foydalanib she’r yozish usuli mavjud:

Labing ba’rimni qon qildi, ko‘zimdan qon ravon qildi,

Nega holim yamon qildi, men ondin bir so‘rorim bor.

Bu bayt Zahiriddin Muhammad Boburning bor radifli qaro zulfing firoqida deb boshlanuvchi g‘azalidan olindi. Unda qon, ravon, yomon so‘zlari ohangdosh bo‘lib, ular tovush ta’sirchanligini kuchaytiradi. Bunday usul misralarning yodda qolishligini osonlashtiradi. Mazkur usul – alliteratsiya deb ataladi va undan she’riyatda ko‘proq foydalanadi.

Ushbu g‘azaldan yana bir baytni keltiramiz:

Jahondin menga g‘am bo‘lsa, ulusdin gar alam bo‘lsa,

Ne g‘am yuz muncha ham bo‘lsa, seningdek g‘amgusorim bor.

Yuqoridagi bayt tarkibida ham ohandosh so‘zlar tizilgan: g‘am, alam, ham.

Bolalar folklorida ayni bir xil tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar tizmasidan jumla tuzish – so‘z o‘yini usuli bor:

Turg‘un traktorchi tirillab turgan traktorining tormozini tortib turibdi.

Sasigan sabzini sotgan Salim savdogarga sakson sakkiz ming so‘m soliq solindi.

Ayni bir undosh tovushning takrorlanishi nutqga yuqori ta’sirchanlik bag‘ishlabgina qolmaydi, balki musiqiy ohangdorlik ham bag‘ishlaydi.

Ikki she’riy satr (bir bayt) oxiridagi ayrim so‘zlar, qo‘shimchalar, bo‘g‘in (hijo)larning bir xilda o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi, “... she’rning tovush tuzilishida, ohang tarkibida, intonatsiyada, sintaktik-semantik bog‘lanishida, band tuzilishida ... she’riy nutqni ohangdor va ta’sirli qilishga xizmat etadi, misralarning esda saqlanib qolishini osonlashtiradi”.

Quyidagi to‘rtlikning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralaridagi so‘zlar ohangdoshligiga e’tibor beraylik:

Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak,
O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilm-u tolibi ilm yo‘q,
Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

Yuqorida qayd etilgan misralarda to‘rtta so‘z ohangdoshdir. Satrlar tarkibidagi takror so‘zlar qofiya (rifma) hisoblanadi. Qofiya so‘zlar tarkibidagi tovushlar bir-biriga to‘liq mos keladi. Bunday qofiyadosh satrlar almashinuvi ruboiy (she’r) ohangi (ritmi)ni yuzaga chiqaradi. Agar his-tuyg‘u shoir qalbi bo‘lsa, unda qofiyalar she’rning libosidir. Chunki shoirlarning o‘z she’rini ana shunday libosga o‘rashdan maqsad uni jozibador, boshqa birorta asarga o‘xshamagan bo‘lishligini ta’minlashdir.

So‘zni tashkil etuvchi tovushlardan (yoki harfdan) birining almashishi so‘z ma’nosini yoki leksik birlik shaklining keskin o‘zgarishga olib keladi, masalan, Sinch uyim, tinch uyim. (Xalq maqoli).

Ne og‘zimga sig‘ar bu so‘z, ne tilg‘a,
Ki behad o‘t tushubtur jon-u dilg‘a. (Lutfiy).

O‘zbek tiliga ruscha, rus tili orqali boshqa chet tillarga xos so‘zlar XIX asr so‘nggi choragidan kirib kela boshladi. Ilm, fan, texnika sohasida ular jadal o‘zlashtirila boshladi va ular talaffuzi deyarli o‘zgarmagan holda saqlandi. Lekin oddiy so‘zlashuvda ular erkin talaffuz etilar va bundan shoirlar hajv maqsadida foydalanadilar. Muqimiyning “Moskovchi boy ta’rifida” asarida bu holni yaqqol ko‘ramiz.

Chiqib yangi maskovchidan boylar,
Sinar o‘tmayin ba’zisi oylar.
... Olib sulsini aqchasin xo‘jayin,
Berib mol kontorga qildi tayin.
... “Ko‘tarmakka yuk deb, malay saqlasam,
O‘ziga degay ishlaturlar akam”.
Topib mardikorini: “Seychas yuring,
Pajolista, – der erdi, – emdi turing”.
Dubora yana bordi bir ishga shul,
So‘kib “net, – dedi, – kelma, durrak, poshyol!”

Chet so‘zlarni buzib talaffuz etishdan maqsad kulgi chiqarish va shu bilan birga, atayin nutqda oddiy so‘zlashuvga xos xususiyat baxsh etishdir.

Tilda uchraydigan chet ismlar talaffuzida ham bo‘g‘inlar atayin ajratib talaffuz etish ham uchraydi va bu bilan so‘zlashuvchining ob’ektga bo‘lgan salbiy munosabati yuzaga chiqadi, masalan: Abd+ul+ahad – Abdu+lahad; Abdu+murod – Apti+murod.

Ayrim she’riy satrlarda qo‘shimcha bo‘g‘in (hijo) uchraydi. Masalan:

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko‘ngil,
Nechaki borib eshigiga, bor topmadim.

Boburning topmadim radifli g‘azalidagi bu baytning birinchi satri o‘n to‘rt hijoli, ikkinchi satri o‘n uch hijoli, ya’ni birinchi satrdagi eshigiga so‘zi (e+shi+gi+ga) to‘rt hijoli, ikkinchi satrdagisi ham shunday, ammo, o‘qishda birinchi satrdagisi qisqartirib (eshi+gi+ga) uch xijoli o‘qiladi, ikkinchi satrdagisi to‘rt hijoli o‘qiladi. Fonetik jihatdan shunday o‘qilishi natijasida satrdagi umumiy hijolar soni bir-biriga teng (13 tadan) hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi ayrim so‘zlarni tashkil etuvchi tovush (harf) yoki bo‘g‘inning kuchli yoki kuchsiz talaffuz etilishidan so‘z shakli o‘zgarmagan holda ma’nosi butkul o‘zga-

rishi mumkin. Masalan, kul so‘zidagi oxirgi -l tovushning kuchli talaffuzi kul (moq)ni anglatadi, kuchsiz talaffuzi kul (xok, yog‘och, qog‘oz va boshqalar yonishidan hosil bo‘lgan qoldiq) ni anglatadi.

So‘z bo‘g‘inlarida ham shunday holni kuzatish mumkin: ko‘ng+il; agar urg‘u ikkinchi bo‘g‘in (+il)ga tushsa, ot turkumidagi so‘z hisoblanadi, birinchi bo‘g‘in (ko‘n+)ga tushsa, buyruq fe’liga aylanadi, ma’no butkul o‘zgaradi. Yana bir misol: sing+il, sin+gil. Har ikki so‘zda ham +q va -n tovushlari bo‘g‘in va ma’no farqlovchi hisoblanadi.

Ma’lumki, og‘zaki nutq intonatsiya va intonatsiyaviy tovla-nuvchanlik xususiyatiga ega. Yozuvda muayyan intonatsiyaviy ohangni alohida ajratib ko‘rsatuvchi maxsus belgilar yo‘qligi sababli yozuvchilar personajlar nutqidagi ayrim so‘z va iboralarni izohlab o‘tadilar. Chunki, nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi, ko‘p nuqta jumla oxirida kelib, faqat asosiy ohangni ayonlashtiradi, nutqdagi barcha intonatsiyaviy imkoniyatni ifoda eta olmaydi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan misol keltiramiz, unda yozuvchining izohi personajlarning ichki dunyosini, ovoz maromini, fikrlashi, niyatini o‘quvchiga baholash imkonini beradi:

... Agar bu ishning oldi olinmasa, hukumat va mamlakat uchun natija qo‘rqinchlidir, taqsir!

Majlis kimnikida edi?

Homid tarafidan kutilmagan bir savol! Homid o‘ziga berilgan bu savol qarshisida taraddudlanib qoldi. Chunki majlis o‘rnini aytsa, pochchasi bilan jiyani Rahmatning ham qo‘lga tushishlari aniq va buning bilan u o‘z oyog‘iga bolta qo‘ygan bo‘ladi. Shu mulohaza yuzasidan u tutiliqdi:

Majlis o‘rni yodimda yo‘q taqsir.

Mantiqsiz bu javobga qarshi qo‘rboshi achchig‘i bilan baqirdi:

Yodimda yo‘q?

Homid garangsindi va bir xil siniq tovushda:

Esimda bo‘lsa ham nozik bir joy edi, taqsir, – dedi.

Nozik bir joy edimi! – deb qo‘rboshi zaharxanda qildi. Agar aytmasang, o‘sha muttahamlar tiqiladigan chuqurga sen ham tashlanasan!

Kechiringiz taqsir!

Qo‘rboshi yirtqichlardek bo‘kirdi!

Kechirish yo‘q.

Homid uchun eng keyingi choradan boshqa iloj yo‘q edi – cho‘ntak kovlashga tutindi va yuz mashaqqat bilan yonchig‘ini chiqardi. Yonchiqdan o‘nga yaqin oltinlarni sanaqsizcha olib qo‘rboshiga uzatdi:

Taqsir ... sizga atagan nazrimiz edi ... Homid kavlana boshlagandayoq qo‘rboshining ustidan sovuq suv sepilgan edi ... so‘zlar ham muloyim tortdi.

Demak, nozik joy edi degin, Homidboy!

Yozuvchilar og‘zaki jonli nutqdagi intonatsiyani ifodalashning turli usullaridan foydalanadilar. Bunday usullar bilan tanishish talaffuz etish va tinglash madaniyatini rivojlantiradi, bu esa, o‘z navbatida badiiy asarni yanada chuqurroq tushunish, personajlar tabiati bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi. Shunga ko‘ra Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi personajlar – Homid va qo‘rboshi qanday shaxs ekanliklari ular nutqidagi intonatsiyadan yaqqol seziladi: Homid – hasadgo‘y, axloqan tuban, o‘z g‘arazli maqsadi yo‘lida har qanday qabihlikdan qaytmaydi; qo‘rboshi – ikkiyuzlamachi, poraxo‘r, amaldan o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida “unumli” foydalanadi.

Mumtoz adabiyotimiz, xususan, Nizomiddin Amir Alisher Navoiy ijodida intonatsi-

yadan uslubiy foydalanish, ya’ni o‘qilish ohangiga musiqiylik baxsh etish usuli yaqqol seziladi:

Mehr ko‘p ko‘rgazdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

Mazkur baytdagi qofiyadosh so‘zlar – mehribon, jon so‘zlari oxirida – e tovushning orttirilishiga xizmat qiladi, ya’ni shuni aytish kerakki, mazkur tovush faqat musiqiy ohangnigina ifoda etibgina qolmay, balki, ta’kidni kuchaytiradi, bitta, birorta so‘zlari ma’no ifodasini beruvchi yoyi xovvas vazifasini o‘taydi.

Yozuvchilar badiiy maqsadda ritorik so‘roqdan foydalanadilar. So‘roq ohangidagi bu gapga javob talab etilmaydi.

O‘tiring, qochmoqchisizmi? – kinoyali kulgi bilan tikiladi Majiddin. To‘g‘onbek yana og‘ir cho‘kdi. (Oybek).

Ha, qayda sen, cho‘loq qarg‘a? Kalitni ber! – qichqirdi u Nurboboga. (Oybek).

Birinchi ritorik so‘roq gap ohangini adib izohlaydi, unda piching ohangi seziladi. Ikkinchi jumlada haqorat, kasmitish so‘roq va undov belgilari yordamida ayonlashadi.

Og‘zaki publitsistik nutqda ham ritorik so‘roqdan tez-tez foydalaniladi. Albatta, nutq jarayonida qayta bog‘lanish (aloqa) bo‘lmaydi. Auditoriya o‘ziga qaratilgan ritorik so‘roqqa javob qaytarmaydi, (masalan, miting, radionutq, telenutq va b.da) javob qaytarish talab ham qilinmaydi.

Badiiy matnlarda mualliflar pauza hamda tovush davomiyligi singari intonatsiyaviy vositalardan ham foydalanadilar:

– alohida ahamiyat berish maqsadida so‘z bo‘g‘inlarga ajratib talaffuz etiladi (bola-lalar, salom);

– muallif maxsus to‘xtam (pauza) qiladi;

– ya’ni hamrohim bor, deganim, mendan qo‘rqmang deganim ...

Otabek yana tushunmadi:

Hamrohingiz ... (A.Qodiriy).

muallif atayin ta’kidlagan tovush uzunligi va davomiyligi:

Yo‘-o‘q, – dedi u xatni qaytarib berar ekan. – Buni men yozmaganman.

Qo‘l meniki emas. (T. Malik).

Uning xirildoq ovozi Dilmurodga arang eshitildi.

Aka ...a...a! (T. Malik).

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchiga, ta’sir etuvchi badiiy vosita sifatida intonatsiyaning barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin: asosiy ohang (ton) (tovush un paychalarining ritmik tebranish chastotasi bilan belgilanadigan sifati; tovush tembri (tovushning asosiy toniga qo‘shiladigan yordamchi ton – obertonlarga bog‘liq holda yuzaga keladigan, o‘ziga xos sifati; so‘zning bo‘g‘inlarga ajralishi; pauza; tovush sadosining davomiyligi. Albatta, yozma nutqda og‘zaki nutqni yuzaga keltiruvchi intonatsiya yangramaydi. Lekin, badiiy so‘z san’atkorlari jumla qurilishida, so‘zlar tartibida, chuqur ma’nodor so‘zlarda “jarang”lashga “majbur” qila oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 261–262.

2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B. 93–94.

3. Taxirov Z.T. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. – B. 104.

Sharobutdin KAMOLXO‘JAYEV,
Toshkent davlat texnika universiteti, “Umumiy fizika” kafedrasi, professor

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “FIZIKA” FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada fizika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish asosida talabalarning o‘quv biluv faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning didaktik funksiyasi ko‘rsatib berilgan. Texnika oliy ta’lim muassasalari pedagoglari kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini yuksak darajada bo‘lishi, ularda pedagogik maxoratning shakllanganligi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlatish katta axamiyatga ega ekanligiga e’tibor berilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘qitish, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, baholash, didaktik vositalar.

В статье показана дидактическая функция разработки учебных заданий в оценке учебно-познавательной деятельности учащихся на основе использования педагогических технологий в обучении физике. В непрерывном развитии профессиональной компетентности преподавателей высших технических учебных заведений большое значение придается высокому уровню профессиональной подготовки кадров, формированию у них педагогического мастерства, использованию современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова. Обучение, педагогические технология, интерактивные методы, оценка, дидактические средства.

The article shows the didactic function of developing educational tasks in assessing the educational and cognitive activity of students based on the use of pedagogical technologies in teaching physics.In the continuous development of the professional competence of teachers at higher technical educational institutions, great importance is attached to a high level of professional training of personnel, the development of their pedagogical skills, and the use of modern pedagogical and information and communication technologies.

Key words. Training, pedagogical technologies, interactive methods, assessment, didactic tools.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida so‘nggi besh yillik islohatlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Ta’lim tizimi yangilandi, yangilangan ta’lim tizimiga xos ta’lim mazmuni, ta’lim maqsadi, ta’lim vazifalari ishlab chiqildi. Ularning mohiyat mazmuni demokratiyalashtirildi va insonparvarlashtirildi. Yangilangan ta’lim mazmuniga xos ta’lim texnologiyalari va ta’lim vositalarini yaratish zaruriyati tug‘ildi.

Zero, barkamol inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishda ta’lim mazmuni, ya’ni real borliqdagi voqealar, hodisalar, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini yosh avlod ongiga yetkazishda ta’lim vositalari majmui talaba-yoshlarning ko‘rish va eshitish katalizatorlarini to‘liq ishga tushirib o‘quv ma’lumotlarini to‘liq, har tomonlama mukammal

idrok qilishlari e’tirof va tassavvur qilishlari hamda xotirada uzoq vaqt saqlanishini ta’minlaydi.

Kasbiy-pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan “Texnika oliy o‘quv yurti talabalarida fizika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish” o‘rganish sohasi, maqsadi, vazifalari, didaktik vositalarning tasnifi, turlari, ularning o‘ziga xos pedagogik psixologik xususiyatlari, axborot-kommunikativ texnologiyalar, didaktik vositalar majmui va innovatsion faoliyat to‘g‘risida ilmiy-metodik hamda didaktik masalalar yoritiladi. Ma’lumki, fizika va didaktika fanini o‘qish, o‘qitish, o‘rganishning mohiyati mazmuni, ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakllari ma’lumotlarni bayon etish metodlari, usullari haqidagi fan hisoblanadi. O‘qitishning pedagogik psixologik xususiyatlari va didaktik funksiyalari keng yoritilgan. O‘quv muassasasida bo‘lishi lozim bo‘lgan o‘quv-ko‘rgazmali, texnikaviy vositalar axborot-kommunikativ vositalarning muhimligi, fizika fani o‘quv tarbiya ishlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyati inobatga olinib ularni saqlash uchun kabinetlar tashkil qilish xaqida ma’lumot berilgan.

XXI asr axborot asri, kommunikativ texnologiyalar asri hisoblanadi. Hozirgi yoshlar oilada, bog‘cha yoshi davridan boshlab kompyuterda ishlashga, internet ma’lumotlari bilan tanishishga xarakat qiladilar. Shunga ko‘ra kompyuter, uning texnik xususiyatlari, unda ishlash texnologiyasi haqidagi mavzular ham ishlab chiqilgan. Ularda o‘qitish jarayonida kompyuterlar, ularning turlari, darsda kompyuterning utgan o‘rni, kompyuter yordamida mashqlar bajarish haqida ham so‘z yuritiladi.

Hozirgi zamon ta’lim muassasalarida har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirish uning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishda o‘quv vositalarning o‘rni beqiyos. Zero, ular o‘rganalayotgan voqea hodisalar talaba tinglovchilarga mukammal bilim va chuqur tasavvurlar hosil bo‘lishi uchun muhim imkoniyatlar yaratishga qodir.

Hozirgi davr fan texnika va axborot texnologiyalari davri bo‘lib, undagi revolyusion holatlar inson va uning aqliy zakovatini texnologiya bilimdonligini ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining bosh vazifasiga aylantirdi. Shuning uchun ham bugun ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarni fizika fani bo‘yicha bilimdon, texnikaning ishlash texnologiyasidan xabardor kadr bo‘lishini va buning uchun esa o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qitishning barcha texnologiyalarining didaktik vositalarini keng qo‘llash bo‘yicha ularga ma’lumot berish, bugungi kunning bosh vazifasi hisoblanadi. Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, fan texnika jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanish, birinchidan ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘zlashtirishni jadallashtirishni, mustaqil bilim olishni yo‘lga qo‘yishga amaliy yordam ko‘rsatsa, ikkinchidan talaba-yoshlarni zamon texnikasi, ning ishlash texnologiyasi bilan qurollantirish orqali ularda texnik tafakkurini va dunyoqarashini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

Shunga asosan, talabalarida fizika fanini o‘qitish texnologiyalari oliy ta’lim muassasalarining kasbiy-pedagogik ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan o‘quv predmeti sifatida zamonaviy o‘qitish qurollari, ularning turlari, qo‘llanilishi va ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari haqida ma’lumot beruvchi manbaa hisoblanadi. Shunga ko‘ra o‘qitishning didaktik vositalari talabalarning amaliy mustaqil ishlarini kasbiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, mehnat psixologiyasi, kasbiy faoliyat psixologiyasi va fizika fani mashg‘ulotlarida eshituvchi vositalar, ko‘rsatuvchi vositalar, majmuidan iborat bo‘lib, ular bilimlarini puxta o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarni to‘la shakllantirish, talaba-yoshlar tarbiyalanganlik darajasini oshirishni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Kasbiy psixo-

logiya, boshqaruv psixologiyasi, mexnat psixologiyasi, kasbiy faoliyat psixologiyasi va fizika fanlarining darslarida sxema, diagramma, modellar, maketlar, informatsion texnika va texnologiyalar, mashinali o‘qitish vositalaridan foydalanish davr talabidir.

Chunonchi, fizika fanining tez o‘sishi texnikaning jadal rivojlanishi ta’lim muassasalaridan taxsil olayotgan talaba-yoshlar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv ma’lumotining xajmini kengaytirishga, uning mazmunini murakkablashtirishga olib keldi. Bunday sharoitda talabalar ko‘proq o‘quv meterialini mustaqil ijodiy o‘zlashtirishga to‘g‘ri keldi. Buning uchun fizika va boshqa fanlarni o‘qitishda yangi metod, usul, shakl, vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bo‘lajak pedagoglarga yetkazish lozim. Buni alabalarga yetkazish yo‘llarini osonlashtirish hamda tezlashtirishning yagona yo‘li ularga didaktik vositalar haqida mukammal ma’lumot berish hamda ularni didaktik vositalar majmui bilan qurollantirish hisoblanadi.

Zero, didaktik vositalar birinchidan, talaba-yoshlarning ko‘proq ma’lumotlarni o‘zlashtirishini ta’minlashni yo‘lga qo‘ysa, ikkinchidan talaba-yoshlarning o‘qish o‘rganishlari uchun vaqtlarini tejash va qisqartirishga yordam beradi. Shuning uchun bugungi didaktika va fizika fani oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ham bo‘lajak professor-pedagog-tarbiyachilarga didaktik vositalar majmui haqida ko‘proq ma’lumot berib, ulardan foydalanish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga didaktik vositalar majmuini keng tadbiq etish metodikasi bilan tanishtirish zarur. Shu nuqtayi nazardan texnika oliy o‘quv yurti talabalarida Kasbiy ta’lim va fizika fanlarini o‘qitish texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarni didaktik vositalar majmui bilan tanishtirish va ularni ta’lim-tarbiya jarayonini didaktik vositalar majmui asosida tashkil etish va ularni qo‘llash yo‘llari, usullari va metodlari bilan tanishtirishni, shuningdek, fan kabinetlarini didaktik vositalar majmui bilan jihozlashning ilmiy-metodik asoslari bilan qurollantirishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi.

Talabalarida Kasbiy ta’lim va fizika fanini o‘qitish texnologiyalari o‘qish, o‘rganish va o‘rgatish qurollarining yig‘indisi deb atashimiz mumkin bo‘ladi. Chunki, o‘qish, o‘qitish va tarbiyalashda bir necha vosita bir-biri bilan funksional bog‘langan hamda yagona maqsad vazifani amalga oshirish quroli sifatida ishtirok etuvchi hodisa hisoblanadi va tillarni turlarni tashkil etadi.

Masalan, Kasbiy psixologiya, Boshqaruv psixologiyasi, Mehnat psixologiyasi, Kasbiy faoliyat psixologiyasi va fizika fanlarining o‘quv-tarbiya jarayoniga ko‘rgazmali bosma qurollar va hajmiy qo‘llanmalardan foydalanish bilan birga o‘qitishning texnikaviy qurilmalarni qo‘llash, o‘rganilayotgan mavzu mazmunini talabaning aniqroq va to‘liqroq anglashiga yordam ko‘rsatadi.

Shunday qilib, talabalarida kasbiy ta’lim va fizika fanini o‘qitish texnologiyalari uzluksiz ta’lim jarayonida talaba-yoshlarning bilim saviyasini oshirish, mustaqil ijodiy ta’limni yo‘lga qo‘yish, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maqsadida qo‘llaniladigan ta’lim-tarbiya qurollari yig‘indisi degan xulosaga kelishga imkon yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston. 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7-fevral 2017-yil.

3. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – T., 2001y.

4. Иванова А. Инновационные методы обучения. Москва Наука -2020г

Nurjan ABDUVALITOV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, dotsent, p.f.f.d. (PhD)
Rayxan BAZARBAYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, o‘qituvchi

BADIIY ASARNI TUSHUNISH VA TALQIN QILISH JARAYONIDA INTERPRETATSIYANING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada badiiy asarni o‘qitish va tahlil qilish jarayonida interpretatsiyaning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, badiiy asarni chuqur anglash, uning konseptual mazmuni, g‘oyaviy-ma’naviy mohiyatini tushunish o‘quvchi tafakkurini shakllantirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif badiiy matnni o‘qitishda bayon qilish, kalit so‘zlar bilan ishlash, spiral metod kabi samarali metodlar tavsiya etib o‘tgan. Badiiy asarni tushunish jarayoni o‘quvchining estetik didini, so‘z boyligini va tafakkurini rivojlantiruvchi muhim bosqich sifatida baholangan.

Tayanch so‘zlar. Badiiy asar, interpretatsiya, tahlil, kontseptual mazmun, badiiy matn, bayon qilish, kalit so‘zlar bilan ishlash, spiral metod.

В статье освещается роль и значение интерпретации в процессе обучения и анализа художественного произведения. Также глубокое понимание художественного произведения, понимание его концептуального содержания, идейно-духовной сущности рассматривается как важный фактор в формировании мышления читателя. Автор рекомендует такие эффективные методы обучения художественному тексту, как изложение, работа с ключевыми словами, спиральный метод. Процесс понимания художественного произведения оценивается как важный этап в развитии эстетического вкуса, словарного запаса и мышления читателя.

Ключевые слова. Художественное произведение, интерпретация, анализ, концептуальное содержание, художественный текст, изложение, работа с ключевыми словами, спиральный метод.

The article highlights the role and importance of interpretation in the process of teaching and analyzing a literary work. Also, a deep understanding of a work of art, understanding its conceptual content, ideological and spiritual essence is considered as an important factor in the formation of the reader’s thinking. The author recommends such effective methods as presentation, working with keywords, and the spiral method in teaching literary texts. The process of understanding a literary work is assessed as an important stage in the development of the student’s aesthetic taste, vocabulary, and thinking.

Key words. Literary work, interpretation, analysis, conceptual content, literary text, presentation, working with keywords, spiral method.

Badiiy asar – murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Badiiy asarni o‘qitish va tahlil qilishning bir qancha yo‘nalishlari va metodlari mavjud. Chunki, ma’lum bir badiiy asarni matn nazariyasi, poetika, germenevtika, stilistika kabi ko‘plab qirralar orqali o‘rganib, tahlil qilishimiz mumkin. Badiiy asar nafaqat til manbayi, balki milliy mentalitet va qadriyatlarning aks etishi, insoniyat tafakkurining ko‘zgusi, jahon xalqlari madaniyati va tafakkuri xaritasidir. Badiiy asarda til, so‘z yoki nutq orqali yetkazish imkoniyatidan ko‘proq axborot zaxirasi saqlanadi. Ba’zida kichikgina detal ba-

diiy asarning mohiyatini ochib bera oladi, ba'zida esa butun asar aynan bir detalni tushuntirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda badiiy asarni to‘g‘ri qabul qilish va anglash juda muhimdir. Interpretatsiya badiiy asarning ayni shu kontseptual mazmunini tushunishga yetaklaydi. Konseptual mazmun bu – badiiy asarda ekstralingvistik, ya'ni pragmatik, ijtimoiy, madaniy, psixologik omillarning birligida, ularning o‘zaro uyg‘unlashib, badiiy matn hosil qilganida yuzaga chiqadi. Ularni qabul qilish va tushunish yo‘li – interpretatsiyadir.

Interpretatsiya – adabiyotshunoslikdagi murakkab va hanuzgacha har tomonlama chuqur tadqiq etishni talab qiladigan masalalardan biridir. Bugungi kunda badiiy asarni o‘qiganda interpretatsiya va tahlil o‘rtasidagi farqlarni ochib ko‘rsatgan tadqiqotlar son jihatidan ko‘p emas. Badiiy asarni tahlil qila olish uchun, avvalo, uni qabul qilish va tushunish zarur. Aynan mana shu qabul qilish, tafakkurga singdirish va qayta ishlash tushunchalarini interpretatsiya o‘z ichiga qamrab oladi.

“Interpretatsiya” atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Aslida interpretatsiya atamasi lotin tilining “Interpretatio” – vositachilik degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, badiiy asarni qabul qilish, tushunish, muhokama qilish, xulosa chiqarish va ijodiy qayta ishlash jarayonidir. Qozoq tilining izohli lug‘atida shunday ta'rif beriladi: “bir narsaning ma'nosini yoki mazmunini muhokama qilish, tushuntirish; har qanday badiiy asarni o‘ziga xos talqin qilishga asoslangan ijodiy izlanish”. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu atamaga quyidagicha izoh berilgan: “sharqlash, izohlash, tushuntirib berish” kabi ma'nolarni anglatadi.

Adabiyotshunoslik ilmida interpretatsiya tushunchasining o‘rni alohida. U badiiy asarni tabiiy qabul qilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimlashtiradi, oddiy o‘quvchi bilan professional adabiyotshunos mutaxassisning tafakkurini solishtiradi. Shu asosda o‘quvchini badiiy asarga nisbatan qarashlarini ilmiy darajaga olib chiqadi. Eng avvalo, badiiy asarda interpretatsiya asarning mazmuni, ma'nosi va yashirin g‘oyasini tushunish uchun amalga oshiriladi. Bu haqida rus olimi A.B. Yesin quyidagicha yozadi: “Interpretatsiyaning mohiyati “Interpretatsiya – bu o‘z tushunchasidir” degan formulada ifodalansa, bu yerda “o‘z” degan so‘zning ahamiyati katta. “O‘z – degani shaxsning hayoti tajribasi asosida tushungan narsasi”. Bu yerda “o‘z tushunchasi” degani muallifga zid yoki undan tamoman boshqacha tushunish degani emas, balki badiiy asarning ichki mohiyatini anglash maqsadida uni o‘zicha qabul qilish, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrga yaqinlashishdir. Demak, badiiy asarni interpretatsiya asosida tushunish va qabul qilish asosiy shart bo‘lib hisoblanadi. Adabiyotshunoslikka oid adabiyotlarda interpretatsiya badiiy asarning umumiy ma'nosi, mazmuni, g‘oyasi va konsepsiyasini anglash, tushunish va chuqur tahlil qilishdir. Yuqoridagi fikrlardan shunu anglash mumkinki, interpretatsiya bu - badiiy asarni tushunish va qabul qilish demakdir.

Italiyan faylasuf olimi Emilio Bettining “Interpretatsiyaning umumiy nazariyasi” nomli ilmiy asaridagi qarashlariga ko‘ra interpretatsiya – uch tamon ishtirok etadigan jarayondir. Birinchisi – muallifning subyektiv fikri, interpretatorning subyektiv fikri va ikkalasining o‘rtasida xabar yetkazuvchi vazifasini bajaradigan reprezentativ shakl. Emilio Betti nazariyasi bo‘yicha “reprezentativ shakl” tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: barcha inson subyektlarining biron bir narsa haqidagi obyektiv tassavuri tushuniladi. Reprezentativ shaklning asosiy vazifasi – badiiy matning butun mohiyatidagi ma'no va mazmunni yetkazishdan iborat.

Tadqiqotchi olima Q.T. Januzakova interpretatsiyaning bir nechta turlari mavjudligini ta'kidlaydi:

Birinchisi, o‘qirmon interpretatsiyasi – bu o‘qirmonning asarni o‘qib chiqqandan so‘ng ilk taassuroti, kayfiyati va hissiyotlariga asoslanadi.

Ikkinchisi, ilmiy interpretatsiya. Adabiyotshunos mutaxassis sifatida dastlabki taassurotini ilmiy asosda umumlashtiradi, aniqlaydi va badiiy tahlil orqali tekshiradi.

Uchinchisi, ijodiy-obrazli interpretatsiya – bu badiiy asarni boshqa san’at turiga ko‘chirish (masalan, badiiy asar asosida badiiy film suratga olish, sahna asari yaratish va h.k.) – deydi. Demak, eng avvalo asar o‘quvchi tomonidan qabul qilinib, uning chinakam mohiyatini, chuqur qatlamlarini anglash uchun interpretatsiya amalga oshiriladi.

Badiiy asarni o‘qish – faqat matn orqali ma’lumot olish degani emas. Bu jihatdan badiiy asar bilan boshqa fanlardagi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish o‘rtasida sezilarli farq mavjud. Badiiy asar – obrazli dunyo, poetik tiliga asoslangan murakkab tizimdir. Badiiy asarda til birliklarining denotativ ma’nosidan tashqari, konnotativ ma’nolarini, poetik va obrazli ma’nolarini tushunish uchun so‘zning qo‘llanish doirasini tahlil qilish juda muhim. Muallifning dunyoqarashi va ijodiy izlanishidan kelib chiqqan “mahsulot”ni faqat voqea rivojiga qarab tushunish yetarli emas, o‘qirmon sifatida ko‘rkam dunyoga aralashishi, tafakkurini uyg‘otishi va o‘qilgan asarni tanqidiy nuqtai nazardan tushunish muhim. Bu adabiyot fanini o‘qitishning funksional vazifalarini tashkil etadi.

Badiiy matn bilan olib boriladigan ishlarda qo‘llaniladigan faol usullarning aksariyati verbal tizimda amalga oshiriladi. Ular quyidagilar: lug‘at bilan ishlash, suhbat, ifodali o‘qish, tadqiqot, tushuntirish, bayon qilish h.k. Adabiyot darslarida badiiy asarni o‘qitishda bayon qilish faoliyatidan boshlashning o‘ziga xos ahamiyati bor. Bayon qilish – adabiy matnga interpretatsiya ya’ni talqin qilishning dastlabki mahsulidir. Bayon qilish – faol o‘quv faoliyati hisoblanadi. Bayon qilish orqali o‘quvchining tushunish darajasini aniqlash mumkin bo‘libgina qolmay, u adabiy asarning tuzilish tizimiga dastlabki yo‘naltiruvchi vazifasini ham bajaradi. Metodist olim A. M. Laushina fikriga ko‘ra, o‘quvchining aqliy faolligini namoyon etuvchi jarayon sifatida belgilanadi.

Bayon qilish – bu badiiy matnni ijodiy “qayta ishlash”dan iborat bo‘lgan fikr va tafakkur jarayonidir.

Badiiy asardagi tayanch tushunchalarni tahlil qilish, ma’nosi hali o‘zlashtirilmagan so‘zlarga e’tibor qaratish – “matndan tushunmagan so‘zlaringizni aytinglar”, “tushunmagan so‘zlaringizga izoh yozinglar” kabi samarasiz topshiriqlarga nisbatan ancha kengroq tushuncha shakllantirish imkonini beradi.

Lirik asarlarni dastlabki qabul qilish va tushunishda tayanch tushunchalar bilan ishlash amalga oshiriladi. Metodist-olim A.Qonyratbayev shunday deydi: “Lirik she’rlarning yana bir o‘ziga xos xususiyati – hajmi kichik bo‘lib, fikr ixcham ifodalanganligi sababli so‘zning ahamiyati va ma’no xususiyati, salmog‘i oshadi.” She’r matnidagi aynan ana shu mazmunli va ma’noli so‘zlarni aniqlash matnni to‘laqonli qabul qilishga ham xizmat qiladi. Masalan, ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinfda Abay Qo‘nanboyevning “Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim” she‘ri o‘qitiladi.

Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim
Xayrin bildim, biroq, yuz o‘girmadim.
Ulg‘ayganda qarasam qo‘lim quruq,
Kechikib qo‘l cho‘zdumu, ulgurmadim.

Bilimsiz qolganimga kim gunohkor?
Izlasam bo‘larmidim munchalik xop?
Odamzod tasallisi farzand ekan.

Farzandimni bilimga qo‘ymadim zor…

Madrasaga berdim men adab uchun,
Bilim uchun, nainki mansab uchun!
O‘zim ham yuksaklarga qanot qoqdim,
Ayb bo‘lmas orzu uchun – talab uchun…

Kim aytar: yomon bo‘ldim, yoldan qaytdim?
Qozoqqa shirin-shirin o‘lan aytdim:
O‘landa hech kim menga teng kelmadi,
Lekin, qadrim topolmay, yig‘layman jim…

She’rda kursiv bilan berilgan so‘z birikmalari ma’nosiga e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan obyektlar bo‘lsa, shoirning yosh avlodga qarata aytgan nasihatlarining asosiy tushunchalari qora bilan berilgan so‘zlarda “qo‘lim quruq”, “qo‘l cho‘zdumu”, “bilim”, “adab”, “mansab”, “yuksaklarga qanot qoqdim” degan tushunchalar bilan ifoda yetilgan. Har bir badiiy asarda o‘quvchi ma’nosini tushunmaydigan va hayot davomida qo‘llamaydigan so‘z yoki so‘z birikmalari qolib ketmasligini ta’minlash asosida o‘quvchilarning badiiy matnni tushunish darajasini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu yo‘l bilan o‘quvchining lug‘at boyligini oshirishib, dunyoqarashlarini kengaytiramiz. Chunki, har bir badiiy asardagi asosiy tushuncha o‘sha matnni anglashning hamda uzoq xotirada saqlashning ham kaliti hisoblanadi.

Kalit so‘z	Badiiy asardan misol	O‘z fikrini asoslash
“bilim”, “adab”, “mansab”	*Madrasaga berdim men* ***adab*** *uchun,* **Bilim** *uchun***,** nainki **mansab** *uchun!*	
“yuksaklarga qanot qoqdim”	*O‘zim ham* **yuksaklarga qanot qoqdim***,* *Ayb bo‘lmas orzu uchun – talab uchun…*	

Munozara.

Adabiyot o‘qitish metodikasida ma’lim bir shoir va yozuvchining hayoti va ijodini o‘qitishda spiral metodi asosida o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ushbu metod ta’limdagi asosiy uslubiy tamoyillarning biridir. Bu metodning afzaliklari quyidagicha:

– o‘quv materiali soddadan murakkabga qarab o‘rgatilad;

– har bir mavzuni qayta o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi avvalgi bilimlarini mustahkamlaydi va yangi qirralarini ochadi;

– shu tariqa o‘quvchilarning bilimlari bosqichma-bosqich oshib, to‘lishib boradi.

E’tibor berganimizdek, asosiy tamoyil umumiy bo‘lsa ham sinf yuqorilagan sari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati tobora murakkablashib, rivojlanib boradi. 5-6-sinfda o‘quvchi badiiy asarning mazmunini tushunsa, 7-8-sinflarda asar mazmunni tahlil qilib, go‘yaviy-ma’naviy jihatlarini ochadi, yuqori sinflarda esa falsafiy, tarixiy, estetik nuqtay nazardan izohlay boshlaydi.

Lirik asarlarni tushunish va qabul qilishda asosan kalit so‘zlarga asoslanib g‘oyaviy mazmunini ochib berishga qaratiladi. Masalan, 6-sinfda Abayning “Har narsaga havas qilma” she‘ri o‘qitiladi. Asarni qabul qilish va tushunish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim.

1. She’rdagi asosiy kalit so‘zlarni aniqlang.

2. Shoir “Har narsaga havas qilma” orqali qanday inson xulqini tanqid qilganini aniqlang.

3. She’rdagi “Ezma” so‘zining ma’nosini ochib, qanday insonni nazarda tutganini tushuntiring va h.k.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni tushunish uchun matn butunligicha yoki qisman parchasi bo‘lsa ham o‘rganilishi zarur. Badiiy asarning mohiyati va ahamiyatini ochib, tushunib o‘qish interpertatsiyaning dastlabki qadami hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha interpertatsiya bir qancha jarayonni o‘z ichiga qamrab oladi. Ular: badiiy asarni tushunish va qabul qilish, gipoteza, asosiy ma’noni anglash va ularni solishtirish. Badiiy asarni tushunib o‘qish – bu muallif bilan o‘quvchining badiiy olamda uchrashishi va ularning bir-biriga bo‘lgan qarama-qarshi qadami hisoblanadi. Shu asosda o‘quvchi badiiy matnni o‘ziga xos baholashni o‘rganadi va shu tariqa interpretatsiyaning dastlabki bosqichlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abay. Saylanma. – Toshkent: Mashhur-Press, 2018. – 280 b.

2. Abduvalitov E. va boshq. Adabiyot: 6-sinflar uchun darslik. – Toshkent: RTM, 2022. – 224 b.

3. Abduvalitov N. B. Umumiy urta ta’lim maktablarida jaxrn adabiyoti namunalarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. buy. fals. dok. (PhD)... diss. (2021).

4. Базарбаева Р. Абайдың табиғат лирикасын оқытудың әдістемесі //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – Т. 1. – №. 17. – С. 126-130.

5. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: “Fan”, 2006.

6. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: “Kamalak”, 2016. – 464 b.

Elzoda XOLMAXMADOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Biologiya” yo‘nalishi talabasi

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING YANGI YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanishning samarali yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlari orqali talabalarning mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Muallif fanlararo integratsiya, STEAM ta’limi, loyiha asosida o‘qitish va gamifikatsiya yondashuvlari biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Biologiya ta’limi, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, virtual laboratoriyalar, interaktiv ta’lim, STEAM yondashuvi, gamifikatsiya, sun’iy intellekt, loyiha asosida o‘qitish, fanlararo integratsiya, raqamli resurslar, o‘quv motivatsiyasi.

В статье анализируются эффективные способы использования современных цифровых технологий и инновационных методов в преподавании биологии. Также освещены возможности развития у студентов навыков самостоятельного мышления, наблюдения и анализа посредством цифровых платформ, виртуальных лабораторий, интерактивных симуляций и образовательных программ на основе искусственного интеллекта. Автор показал, что междисциплинарная интеграция, STEAM-образование, проектное обучение и геймификационные подходы играют важную роль в повышении активности учащихся в процессе преподавания биологии.

Ключевые слова. Биологическое образование, цифровые технологии, инновационные методы, виртуальные лаборатории, интерактивное образование, STEAM-подход, геймификация, искусственный интеллект, проектное обучение, междисциплинарная интеграция, цифровые ресурсы, учебная мотивация.

The article analyzes effective ways of using modern digital technologies and innovative methods in teaching biology. The possibilities of developing students’ independent thinking, observation, and analysis skills through digital platforms, virtual laboratories, interactive simulations, and training programs based on artificial intelligence are also highlighted. The author indicates that interdisciplinary integration, STEAM education, project-based learning, and gamification approaches play an important role in increasing student activity in the process of teaching biology.

Key words. Biology education, digital technologies, innovative methods, virtual laboratories, interactive education, STEAM approach, gamification, artificial intelligence, project-based learning, interdisciplinary integration, digital resources, learning motivation.

Jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan yangi ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ushbu konseptual yondashuv doirasida, umumta’lim maktablari biologiya ta’limida innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarini ta’lim jarayonlariga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga uning ijodkorlik qobiliyatining

rivojlanishida va o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirishlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi ham takomillashtirildi.

Mazkur Qonunda mamlakatimizning ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta’lim oliyligi va izchilligi, ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi, davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi, ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimli bo‘lish va iste’dodni rag‘batlantirish kabilar belgilangan.

Xalqaro miqyosda biologiya ta’limining sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning kompetentlik darajasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va axborot texnologiyalarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablariga moslashtirish, yuqori samaradorlikka erishish hamda ta’lim oluvchilarni har tomonlama barkamol shaxslar etib tarbiyalash maqsadida bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan yo‘nalishida “Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” vazifasi alohida belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgustdagi “Kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarorida ham umumta’lim maktablarida “Kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish” masalalariga ahamiyat qaratilgan.

Ushbu huquqiy-me’yoriy xujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir fanni o‘qitishga qo‘yiladigan maqsad va vazifalarni to‘g‘ri shakllantirishga e’tibor qaratish talab etiladi. Xususan, umumta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda o‘qituvchi avvalo quyidagi vazifalarni amalga oshirishi zarur:

• biologik ta’lim jarayonida o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash, ma’rifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

• biologik fanlardan tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion va axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish;

• xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar aso-

sida biologik ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minlash;

• biologik ta’lim jarayonining o‘quv-metodik majmualar va didaktik ta’minotning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

• milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida biologik ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

• biologik ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani singdirish, ta’lim muassasalarida mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko‘tarish;

• ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim va tarbiyani uzviylashtirish orqali ta’lim oluvchilarning barkamolligini ta’minlash, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigienik ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

• ta’lim oluvchilarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirishni bajarish lozim.

Bugungi kunda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, umumta’lim maktablarining ta’lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Innovatsion texnologiyalarning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar va tajribalar o‘quvchilarni kelgusida bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shu o‘rinda “Innovatsiya” tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz. Innovatsiya – (ingliz tilida: “- in- prefiks qo‘shimcha, “kirish”, “singish” va “novatsiya” – “yangilik, tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish) muayyan jarayonga yangilik kiritish jarayoni, ya’ni bu faoliyat o‘quv jarayoniga yangilik olib kirish, o‘quv jarayonini tahsil oluvchining ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, ularning bilim olishlari, ko‘nikma va malaka (BKM)larini shakllantirishlariga zamin yaratish hisoblanadi.

Umumta’lim maktablari biologiya ta’limida ko‘pchilik tajribali va mahoratli o‘qituvchilar tomonidan innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, ayrim holatlarda o‘qituvchi faqat darslik bilan chegaralanib qolayotganligi ham sir emas. Bu kabi holatlar o‘quvchilarda biologiya fanidan bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Ushbu muammoning yechimi sifatida ta’lim jarayonlariga eng ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ta’lim samaradorligiga erishish hisoblanadi.

Zero, biologik fanlarni o‘qitish jarayoniga innovatsion yondoshuv negizida ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta’minlash yotadi va ta’lim-tarbiya jarayonining mazkur tarkibiy qismlari bir yaxlit tizimni hosil qiladi. Biologiya ta’limida pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash lozimdir, yoki didaktik materiallar, ko‘rgazmali qurollar, elektron axborot resurslari (videofilmlar, taqdimotlar, elektron nazorat testlari, multimedia ilovalari) kerak bo‘lar. Bularning hammasi o‘qituvchining pedagogik mahorati va o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlariga bog‘liq. Shu bilan birgalikda o‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayonini oldindan puxta loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv

predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘quvchilarning imkoniyati, ehtiyoji va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, o‘quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak. Demak, zamonaviy biologiya ta’liminida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish eng birinchi navbatda o‘qituvchining faoliyatiga, nazariy bilim darajasiga, tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik mahoratiga bog‘liq.

Bugungi kun ta’lim tizimining talablaridan kelib chiqqan holda innavotsion texnolgiyalardan biologiya darslarida mavzuga mos turda saralab olish va olib borishdan ko‘zda tutiladigan maqsadlar quyidagicha taqsimlanadi:

– o‘quvchilarning biologiya faniga va u orqali tabiatga, atrof-muhitga, o‘simliklar olamiga mehr-muhabbatni shakllantirish;

– ularning nazariy bilimlarni chuqur o‘rganishida, o‘zicha fikrlay olishi hamda o‘rganilgan bilimlarni amalda bajara olishida muhim o‘rinni egallash;

– o‘rganilayotgan mavzuni yengil o‘zlashtira olishga yordam berish va boshqada shunga o‘xshagan ahamiyatli vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Biologiya darslarining samaradorligini ta’minlashdagi yana bir omil bu zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bu faoliyatni har bir o‘qituvchi o‘z kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Pedagog-olim R.Ishmuhamedovning ta’kidlashicha, pedagogik texnologiyalar qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar, quyidagilarni o‘z ichiga olmog‘i lozim:

– pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayoni)ning samaradorligini oshirishi;

– o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

– o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlar egallanishi ta’minlanishi;

– o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllantirilishi;

– o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

– pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4699-son qarori. – Toshkent, 2020.

3. Xolmatova M., G‘ofurova N. Biologiya ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

4. UNESCO. Digital Learning in Science Education: Global Report 2022. – Paris, 2022.

5. OECD. Innovative Teaching for the Digital Era. – Paris, 2021.

6. Pedagogika va psixologiya jurnali. – T.: TDPU, 2023-yil 2-son

Nazlimxan ESNAZAROVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Chimboy tumani,
25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, matematika fani o‘qituvchisi

“UCHBURCHAKLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada uchburchaklar mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish va har qanday yassi shaklni yoki murakkab ko‘p burchakli geometrik figuralarni tahlil qilishda uchburchaklar muhim rol o‘ynashi ochib berilgan. Shuningdek, bu shakl, eng sodda ko‘p burchakli figura bo‘lishi bilan birga, matematikada chuqur o‘rganilgan, o‘ziga xos xossalarga ega va keng amaliy qo‘llanilishi bilan ajralib turishi aytib o‘tilgan. Muallif uchburchakning shakli oddiy ko‘rinsa-da, u ichida yashiringan matematik qonuniyatlar, simmetriya va muvozanat tamoyillari orqali murakkab tizimlarni tushunishda kalit vazifasini bajarishini aytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Uchburchak, nuqta, tomon, kesishuv nuqtasi, nisbat, kesma, to‘g‘ri chiziq, uchburchakning uchlari, geometrik shakllar.

В статье раскрывается, что треугольники играют важную роль в использовании интерактивных методов в преподавании темы треугольников и анализе любых плоских фигур или сложных многоугольных геометрических фигур. Также было отмечено, что эта фигура, будучи самой простой многоугольной фигурой, глубоко изучена в математике, обладает уникальными свойствами и отличается широким практическим применением. Хотя форма треугольника кажется простой, автор отмечает, что он служит ключом к пониманию сложных систем через скрытые в нем математические законы, принципы симметрии и равновесия.

Ключевые слова. Треугольник, точка, сторона, точка пересечения, отношение, отрезок, прямая, вершины треугольника, геометрические фигуры.

The article reveals the use of interactive methods in teaching the topic of triangles and the important role of triangles in analyzing any plane figure or complex polygonal geometric figures. It is also noted that this figure, being the simplest polygonal figure, is deeply studied in mathematics, has its own properties, and is distinguished by its wide practical application. The author notes that although the shape of a triangle seems simple, it serves as a key to understanding complex systems through hidden mathematical laws, the principles of symmetry and balance.

Key words. Triangle, point, side, intersection point, ratio, segment, straight line, vertices of a triangle, geometric shapes.

Uchburchak — uchta tomoni va uchta burchagi bo‘lgan eng sodda ko‘pburchakdir. Geometriyada juda muhim figura hisoblanadi.

Uchburchakning asosiy elementlari:

– tomonlar – 3 ta;
– burchaklar – 3 ta;
– uchlar – 3 ta;
– ichki burchaklar yig‘indisi har doim 180° ga teng.

Tomonlariga ko‘ra uchburchak turlar:i

– teng tomonli uchburchak;
– barcha tomonlari teng;

– har bir burchagi 60°;
Teng yonli uchburchak:
– ikki tomoni teng;
– teng tomonlarga qarama-qarshi burchaklar teng bo‘ladi;
– turli tomonli uchburchak;
– barcha tomonlari har xil;
– barcha burchaklari ham har xil.
Burchaklariga ko‘ra uchburchak turlari:
– o‘tkir burchakli – barcha burchaklari 90° dan kichik;
– to‘g‘ri burchakli – bitta burchagi 90°;
– o‘tmas burchakli – bitta burchagi 90° dan katta;
Uchburchakning muhim xossalari:
– ikki tomon yig‘indisi har doim uchinchi tomondan katta bo‘ladi;
– eng katta tomonga qarshi eng katta burchak yotadi;
– to‘g‘ri burchakli uchburchakda Pifagor teoremasi ishlatiladi:
$a^2 + b^2 = c^2$

Uchburchakning shakli oddiy ko‘rinsa-da, u ichida yashiringan matematik qonuniyatlar, simmetriya va muvozanat tamoyillari orqali murakkab tizimlarni tushunishda kalit vazifasini bajaradi. Uchburchaklar bir nechta mezonlarga ko‘ra turlarga ajratiladi: tomonlar uzunligiga qarab – teng tomonli, teng yonli va turli tomonli uchburchaklar; burchak o‘lchamlariga qarab – o‘tkir burchakli, to‘g‘ri burchakli va burchakli (o‘tkir burchakdan katta) uchburchaklar shaklida tasniflanadi. Har bir tur o‘ziga xos geometrik, algebraik va ba’zan fizik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning barchasi matematik modellashtirishda, masalalarni yechishda va muhandislik ishlanmalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola orqali uchburchaklarning nazariy asoslari, ularning klassifikatsiyasi, ichki qonuniyatlari, shuningdek, turli turlarining o‘zaro farqlari va umumiylik jihatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Maqsad – nafaqat uchburchaklarning tuzilishini o‘rganish, balki ularni real hayotdagi qo‘llanilishi orqali tushunishga ko‘maklashishdir. Shu tariqa, o‘quvchilar, talabalar va mutaxassislar ushbu maqola orqali geometrik tafakkurni kengaytirish va amaliy bilimlarni boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uchburchaklar geometriyada eng sodda ko‘p burchakli shakl hisoblanadi. Har qanday uchburchak uchta tomon va uchta burchakdan tashkil topadi. Uchburchaklar tasnifi ikki asosiy mezon asosida amalga oshiriladi: tomonlarining uzunligiga ko‘ra va burchaklarining o‘lchamiga ko‘ra. Har bir tur muayyan xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning har biri turli masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega.

1. Tomonlarining uzunligiga ko‘ra uchburchaklar

Teng tomonli uchburchak

Bu turdagi uchburchakda barcha uchta tomoni teng bo‘ladi. Shuningdek, uchta burchagi ham o‘zaro teng va har biri 60° ga teng bo‘ladi. Teng tomonli uchburchak eng mukammal simmetriyaga ega bo‘lgan uchburchak turidir.

Xususiyatlari:

1. Barcha tomonlar teng: AB=BC=CA
2. Barcha burchaklar teng: $\angle A=\angle B=\angle C=60°$
3. Ichki burchaklar yig‘indisi 180° ga teng.
4. O‘z o‘qi bo‘yicha 3 ta simmetriyaga ega.

Teng yonli uchburchak

Teng yonli uchburchakda ikki tomoni teng bo‘ladi, uchinchi tomoni esa farq qiladi.

Teng tomonlar orasidagi burchak asosiy burchak, boshqa ikkisi esa teng burchaklar deyiladi.

Xususiyatlari:

1. AB=AC, ammo BC≠AB
2. Teng burchaklar: ∠B=∠C
3. Asos (farq qiluvchi tomon) ustida simmetriya o‘qi mavjud.

Turli tomonli uchburchak

Bu uchburchakda barcha tomonlar va barcha burchaklar bir-biridan farq qiladi. Har qanday umumiy simmetriyadan mahrum, ammo geometrik masalalarda keng qo‘llaniladi.

Xususiyatlari:

1. AB≠BC
2. Barcha burchaklar ham turlicha.
3. Simmetriyaga ega emas.

2. Burchaklarining o‘lchamiga ko‘ra uchburchaklar

O‘tkir burchakli uchburchak

Ushbu uchburchakda har bir burchak 90° dan kichik bo‘ladi. Bunday uchburchaklar ko‘pincha optik geometriyada va mexanik muvozanat tahlillarida qo‘llanadi.

Xususiyatlari:

1. ∠A<90°, ∠B<90° , ∠C<90°
2. Tomonlar va burchaklar o‘zaro muvofiqlikda.

To‘g‘ri burchakli uchburchak

Bunda bir burchak aynan 90° ga teng bo‘ladi. Bu uchburchaklar Pifagor teoremasining asosiy amaliy maydonidir.

Xususiyatlari:

1. Bitta burchak: ∠C=90°
2. Pifagor teoremasi qo‘llaniladi: $a^2 = b^2 + c^2$
3. Sinus, kosinus, tangens kabi trigonometrik nisbatlar aynan shu uchburchakda aniqlanadi.

O‘tmas burchakli (o‘tkir burchakdan katta) uchburchak

Bunday uchburchakda bitta burchak 90° dan katta, qolgan ikkitasi esa 90° dan kichik bo‘ladi.

Xususiyatlari:

1. Bitta burchak A >90°
2. Uzun tomon har doim katta burchak qarshisida joylashadi.
3. Ko‘plab fizik va mexanik tahlillarda qo‘llaniladi.


Har qanday uchburchak uchun umumiy qonuniyat mavjud:

1. Burchaklar yig‘indisi har doim 180° ga teng.
2. Eng uzun tomon har doim eng katta burchak qarshisida joylashadi.
3. Uchburchak tengsizligi: har qanday ikki tomoni yig‘indisi uchinchi tomondan katta bo‘ladi.


Uchburchaklar geometriyaning eng muhim va ko‘p uchraydigan shakllaridan biri bo‘lib, ularning turlari va xususiyatlarini o‘rganish nafaqat nazariy bilimlar, balki real hayotdagi amaliy vazifalarni hal etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, uchburchaklar tomonlarining uzunligiga yoki burchaklarining kattaligiga qarab turlicha shakl va xossalarga ega bo‘ladi. Teng tomonli va teng yonli uchburchaklar geometrik simmetriyani ifodalasa, turli tomonli uchburchaklar o‘zgaruvchanlikni aks

ettiradi. To‘g‘ri burchakli uchburchak esa o‘zining aniq trigonometrik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, uchburchaklar har qanday geometrik shaklni tahlil qilishda boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ichki qonuniyatlarini bilish esa fazoviy tafakkurni shakllantirish, texnik chizmalar va muhandislik loyihalarini tuzishda asos bo‘la oladi. Mazkur mavzuni chuqur o‘rganish orqali o‘quvchilar geometriyaning nazariy asoslarini puxta egallab, amaliy yechimlarga tayyorlanadilar. Shu sababli uchburchaklarning turlari va xususiyatlarini o‘rganish har bir o‘quvchi va mutaxassis uchun zaruriy bilim hisoblanadi.

Geometrik yasashlarga oid masalalarga – to‘g‘ri chiziqni yoki burchakni teng bo‘laklarga bo‘lish, aylanaga ichki va tashqi ko‘pburchaklar yasash (muntazam ko‘pburchaklar), fazoviy geometrik shakllar yasash, tekis va fazoviy egri chiziqlar yasash kabilarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ular haqida mavjud adabiyotlarda yaqindan tanishish mumkin. Berilgan har qanday uchburchakning o‘tkazilgan medianalaridan istalgan bittasi, qolgan ikkita medianalarni 1/3 nisbatga bo‘lib turishi (1-rasm) yoki uchburchak tomonlarini teng ikkiga bo‘lib turuvchi nuqtalarini tutashtirganda hosil bo‘lgan uchburchakning yuzasi (2-rasm), berilgan uchburchak yuzasining 1/4 qismiga teng bo‘lishi, EF kesma o‘ziga parallel bo‘lgan AB tomonning teng yarmiga teng bo‘lishi va nihoyat, 0 nuqta ABC uchburchak tekislikning og‘irlik markazi ekanligi ko‘pchilikga ma’lum.



1-rasm.



2-rasm.

Shular va shular kabi boshqa geometrik yasashlardan hozirgi zamon muhandislari, dizaynerlari va arxitektura-qurilish loyihachilari ham, bino va inshootlarning rejalari, binoning tashqi va ichki ko‘rinishini (eksteryer, interyer) loyihalash jarayonida, ularning dizayni, proporsiyasi va jozibadorligini aniqlashda muvaffaqiyat bilan foydalanishgan va foydalanib kelishmoqda. Quyida shu kabi geometrik yasashlarga oid bo‘lgan ixtiyoriy uchburchaklarning ba’zi xossalarini tahlil qilishda davom etamiz.

Berilgan ABC uchburchakning AB tomonini teng 2 bo‘lakka bo‘lish talab qilingan bo‘lsin. Buning uchun “Texnik chizmachilik” bo‘yicha darsliklardagi “Geometrik yasashlar” bo‘limida bayon qilingan usuldan foydalanamiz. AB tomonning (kesmaning) A va B uchlarini markaz qilib, kesmaning taxminan yarmidan kattaroq o‘lchamdagi radiusda aylana yoylari o‘tkazamiz, bu yoylarning uchrashuv nuqtalarini o‘zaro to‘g‘ri chiziq bilan tutashtirsak, bu to‘g‘ri chiziq berilgan AB kesmani teng ikkiga bo‘lib turadi.

Endi BS tomonni 1/3 nisbatda bo‘lish talab qilinsa (3-rasm, b), AB tomonning o‘rtasidagi D nuqtani shu tomon qarshisidagi C nuqta bilan tutashtiramiz.

Hosil bo‘lgan CD kesmaning o‘rtasidagi K nuqtani, bo‘linishi kerak bo‘lgan BC tomon qarshisidagi A nuqta bilan tutashtirib, bu to‘g‘ri chiziqni BC tomon bilan uchrashguncha davom ettirilsa, hosil bo‘lgan E nuqta va C nuqtalar orasidagi masofa BC tomonni 1/3 nisbatda bo‘lib turadi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan har qanday chizma juda aniq va to‘g‘ri bajarilishi kerak.

Aniq va to‘g‘ri bajarilgan chizmalar bo‘yicha yasalgan buyum, masalan, detal sifatli bo‘ladi va talabga to‘la javob bera oladi. Aks holda, noto‘g‘ri va noaniq chizma bo‘yicha yasalgan buyum yaroqsiz bo‘ladi. Aytilganlarga ko‘ra chizmalarni bajarishda geometrik qoida va qonunlarga qat’iy rioya qilish zarur. Ma’lumki, har qanday chizma yohud loyihani geometrik yasashlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Chizmachilikga oid adabiyotlarda keltirilgan geometrik yasashlar asrlar davomida boyitilgan va mukammallashtirilgan. Shunga qaramay, geometrik yasashlarga oid qanchadan-qancha bizga noma’lum bolgan xususiyatlarni izlab topish zarur bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ixtiyoriy uchburchakning yuqorida keltirilgan tahlillariga asoslanib, ushbu yasashlar loyihalash jarayonlarida duch kelinadigan geometrik yasashlarda katta muvoffaqiyat bilan yordam beradi, degan xulosaga kelish mumkin. Uchburchakning xossalarini tahlil qilish jarayoni, hali davom ettiriladi. Ushbu maqolaga qiziqish bildiruvchilar, bundan keyingi maqolalarni kuzatib borishlarini tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A’zamov A. va boshq. Geometriya: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017.

2. Выгодский М.Я. Справочник по высшей математике. – Москва: Наука, 1964.

3. Левитин К. Геометрическая рапсодия. – Москва: Знание, 1984.

4. Shah M.B., Rana B.C. Engineering Drawing. – Delhi: Pearson Education (Anvi Compositors), 2009.

5. Ziyo.net ta’lim portali resurslari.

Aijan AITMURATOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qonliko‘l tumani, 14-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA QORAQALPOQ TILI VA ADABIYOTI FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Maqolada qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o‘qitishda yuqori samara beruvchi pedagogik texnologiyadan foydalanish zarurligi ochib berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarga dars o‘tish jarayonida pedagogik mahoratdan foydalanib, o‘z bilimini o‘quvchilarga keng yoritib berish orqali o‘qituvchi yuqori natijaga erishishi mumkinligi aytib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik texnologiya, o‘quv-tarbiya, ta’lim, ilmiy-texnologiya, ijtimoiy, interfaol o‘yinlar,

В данной статье подчеркивается необходимость использования высокоэффективных педагогических технологий в преподавании каракалпакского языка и литературы. Используя педагогические навыки во время уроков и всесторонне передавая свои знания ученикам, учитель может достичь высоких результатов.

Ключевые слова: педагогические технологии, обучение и подготовка, образование, научно-технические, социальные, интерактивные игры.

This article emphasizes the need to use highly effective teaching techniques in teaching the Karakalpak language and literature. By using teaching skills during lessons and comprehensively imparting their knowledge to students, teachers can achieve excellent results.

Key words: pedagogical technologies, training and education, education, scientific and technical, social, interactive games..

Qoraqalpoq tili va adabiyoti darslarida pedagogik texnologiya orqali o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, o‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash, ijodiy ishlarga rag‘bat uyg‘otishi, ma’naviy jihatdan boyitishi amaliy tajribalar xulosasi sifatida isbotlanadi. Pedagogik texnologiyalar juda xilma-xil bo‘lib, biz ulardan ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni o‘tkazish tartibi haqida uslubiy ko‘rsatma beramiz. Ushbu malakaviy bitiruv ishida keltirilgan zamonaviy metodlar yokio‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o‘quvchilarda mantiqiy,aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O‘rta ta’lim tizimida adabiyotdan pedagogik texnologiyaga doir o‘quvchilarni darslik va topshiriqlar, adabiy ta’lim jarayonida adiblarning asarlarida ularning shaxsi u yoki bu darajada aks etganligini anglatish, asarlardagi qahramonlarning kechinmalarini va xatti-harakatiga qarab ularning shaxsini baholashiga turli metodlari yordamida o‘rgatish, adabiy-estetik tahlillashda qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish va ularni amalda qo‘llash yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Qoraqalpoq tili va adabiyotdan pedagogik texnologiya usullarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilish dasturda belgilangan o‘quv-tarbiyaviy vazifani bajarishda salmoqli o‘rin

tutishi, birinchi navbatda o‘quvchilarning o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni sezish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi,o‘qishga, fanga, pedagogik va o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Jamiyatimizning har bir fuqarosi XXI asrda, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiiydir. Jumladan,xalqta’limi soxasida faoliyat ko‘rsatayotganlar ham bundan mustasno emas. Texnologiya so‘zi fanga 1872-yilda kirib keldi. U yunoncha “texos”- hunar, mahorat va “logos” esa ta’limot yoki fan degan ma’noni beradi. Qisqacha “mahorat haqidagi fan” ma’nosini anglatadi.

Bugungi kunda ayrim kishilar pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq,hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan TSO,kompyuter, masofali o‘qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb o‘ylashadi. Bu to‘g‘ri emas. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o‘qituvchi - trener va o‘quvchilarning begilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog‘liq. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlariga erishish ,o‘quvchilar bilimini baholash reytingi kabi me’yorlarini qo‘llashdan iboratdir. Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o‘zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo‘yib borganligi tufayli, ta’lim-tarbiya jarayoni ham zamonaviy ilg‘or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi. Pedagogik texnologiyaning yo‘nalishlari ko‘p.

Hozirgi an'anaviy ta’lim, bu XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko‘p qo‘llanilayotgan zamonaviy tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Ular pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar;o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar;o‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar;o‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari va boshqalar.

Ma’lumki, ‘‘qoraqalpoq tili va adabiyoti’’ darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an'analariga iftihor hissini kamol toptirishda “qoraqalpoq tili va adabiyoti” darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz. Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun “Aqliy hujum”, “Zakovat”, “Modul dars”, “Zigzak”, “Interfaol”, “O‘yindars”, “Munozarali-bahslidars”, “Sayohat dars”, “Musobaqa dars” kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o‘zimiz o‘rgatgan manba-

lardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta’lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, ilojini boricha, ta’limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o‘quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o‘quvchi darsni yaxshi o‘zlashtira olmaydi.

Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o‘tilganda o‘zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo‘lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog‘lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e’tibor berishimiz lozim. Har bir o‘tilayotgan darsga o‘quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir. Noan'anaviy darsning asosiy yo‘nalishlari:

a) o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish;

b) o‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;

v)o‘quvchilarda fan asoslari,yutuqlari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;

g) olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish va hokazo.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

– o‘qituvchilarga kerakli metodik yordam ko‘rsatish;

– turkum fanlar bo‘yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlar tashkil etish;

– darslarni kuzatish va ularda pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llash darajasini oshirish;

– ilg‘or ijodkor o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish va ommalashtirish.

Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o‘rniga aniq ilmiy asoslangan ma’lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o‘z navbatida, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan o‘z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo‘lmoqda. Maktabda adabiy kechalar o‘tkazish ham o‘ziga xossamara beruvchi usullardandir. O‘quvchilar bunday tadbirlarda she’rlardan namunalar yodlaydi, timsollarga bo‘linib, asarlardan parchalar ko‘rsatib, sahnada o‘zlari ijro etadi. Bunda o‘quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi.

O‘quvchilarga fanni o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchida fikrlash darajasini yuksaltirish, dars jarayonini tahlil qilishda fikr almashish, darsni tushunib olishda eng foydali usullardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.Q., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2005.

2. Karimjonov I.A. va boshq. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2002.

3. Saydahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – Toshkent, 1999.

4. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий: в 2-х т. Т. 1. – Москва: НИИ школьных технологий, 2006.

5. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo‘llash. – Toshkent, 2000.

6. Sadriddinzoda Sh.J., Eshmurodov M.Sh. Pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish: ma’ruzalar to‘plami. – Samarqand, 2007.

Arzayim NURILLAEVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qonliko‘l tumani, 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, biologiya fani o‘qituvchisi

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada biologiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, metodlar orqali fanni o‘qitishda zamonaviy yo‘nalishga erishish va o‘quvchilarda biologiya fanida qiyinchilik tug‘diruvchi mavzularni tez o‘zlashtirishda innovatsion metodlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Innovatsion metod, aqliy hujum, insert metodi, jarayon, faollashtirish mexanizmi,

В статье рассматриваются инновационные методы, используемые в преподавании биологии. Также освещены инновационные методы достижения современного направления в преподавании предмета и быстрого усвоения учащимися тем, представляющих трудности в биологии.

Ключевые слова. инновационный метод, мозговой штурм, метод вставки, процесс, механизм активации

The article discusses innovative methods used in teaching biology. It also highlights innovative methods for achieving a modern direction in teaching the subject through methods and rapid assimilation by students of topics that pose difficulties in biology.

Key words. Innovative method, brainstorming, insertion method, process, activation mechanism.

Ma’lumki an'anaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarda har bir o‘quvchining bilish darajalarini nazorat qilish imkoniyati mavjud emas edi. Innovatsion metodlar orqali o‘qitish jarayoni esa o‘qituvchilarga o‘quvchining o‘quv faoliyatini tezkor boshqarish imkonini beradi. Innovatsion metodlar orqali o‘qitish jarayonida an’anaviy avtoritar uslub o‘zgaradi. Buning natijasida o‘qituvchilar maslahatchi mavqeyini egallaydi. Bu jarayonning vazifalari esa talabalarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ta’lim oluvchilarning tashabbus ko‘rsatishlari uchun keng yo‘l ochish, muammolarni mustaqil yechishlariga imkoniyat berish, yangi ma’lumotlarni to‘plashlari uchun zarur moddiy-texnik bazani vujudga keltirishdan iborat. Innovatsion metodlar orqali o‘qitish jarayoniga muvofiq keladigan texnologiyalarni qo‘llash orqali ham talabalarni kreativ faollikka undash, o‘qitish jarayonida tashkiliy, mazmun bilan bog‘liq, jarayonli, yo‘naltiruvchi holatlarini ajratish mumkin. Bunday holatlarning har bir muayyan g‘oyalarga muvofiq keladi. O‘quv jarayonining dastlabki jihatini mazmunga asoslangan umumlashmalar, o‘quv materiallarini muvofiqlashtirish, o‘quv fanlarini integratsiyalash, didaktik birliklarni mustahkamlash kabilar tashkil etadi.

Innovatsion metodli o‘qitish metodlarning yana bir o‘ziga xos xususiyatlarining tavsifi o‘quvchining o‘zaro munosabatlarida xayrixohlik, birdamlik, hissiy-ma’naviy umumiylikni vujudga keltirish bilan tavsiflanadi. Bunda innovatsion metodlarni qo‘llash natijasida ta’lim oluvchilar idrok etish jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘lib, ularning tajribasi o‘quv faoliyatining manbai sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilar o‘quvchilarga tayyor bilimlarni taqdim etmaydi, balki ularni

mustaqil izlanishga undaydi. An’anaviy o‘qitishdan farqli tarzda innovatsion o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilan o‘qituvchilarning o‘zaro birgalikdagi xarakatlari o‘zgaradi. Jumladan, o‘qituvchining faolligi o‘quvchilar faolligi bilan o‘rin almashadi. Pedagoglarning vazifasi esa o‘quvchilarni tashabbuskorlikka undashdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga ma’lumotlarni taqdim etuvchi subyekt va ularga ko‘maklashuvchi maslahatgo‘y vazifasini bajaradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, innovatsion o‘qitish metodlari hech qachon ma’ruza mashg‘ulotlari o‘rnini bosa olmaydi. Biroq ular ma’ruza materiallarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratib, bu jarayonda talabalarda fikr, munosabat, xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘qitishning innovatsion metodlari ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda o‘ziga xos quyidagi ustuvor jihatlarga ega: a) o‘quvchilarda o‘quv jarayoniga nisbatan qiziqish uyg‘otadi; b) har bir o‘quvchining o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi; v) his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi; g) o‘quvchilarning o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi; d) o‘quvchilarga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi; y) teskari aloqani amalga oshirish imkonini beradi; o) o‘quvchilarda fikrlar, munosabatlar, kreativ faoliyat tajribalarini shakllantiradi; j) o‘quvchilarda hayotiy-kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradi; z) o‘quvchilar xulq-atvorining o‘zgarishi uchun qulaylik yaratadi.

Innovatsion jarayonida talabalar o‘z imkoniyatlarini to‘laligicha namoyon eta oladilar. Ular o‘zaro axborotlar almashadilar, muloqotga kirishadilar, qadriyatli yo‘nalishlarini boyitish imkoniyatiga eta bo‘ladilar. Innovatsion o‘qitish jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik jarayonining teng huquqli subyektlari sifatida mustaqil rivojlanish subyektlari sifatida faollik ko‘rsatadi. O‘quvchilar yangi axborotlarga nisbatan shaxsiy munosabatlarini bildirib, kasbiy tajribalarini boyitishga muvafiq bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash jarayonida buni yaqqol ko‘rish mumkin. O‘z kasbiy tajribalarini oshirish jarayonida o‘quvchilarning ichki quvvatlari namoyon bo‘ldi. Innovatsion o‘qitish jarayoni subyektlarning teng huquqli dialoglari asosida tashkil topadi. Shuning uchun ham innovatsion o‘qitish jarayonida faoliyat shakllarini qo‘llashda keng ko‘lamli improvizatsiya uchun yo‘l ochiladi. Innovatsion o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit vujudga keladi.

Har bir o‘quvchining ichki quvvatlari ro‘yobga chiqishida guruhdagi barcha o‘quvchilar muhim o‘rin egallaydilar. Shuning uchun ham innovatsion o‘qitish jarayonida jamoaviy o‘quv jarayonining asosiy prinsiplari va tarkibiy qismlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Quyida biologiya fanida pedagoglarga qo‘llashga tavsiya etiladigan ayrim metodlar to‘plamiga to‘xtalamiz:

1. Interfaol metodlar:

“Aqliy hujum” (Brainstorming).

Qo‘llanishi: Ekologiya, evolyusiya, muammoli mavzular.

Afzalligi: Erkin fikrlash, tezkorlik.

“INSERT” texnologiyasi

Belgilar:

– bilaman

– yangi ma’lumot

− qarama-qarshi

? – tushunmadim

Qo‘llanishi: Matn bilan ishlashda
2. O‘yinli innovatsion metodlar
“Biologik domino”
Atamalar va ta’riflarni moslashtirish
“Kim tez – kim to‘g‘ri?”
Qisqa savol-javoblar orqali mustahkamlash
“Rolga kirish”
Masalan: “Men – yurakman”, “Men – DNKman”
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)
Virtual laboratoriyalar
Tajribalarni xavfsiz, qiziqarli o‘rganish
Multimedia darslar
Video, animatsiya, 3D modellar (masalan, yurak urishi)
Onlayn platformalar
Kahoot, Quizizz, Wordwall
Test va viktorinalar uchun
4. Tadqiqotga yo‘naltirilgan metodlar
“Mini-tadqiqot”
O‘simlik o‘sishi, suv ta’siri, yorug‘lik roli
“Loyiha metodi”
Mavzular: “Qizil kitob”, “Ekologik muammolar”
Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar
“B-B-B” (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim)
Dars boshida va oxirida qo‘llanadi
“Fishbone” (Baliq skeleti)
Muammo–sabab–oqibat–yechim
STEAM yondashuv
Biologiyani: Texnologiya (sensorlar), Muhandislik (model yasash), Matematika (o‘sish grafigi), San'at (plakat, infografika) bilan bog‘lab o‘qitish.

Mazkur metodlar orqali o‘quvchilar faol sub'ektga aylanishadi. Innovatsion metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ofurov A.T., Tolipova J.O. Umumiy biologiyani o‘qitishning norasmiy usul va shakllari. – Toshkent: Fan, 1990.

2. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. – 2003. – №10. – С. 8-14.

3. Смирнова Н.З., Бережная О.В. Компетентностный подход в биологическом образовании: учебно-методическое пособие. – Красноярск, 2012. – 168 с.

4. Tolipova J.O. Biologiya ta’limi texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 128 b.

5. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Bilim, 2004. – 160 b.

6. Tolipova J., Umaralieva M., Abdurizaeva S.R. “Botanika” darsligi bo‘yicha 5-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2016.

Nigora RUSTAMOVA,
Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent, t.f.f.d., (PhD)

TARBIYANING UMUMIY METODLARI (Zamonaviy yondashuvlar)

Annotatsiya

Maqolada tarbiya jarayonining asosiy metodlari chuqur tahlil qilinib, tarbiya metodlari pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlari, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Muallif metodlarning tasnifi, ularning pedagogik ahamiyati, qo'llanilish tamoyillari va zamonaviy yondashuvlarini ochib bergan.

Tayanch so'zlar. Tarbiya, metod, shaxs, ahloq, rag'bat, jazolash, suhbat, topshiriq, qadriyatlar, ko'nikma.

В статье глубоко анализируются основные методы воспитательного процесса, методы воспитания являются неотъемлемой частью педагогической деятельности, посредством которых формируются личностные качества, нравственные взгляды, социальная активность и самостоятельное мышление воспитанников. Автор раскрыл классификацию методов, их педагогическое значение, принципы применения и современные подходы.

Ключевые слова. Воспитание, метод, личност, нравственност, поощрение, наказание, беседа, задание, ценности, навык

In the article, the main methods of the educational process are deeply analyzed, and educational methods are an integral part of pedagogical activity, through which the formation of personal qualities, moral views, social activity, and the ability to think independently of pupils is considered. The author reveals the classification of methods, their pedagogical significance, principles of application, and modern approaches.

Key words. Upbringing, method, personality, morality, encouragement, punishment, conversation, task, values, skills.

Tarbiya – bu inson shaxsini shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy, jismoniy va intellektual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Tarbiya metodlari esa bu jarayonni amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar majmuasidir. Ushbu maqolada tarbiyaning umumiy metodlari, ularning turlari, xususiyatlari, qo'llanilish sharoitlari va samaradorligi hisoblanadi. Tarbiya metodlari – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, tuyg'ulari, irodasi va hulqiga ta'sir etish vositalaridir. Ular pedagogik maqsadga erishish yo'lida qo'llaniladi. Metodlar tarbiyalanuvchilarning yoshiga, individual xususiyatlariga, tarbiya maqsadlariga qarab tanlanadi.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki ahloq va munosabatlarni aks ettirishidir.

Milliy pedagogika o'qituvchi, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilarning aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligini ta'kidlaydi. Zero, tarbiya mukammal shaxsni quvvatini, qobiliyatlarini, mafkuraviy, ma'naviy-madaniy sifatlarini, ongi va axloqini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, xarakter xislatlari, g'oya-

viy – axloqiy, irodaviy, estetik, sifatlari shakllanadi, olamga, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy, aqliy, kuchlar mustahkamlanadi, harakat sifatlari va ko‘nikmalari rivojlanadi. Har tomonlama garmonik rivojlangan barkamol inson tarbiyasi uchun imkon yaratiladi.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisa ob’ektiv ravishda mavjud bo‘ladigan alokalar kuzatiladi. Bu aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bu qonuniyat tarbiya jarayonida ham mavjud bo‘lib, u birinchi tomondan ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar tarbiya jarayonida shaxsning dunyoqarashi, ahloqiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik vositalardir. Bu metodlar orqali tarbiyalanuvchi jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, urf-odatlar, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy munosabatlar haqida bilim oladi, ularni anglaydi va o‘z hayotida qo‘llashga harakat qiladi. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari sanaladi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o‘quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy g‘oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko‘maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo‘llaniladi.

O‘quvchilarda g‘oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya’ni, davlatning kichik va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash lozim. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko‘p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o‘quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o‘quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog‘langanligi borasida ma’lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati hisoblanadi. Shu sababli davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntirialdi.

Suhbat – bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi muloqot shakli bo‘lib, unda muayyan tarbiyaviy mavzu muhokama qilinadi. Suhbat orqali tarbiyachi bolalarning fikrini eshitadi, savollar beradi, mulohaza yuritishga undaydi.

O‘quvchi shaxsini g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o‘qituvchining jonli so‘zi eng ta’sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o‘quvchilari uchun dolzarbligi, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy ishonch uyg‘otishning suhbat mazmuniga bo‘lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan

natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

a) etnik mavzular (ijtimoiy ma’naviy-axloqiy me’yorlar, jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o‘zini tutish qoidalari va boshqalar);

b) estetik mavzular (tabiat go‘zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go‘zalligi);

v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);

g) ta’lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigiyenik mavzularda ham tashkil etilishi o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o‘quvchilarga ularning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar orqali murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati muhim hisoblanadi.

Hikoya. O‘quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar yordamida boyitilgan hikoyalarni qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga ahloq me’yorlari, xalq o‘tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san’at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari – radio, televideniye, gazeta va jurnallar sahifalarida e’lon qilingan ma’lumotlar ham o‘quvchilar uchun qimmatli material bo‘ladi. Suhbat ham, hikoya ham o‘quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so‘zlar vositasida adabiy tilda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o‘quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta’minlaydi, buning natijasida o‘quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi ahloqiy sifatlarni ko‘rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniqsa, yoshlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va hayotda o‘zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O‘quvchilar o‘zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba’zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o‘zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo‘lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so‘zi yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo‘lmasligi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari. O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni, o‘z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi orqali yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois

o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular (“Did haqida bahs”, “Mashhur bo‘lish yo‘llari”, “Biz madaniyatli kishilarmizmi?” va hokazolar)da o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma, odat, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar ishlardir.

Topshiriq o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar, mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytdanda, tarbiyaning umumiy metodlari bolalar va o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Ushbu metodlar tarbiya jarayonida maqsadga erishishni ta’minlaydi va pedagogik ta’sirning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
2. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
3. Xojiyev N.X. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. Mo‘minov N.M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Saidov U. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

Munirxon MUXITDINOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomtiya universiteti, “Ingliz tili” kafedrasi, dotsent, p.f.f.d. (PhD)

TALABALARNI INGLIZ TILIGA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMDA O‘QITISHNING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARI

Annotatsiya

Sun’iy intellekt (AI) va mashinali o‘rganish texnologiyalarini ta’limda qo‘llash rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada talabalarining nuqtayi nazariga ko‘ra ingliz tilini o‘qitish/o‘rganishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini samarali qo‘llash strategiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, ingliz tilini o‘qitish/o‘rganish uchun sun’iy intellekt va uni ish bilan ta’minlash strategiyalarini tavsiflash uchun tahliliy tavsifiy yondashuv qo‘llanilgan. Shuningdek, talabalarni ushbu texnologiyalaridan foydalanib o‘qitishdagi psixolingvistik jihatlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Generativ sun’iy intellekt, AI, deep learning, sun’iy intellekt, virtual ta’lim, texnologiya, psixologiya va pedagogika.

Применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) и машинного обучения в сфере образования активно развивается. Данная статья направлена на изучение стратегий эффективного использования технологий искусственного интеллекта в процессе обучения и изучения английского языка с точки зрения студентов. В исследовании использован аналитико-описательный подход, основанный на изучении и анализе научной литературы, а также на описании технологий искусственного интеллекта и стратегий их применения в обучении и изучении английского языка. Кроме того, в статье рассматриваются психолингвистические аспекты обучения студентов с использованием данных технологий.

Ключевые слова. генеративный искусственный интеллект, ИИ, глубокое обучение, искусственный интеллект, виртуальное обучение, технологии, психология и педагогика.

The application of artificial intelligence (AI) and machine learning technologies in education is rapidly developing. This article aims to explore strategies for the effective use of artificial intelligence technologies in teaching and learning English from students’ perspectives. The study employs an analytical and descriptive approach based on a review and analysis of relevant literature, as well as a description of artificial intelligence technologies and strategies for their application in English language teaching and learning. In addition, the article highlights the psycholinguistic aspects of teaching students using these technologies.

Key words. Generative artificial intelligence, AI, deep learning, artificial intelligence, virtual education, technology, psychology and pedagogy.

Bizga ma’lumki sun’iy intellektning ta’lim tizimiga kirib kelishi katta o‘zgartiruvchi kuch sifatida ta’sir o‘tkazdi. Bu tushuncha esa hozirgi kunda hech kimga yangilik emas. 1956-yildagi Dartmut konferensiyasida Bartneck va boshqa olimlar ushbu texnologiyani keng ma’noda ratsional qarorlar qabul qilishga qodir intellektual hisoblash tizimlarini ishlab chiqish, baholash va qo‘llashga qaratilgan ilmiy fan sifatida ta’riflaganlar. Sun’iy intellekt sohasidagi so‘nggi yutuqlar turli sohalarda sezilarli rivojlanishlarga olib keldi, generativ sun’iy intellekt esa ayniqsa o‘zgaruvchan texnologiya sifatida paydo bo‘ldi.

Generativ sun’iy intellekt (generativ AI, yoki GenAI) ning pastki maydonidir foydalanadigan generativ modellar matn, rasm, video, audio, dasturiy ta’minot kodi yoki

boshqa ma’lumotlar shakllarini yaratish ushbu modellar o‘quv ma’lumotlarining asosiy naqshlari va tuzilmalarini o‘rganadi va ularni yangi ma’lumotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatadi. Hozirgi kunda OpenAI, Google, Microsoft va Nvidia kabi kompaniyalar sun’iy intellekt inqilobining oldingi saflarida turmoqda. Ko‘plab olimlar ushbu tashkilotlar tabiiy tilni qayta ishlash, real vaqt rejimida tarjima qilish, yuqori sifatli tasvir va naqshlarni aniqlash hamda inson munosabatlarini simulyatsiya qiluvchi sun’iy intellekt botlari kabi imkoniyatlarga ega ilg‘or vositalarni qanday joriy etganini ta’kidlab kelmoqdalar.

Chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish aynan “sun’iy intellekt yordamida o‘qitish” - ya’ni SI texnologiyalarini fan bilan o‘zaro integrallashuvi mazmunida ifodalanadi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarining ta’lim sohasida SI texnologiyalari iste’molini joriy etish rivojlanib bormoqda. Jumladan, AQSH, Singapur, Malayziya va Janubiy Koreya kabi yirik mamlakatlar ta’lim tizmida SI texnologiyalari o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar tomonidan keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Sun’iy intellektning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlash uning hozirgi o‘rni va kelajakdagi imkoniyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Sun’iy intellekt bo‘yicha ilk tadqiqotlar 1950-yillarda, hisoblash texnikasining rivojlanishi bilan boshlangan. Dastlab, tadqiqotchilar o‘z diqqatini matematik masalalarni yechish, mantiqiy tahlil qilish va ma’lumotlarni qayta ishlash kabi vazifalarga qaratganlar. 1956-yilda Dartmut konferensiyasida “sun’iy intellekt” atamasi ilk bor rasmiylashtirilib, bu sohani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida ajratib olishga turtki bo‘ldi.

Sun’iy intellektni rivojlantirish jarayonini shartli ravishda bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin. Dastlabki bosqichda tadqiqotlar mantiqiy dasturlash va qoidaviy tizimlarga asoslangan edi. Ushbu yondashuv oddiy vazifalarni hal qilishda samarali bo‘lsa-da, murakkab va dinamik vaziyatlarda cheklangan edi. Keyingi bosqichda ekspert tizimlari va bilimlar bazasiga asoslangan yondashuv paydo bo‘ldi, bunda maxsus sohalardagi ekspert bilimlari kompyuter tizimlariga integratsiya qilindi. Biroq, bu tizimlar ham vaqt o‘tishi bilan murakkab muammolarni yechishda yetarlicha moslashuvchan emasligi aniqlandi.

1980-1990 yillarda neyron tarmoqlar va o‘z-o‘zini o‘rgatish algoritmlariga asoslangan sun’iy intellekt rivojlana boshladi. Ushbu usullar sun’iy intellektga o‘z bilim va tajribasini boyitish imkonini berdi, bu esa yanada murakkab masalalarni yechish imkoniyatini ochdi. Keyinchalik chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyalari ishlab chiqildi, ular sun’iy intellektga ko‘plab turdagi vazifalarni mustaqil ravishda o‘rganish va bajarish imkonini berdi. Bu texnologiyalar hozirda yuzni tanish, ovozli yordamchilar, avtomatik tarjima va hatto murakkab o‘yin strategiyalarini ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda. Sun’y intellektning paydo bo‘lishi va ta’lim tizimiga kirib kelish bosqichlarini ushbu jadval ko‘rinishida ifodaladik.

1-jadval

Sun’iy intellekt tushunchasini rivojlanish jarayoni

1235-1316	Raymundo Lulli tomonidan ilk bor inson miyasi faoliyatini modellashtiruvchi mashina yaratishga urunish olib borgan.
1596-1650	R. Dekart tomonidan intellektual masalalarni formallashtirish imkoniyatlari va inson faoliyatini tasvirlashda aniq usullardan foydalanish bo‘yicha ishlar olib borilgan.
1832-1835-1914	Semyon Karaskov, Charlz Bebbidge, Leonardo Kvedolar tomonidan ishlab chiqilgan qurilmalar ishga tushsurilgan bo‘lib, ular asosan shaxmat o‘yinlari uchun mo‘ljallangan.

1930	“Mitti mashina” nomli sun’iy ongga mo‘ljallangan konsepsiya ishlab chiqilgan.
1956	Ilk marotaba sun’iy intellekt tushunchasi kirib keldi.
1960	Joseph Weizenbaum ilk virtual suxbatdoshni kashf etdi, unda kompyuter dasturi inson bilan dialog olib bora oladi.
1997	IBM Deep Blue kompyuteri jahon chempioni Garri Kasparov ustidan g’alaba qozonadi.
1990	O‘qituvchisiz avtomatik o‘qitish tizimi. Neyron tarmoq mashinali tarjimon. Tasniflash va yuzni aniqlash funksiyasining paydo bo‘lishi.
2000	Deep learning paydo bo‘lishi.
2010	Virtual ko‘makchi. Yuz tuzilishini aniqlash funksiyasi Deepface ishlab chiqilgan. Strategik o‘yinlar uchun kuchli sun’iy intellekt tizimi ishlab chiqilgan.
2011	Apple kompaniyasi tomonidan Siri ovozli yordamchi ilovasi ishga tushurildi.
2013	Ta’lim beruvchi komyuterlardan internet yordamida mustaqil rasm va videolarni yuklab olish imkonini yaratdi.
2016	Sun’iy intellektning ixtisoslashgan tizimlarini rivojlantirish va sun’iy ongni yaratish yo‘llarini o‘rganish. Google DeepMind sun’iy intellekti birinchi marta professional o‘yinchini mag’lub etdi.
2017	Gamalon mustaqil ta’lim olish texnologiyasini ishlab chiqdi.
2018	GNU - General Language Understanding Evaluation tizimi ishlab chiqildi.

Ushbu jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, sun’iy intellektni alohida bilim sohasi sifatida shakllantirish XX asrning o‘rtalariga kelib amalga oshgan bo‘lsa-da, unga bir necha asrlik ilmiy izlanishlar asos bo‘lgan. Intellektual tizimlarni modellashtirishga asos bo‘lgan g‘oyalar bir nechta ilmiy yo‘nalishlar doirasida ishlab chiqilgan. Aql va ong, bilim va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolarini o‘rgangan faylasuflar miyaning mashina sifatidagi tasavvurini ilgari surishgan. Matematiklar “mantiqiy haqiqatga ega bo‘lgan mulohazalarni manipulyatsiya qilish uchun instrumental vositalarni” taqdim etishgan va “algoritmlar haqidagi hukmlar shakllanishi” uchun asos yaratishgan. Psixologlar intellekt, ong, tafakkur va idrokning tabiati haqidagi qarashlarni shakllantirishgan. Lingvistlar tabiiy tilni tushunish va qayta ishlash masalalarini tadqiq etishgan. Aniq, tabiiy va gumanitar fanlardagi yutuqlar sun’iy intellekt nazariyasini yaratish va uning keyingi rivoji uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlari kesimida rivojlanayotgan fan bo‘lib, u nutq jarayonining mazmuni, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo‘naltirilganligi, ularning adresant va adresatga ta’sir doirasi kabi masalalarni o‘rganadi. Shuningdek, O‘.Xoshimov, I.Yoqubov ta’kidlaganidek, ushbu fan chet tilini o‘rgatishda til materiallarini, nutq faoliyatlarini o‘rgatish, o‘rganish psixologiyasini yoritmoqda. Bu o‘z o‘rnida metodika fani uchun muhim omil hisoblanadi.

Oliy ta’li muassasalarining asosiy maqsadlaridan biri talabalarda barcha til kompetentliligini birdek shakllantirishga qaratilagan bo‘lib, ularni zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirish, bizning fikrimizcha, aynan boshlang‘ich davrda muhim hisoblanadi. Bir qator xorijiy olimlarning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, 89 foiz o‘smir yoshlar (12-17-25 yosh) internetda kuniga 3-8 soatgacha bo‘lgan vaqtlarini sarflaydilar Shu sababli N.N.Luzanova ushbu yoshdagi o‘quvchilarni “zamonaviy o‘quvchi” deb ataydi.

Shuningdek, olib borgan monitoring natijalariga ko‘ra o‘quvchilarning aksariyat qismi Internet va kompyuter texnologiyalarini ta’lim olish imkoniyati va individual o‘quv vositasi sifatida e’tirof etishgan bo‘lsa, N.P.Babaniyazova zamonaviy ta’limda o‘quv

jarayonini shunday tashkillashtirish lozimki, bunda har bir o‘quvchi o‘zi mustaqil va ongli ravishda ta’lim mazmunini anglashi va mustahkam bilimga ega bo‘lishi lozim deb ta’kidlaydilar.

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, zamonaviy o‘quvchilarga o‘zlari qiziqqan vosita yordamida ta’lim berilsa, natija samarali bo‘ladi. Bitiruvchi o‘quvchilarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga qiziqtirish orqali, ya’ni innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonida joriy etilishi o‘zlashtirishning individual sur’atini shakllanishiga xizmat qiladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini to‘laqonli o‘zlashtirishini ta’minlab, har bir o‘quvchi uchun alohida – uning ruhiy (idrok, tafakkur, diqqat) rivojlanishida maqbul materiallarni tanlash va uning o‘ziga bo‘lgan o‘zlashtirish traektoriyasini belgilash zarurati tug‘iladi.

Xususan, kompyuter vositalariga asoslanib qurilgan zamonaviy ta’lim paradigmasi, o‘quvchilarga tayyor holdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni etkazishdan iborat emas, balki ularda mustaqil o‘zlashtirishni ta’minlashdan iboratdir. Ushbu holatda mashg‘ulotlarda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faoliyati interfaol kompyuter dasturlari yordamida amalga oshiriladi. Chet tillarini o‘qitish metodikasida ham o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ularning motivasiyasini oshirish, interfaol metod asosida ta’lim berish zamonaviy ta’lim maqsadlaridan biri bo‘lib, masofaviy o‘qitish yordamida yuqorida keltirilgan jihatlarni amalga oshirishda bitiruvchi o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligi, moyilliklari va oldilariga qo‘ygan maqsadlarini aniqlab olish lozim.

Universitet ta’limining vazifalaridan biri ijodiy tashabbuslarni va noan’anaviy fikrlashni rivojlantirishdir. Bu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari inson imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim, o‘qitish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda yordam berishi mumkin. Interaktiv ta’lim resurslarining asosiy maqsadlaridan biri talabaning shaxsini rivojlantirish va uning turli xil ta’lim ehtiyojlarini qondirishdir.

Virtual ta’lim muhitida muayyan raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mavjud bo‘lib, ular talabalarning axborot manbalari bilan mustaqil ishlashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, ularni o‘z-o‘zini aniqlash va o‘zini namoyon etishda yordam beradi. Intellektual ekspert tizimlari, bilimlar bazasi, mantiqiy xulosalash mexanizmi va tushuntirishlar subsystemasidan iborat bo‘lib, muayyan tor mavzu sohasidagi ma’lumotlarni birlashtiradi va talabalarga mantiqiy yechimlar taklif qilish va tushuntirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari interaktiv o‘qitish formatlarini takomillashtirish, o‘qish vazifalarini talabalarning bilim darajasiga mos ravishda moslashtirish, talabalarning nutqini tanish, xatolarni aniqlash, o‘yin texnologiyalarini (ta’lim gamifikatsiyasi) qo‘llash va boshqa ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining afzalliklaridan biri sifatida vazifalar bajarilishi natijalarini avtomatik baholash orqali tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyatini keltirish mumkin. O‘qituvchilar ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchining rutinal vazifalarini bajarishini ta’minlagani sababli, u ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va talabalarga yordam berishga ko‘proq vaqt ajratishi mumkin.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini rivojlantirish va o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Bu, o‘z navbatida, til o‘rganish jarayonini samarali va tezlashtiradi.

Psixologiya va pedagogika sohasidagi ko‘plab tadqiqotchilar bazi talabalar yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun kuchli istak va xohish bilan ishlashlarini aniqladilar. Bir vaqtning o‘zida yuzaga keladigan qiyinchiliklar ularga faqat kuch va maqsadga erishish

istagini qo‘shadi. O‘qituvchilar va psixologlar buni talabalarning individual psixologik xususiyatlari bilan izohlashadi. Bunday xususiyatlarga aql (yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati), ijodkorlik (yangi bilimlarni mustaqil ravishda rivojlantirish qobiliyati), yuqori o‘zini o‘zi qadrlash va boshqalar kiradi.

Shu munosabat bilan o‘qituvchi birinchi kurs talabasi faoliyatini mustaqil ishlarga imkon qadar tezroq moslashishga yo‘naltirishi juda muhimdir. Bu kognitiv faoliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Talabaga ushbu faoliyatni nafaqat imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish uchun, balki bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash uchun olib borishini tushuntirish kerak.

V.Dubrovina fikricha, talabalar va pedagoglar o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabatlar bolalar va o‘smirlarning rivojlanishi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun, moslashuv jarayoni ta’lim jarayonining barcha subyektlarini o‘z ichiga olishi zarur. Bundan tashqari, M.V.Grigoryev ta’kidlaganidek, talabalar va ta’lim muhitining samarali o‘zaro ta’siri uchun muhim sabablaridan biri pedagog va uning ta’lim faoliyatini olib borish uslubidir. Ushbu fikr pedagogning moslashuvchan o‘qitish strategiyasini to‘g‘ri tanlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.


Xorijiy tilni o‘qitish samaradorligi hozirgi zamon talabalarida ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta’minlamasdan amalga oshirilmaydi. Bu moslashuv talabalarining psixosomatik, yosh va individual shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. M.V.Grigoryevning ishlarida ta’kidlanishicha, moslashuvchanlik tayyorgarligi ta’lim muhitining dinamikasiga va u bilan samarali o‘zaro ta’sirga bo‘lgan tayyorgarlik sifatida ko‘riladi. Bu, ayni bir vaziyatda talabaning o‘z imkoniyatlari va muhit talablariga o‘rtasida optimal muvozanatni o‘rnatishiga ishonchni o‘z ichiga oladi.


Sun’iy intellektning muhim xususiyatlaridan biri – bu shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish bo‘lib, buning hisobiga ta’lim oluvchilar ta’lim trayektoriyasi va o‘qitish mazmuni, fanlarning ketma-ketligi va o‘zlashtirish sur’ati, umumiy axborot bo‘shlig‘idan tashqarida muallimlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustaqil tanlash imkoniga ega bo‘lishidadir.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyilini amalda qo‘llash o‘z xarakteriga ko‘ra murakkab pedogogok jarayon bo‘lib, uni amalga oshirish natijasida o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari ro‘yobga chiqariladi va o‘quvchilarda ijodkorlik va layoqatlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchining ijodiy layoqatlari uning faoliyatini baholash orqali aniqlanadi.

2-jadval

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi talabalarda yuzaga keladigan psixologik ta’sirlar





Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va avtonomligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan nazoratsiz foydalanish texnologik qaramlik va kognitiv faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt texnologiyalari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish, aqlli o‘qitish tizimlari hamda avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlarini joriy etish orqali talabalarning o‘quv faolligi va o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bashoratli tahlil va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari talabalar faoliyati hamda til ko‘nikmalarini chuqur tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘quv kontentini moslashtirish, virtual yordamchilar, transkripsiya va tarjima xizmatlari hamda o‘rganishni boshqarish tizimlarining samarali ishlashini ta’minlaydi. U insholarni avtomatlashtirilgan tarzda baholashni soddalashtirib, ta’limiy tahliliy vositalar orqali ma’lumotlarni qayta ishlash sifatini yaxshilaydi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida kompyuterlashtirilgan test sinovlari, o‘yinlashtirilgan hamda immersiv o‘rganish shakllarini amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Bundan tashqari, formativ baholash, onlayn so‘rovnomalar, interfaol doskalar va videokonferensiya vositalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babaniyazova N.P. Ingliz tili fe’l leksikasini qoraqalpoq auditoriyasida modulli o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Nukus, 2017. – 76 b.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogika ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 269 b.

3. Дубровина В. и др. Стратегия преподавания иностранного языка в группах студентов с нулевым стартовым уровнем // Человеческий капитал. – 2021. – № 10 (154).

4. Luzanova N.N. Проектирование и реализация индивидуальной образовательной программы школьника в дистанционном обучении: dissertatsiya. – Tomsk, 2019. – 176 b.

5. Russell S.J., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. – Pearson, 2020.

6. Xoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2003. – 304 b

Zulfiya ALIMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALAR O‘QUV JARAYONINI FAOLLASHTIRISHDA INTERFAOL METODLARNI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘quv jarayonini faollashtirishda interfaol metodlarning mazmuni, ahamiyati, ularning samaradorlik omillari hamda ta’lim jarayoniga tadbiq etish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Interfaol metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yetakchi o‘rin tutishi ta’kidlanadi.

Tayanch so‘zlar. Interfaol metodlar, interfaol usullar, mustaqil o‘qish, o‘quv faoliyati, pedagogik texnologiya, o‘yinli metodlar

В статье на научной основе анализируются содержание и значение интерактивных методов в активизации учебного процесса студентов в системе высшего образования, факторы их эффективности и механизмы внедрения в образовательный процесс. Подчеркивается ведущая роль интерактивных методов в развитии самостоятельного мышления, коммуникативных навыков и навыков решения проблем у студентов.

Ключевые слова. Интерактивные методы, интерактивные методы, самостоятельное обучение, учебная деятельность, педагогические технологии, игровые методы

This article analyzes the content and importance of interactive methods in activating the learning process of students in the higher education system, their effectiveness factors, and mechanisms for their implementation in the educational process on a scientific basis. It is emphasized that interactive methods play a leading role in developing students’ independent thinking, communication, and problem-solving skills.

Key words. Interactive methods, interactive methods, independent learning, learning activities, pedagogical technology, game methods

Globallashuv jarayonida oliy ta’lim tizimidan innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, kompetensiyaga ega mutaxassislar tayyorlash talab etilmoqda. Bunday vazifani amalga oshirishda an’anaviy o‘qitish metodlari yetarli bo‘lmay, talabaning faol ishtirokini ta’minlaydigan interfaol metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Tadqiqotchilar ta’lim jarayonida interfaol metodlar qo‘llanilganda talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi keskin ortishini ta’kidlaydi.

Interfaol metodlarning nazariy asoslari. Interfaol metod – bu o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro hamkorlikda faol muloqot qilishi, bilimlarni mustaqil izlab topishi va ulardan amalda foydalanishiga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi hisoblanadi.

Interfaol metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– o‘quvchi-faollik tamoyili – talaba jarayonning asosiy ishtirokchisiga aylanadi;

– hamkorlikda o‘qitish – kichik guruhlarda ishlash, fikr almashish;

– muammoli ta’lim – real vaziyatlar asosida yechim yaratish;

– mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish – yangi g‘oyalar, qarorlar ishlab chiqish.

Bu metodlar konstruktivizm tamoyillariga asoslanadi, ya’ni talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish jarayonida o‘zlashtiradi.

Oliy ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlar quyidagilardir:

1. “Aqliy hujum” metodi

Talabalarning birgalikda fikr yaratuvchanligini rivojlantiradi. Keng ko‘lamdagi g‘oyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

“Aqliy hujum” metodining samaradorligi

Bu metod talabani tez fikrlashga, erkin javob berishga va g‘oya yaratishga undaydi.

Afzalliklari:

* tasavvur kengayadi;
* javob berishga psixologik to‘siq kamayadi;
* guruhiy fikrlash rivojlanadi;
* nutq faolligi oshadi.

Masalan, mavzu: “Qishda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?”

O‘qituvchi savol beradi, talabalar navbat bilan javob aytadi. Javoblar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri baholanmaydi – asosiy maqsad g‘oya oqimini yaratish.

2. “Debat” va “Bahs-munozara” metodi

Talabalarni turli nuqtayi nazarlarni asoslab berishga o‘rgatadi. Tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

“Debat”, “Munozara” metodlarining roli

Bahs-munozara talabalarning tanqidiy fikrlash, fikrni asoslash, dalil keltirish, auditoriya oldida so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kredit-modul tizimida talaba semestr davomida bir necha marotaba bahs-munozara navbatidan o‘tadi.

Masalan:

“Pedagogik psixologiya” modulida “Qattiq nazorat – intizom garovi yoki stress manbaimi?” mavzusida ikki guruh o‘rtasida debat o‘tkaziladi.

Debat metodida esa talabalar o‘z fikrlarini mantiqan himoya qilishni o‘rganadilar. F.Hasanboyev tadqiqotlariga ko‘ra, interfaol metodlar qo‘llanilgan guruhlarda bilim o‘zlashtirish 20-30 foiz yuqori bo‘lgan.

3. “Klaster” metodi

Axborotni tizimlashtirish va guruhlarga ajratish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ma’lum bir tushuncha atrofida g‘oyalar xaritasi tuziladi. Masalan: “Mevalar”, “Hayvonlar”, “Transport”. Bu usul mantiqiy bog‘lanishlarni shakllantiradi.

“Klaster” metodining samaradorligi:

“Klaster” – mavzu atrofidagi tushunchalarni rasm, belgilar yoki so‘zlar orqali tizimlashtirish usuli.

Afzalliklari:

* mavhum tushunchalarni ko‘rgazmali qiladi;
* bolalarning fikrlash jarayonini faollashtiradi;
* ranglar, shakllar orqali eslab qolish osonlashadi.

Masalan, “Mevalar” mavzusi uchun klaster yaratiladi:

o‘rtaga “Mevalar” yoziladi, atrofga olmaga tegishli rasm, banan, uzum va boshqalar chiziladi.

Bu metod 4-7 yoshli bolalar uchun juda mos.

4. Loyiha metodi

Talabalar guruh bo‘lib real loyiha yaratadi, natija esa baholashga asos bo‘ladi. Bu metod oliy ta’limda eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Loyiha metodining samaradorligi.

Loyiha metodi maktabgacha ta’limda qisqa muddatli, vizual, o‘yin shakliga moslashtirilgan bo‘ladi.

Masalan: “Quyosh tizimi maketi”, “Sabzavotlar bog‘i”, “Tabiatni asraymiz” kabi mini-loyihalar.

Afzalliklari:

* mustaqillikni rivojlantiradi;
* mantiqiy fikrlash va kuzatish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
* ota-onaning ta’lim jarayoniga jalb etilishini kuchaytiradi.

5. Interfaol texnologiyalar

Raqamli ta’lim vositalari bolalar uchun juda jozibali. Interfaol doska, AR/VR o‘yinlar, ta’limiy ilovalar bolaning:

* e’tiborini oshiradi,
* axborotni qabul qilishni osonlashtiradi,
* sensor-motor koordinatsiyani rivojlantiradi.

Misol:

“Hayvonni ovozi bilan top”, “Fasllar”, “Matematik konstruktor” dasturlari.

Interfaol metodlarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati.

Interfaol metodlar talabalarning:

* bilimlarni chuqur o‘zlashtirishini,
* mustaqil fikrlash darajasini,
* muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini,
* ijodkorlik va tashabbuskorlik sifatlarini,
* muammoga yechim topish qobiliyatini kuchaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilganda talabaning materialni eslab qolish darajasi 80 foizgacha yetadi, an’anaviy ma’ruzalarda esa bu ko‘rsatkich 20–30 foizdan oshmaydi.

Interfaol metodlarni tadbiq etishda uchraydigan muammolar.

Oliy ta’lim muassasalarida interfaol metodlardan foydalanishda quyidagi qiyinchiliklar kuzatiladi:

* O‘qituvchilarning pedagogik texnologiyalar bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi;
* Guruhning katta bo‘lishi natijasida har bir talabani jalb qilish qiyinligi;
* Texnik vositalar yetishmasligi;
* Talabalarning passiv pozitsiyasi;
* O‘quv dasturlarining ortiqcha yuklamaliligi.

Shu sababli metodlarni bosqichma-bosqich, rejalashtirilgan holda joriy etish zarur.

4.1. “Kichik guruhlarda ishlash”

Bolalar 3–4 nafardan iborat kichik guruhlarda topshiriq bajaradi. Bu metod

* liderlik;
* muloqot;
* mas’uliyat;
* muammoni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4.2. STEAM metodlari

Zamonaviy maktabgacha ta’limda STEAM – fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlari uyg‘unlashtirilgan faoliyatlar qo‘llanilmoqda.

Masalan:

* qurilish konstruktorlari bilan ishlash,
* oddiy tajribalar,
* ranglar va shakllarni aralashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlar.

Bu bolaning mantiqiy fikrlashi va muammo yechish malakasini rivojlantiradi.

5. Interfaol metodlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi

Interfaol metodlarni integratsiya qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: tayyorlov

Pedagog o‘quv materialini yoshga mos tanlaydi, o‘yin jihozlari, tasviriy materiallar, texnik vositalarni tayyorlaydi.

2-bosqich: jarayon

Bolalar faol ishtirok etadi:

* savol-javob
* o‘yin
* tajribalar
* sahnalashtirish
* jamoaviy loyihalar

3-bosqich: tahlil va mustahkamlash

Bolalar bilan dars yakunida suhbat:

“Bugun nimalarni o‘rganding?”, “Nima qiziq bo‘ldi?”, “Nimani takrorlamoqchisiz?”

Bu bosqich Vigotskiy ta’kidlagan reflektiv fikrlashni shakllantiradi.

6. Maktabgacha ta’limda pedagogning roli

Interfaol metodlar samaradorligi ko‘proq pedagogning:

* kommunikativ mahorati;
* bolalar bilan ishlash madaniyati;
* kuzatuvchanligi;
* kreativligiga bog‘liq. Tarbiyachi darsda faollashtiruvchi, rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi.

7. Maktabgacha ta’limda interfaol metodlarni qo‘llashning amaliy misollari

1. “Tabiatni o‘rganamiz” kichik loyihasi

Bolalar guruhlarga bo‘linadi, har biri o‘z mavzusi bo‘yicha rasm chizadi, tabiat namunalarini kuzatadi, topilmalarni taqdim qiladi.

2. “Mehmonnavozlik” rolli o‘yin

Bolalarda muloqot ko‘nikmalari, nutq, ijtimoiy madaniyat rivojlanadi.

3. Raqamli interfaol doskalar

Rang, shakl, son, harf, hayvon, transport kabi mavzular bo‘yicha interfaol topshiriqlar.

Axborot texnologiyalariga integratsiya.

Zamonaviy o‘quv jarayonida multimedia, online testlar, virtual simulyatsiyalar interfaol metodlar bilan birgalikda qo‘llaniladi.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kredit-modul tizimida talabaning bilish faoliyatini faollashtirish o‘qitish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Interfaol metodlar talabalarda mustaqil fikrlashni, tahlil qilishni, muloqotga kirishishni, jamoada ishlashni, muammolarni hal etishni o‘rgatadi. Ularning qo‘llanilishi o‘quv jarayonini jonlantiradi, talabaning sub’ekt sifatidagi mavqeini kuchaytiradi va ta’lim sifatini oshiradi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi interfaol metodlardan samarali foydalanish bo‘yicha o‘z malakasini oshirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyev F. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent, 2021.

2. Jalolov J., Yo‘ldosheva D. Oliy ta’limda zamonaviy o‘qitish metodlari. – Samarqand, 2020.

3. Nishonova Z. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2018.

4. Osborn A. Applied Imagination. – New York: Scribner’s, 1953.

Shahlo MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

PEDAGOGIKA NAZARIYASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONI VA DASTURIY TA’MINOTLAR

Annotatsiya

Maqolada pedagogika nazariyasida foydalanilayotgan raqamli texnalogiyalarning turlari ular bilan ishlash jaroyonidagi qulayliklar bilan bir qatorda vujudga kelayotgan muommolar bu muammolarning amoliyotdagi salbiy natijalar, ularga barham berishda nimalarga e’tibor qaratilishi kerak ekanligi haqidagi bir qator fikrlar atroflicha o‘rganilib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Konstruktivizm, zamonaviy pedagogik model, “an’anaviy” o‘qituvchi, “copy-paste” madaniyatining kengayishi, raqamli ta’lim, raqamli savodxonlik.

В данной статье подробно рассматриваются виды цифровых технологий, используемых в педагогической теории, удобства работы с ними, возникающие проблемы, негативные последствия этих проблем на практике и ряд идей о том, на что следует обращать внимание при их устранении.

Ключевые слова. Конструктивизм, современная педагогическая модель, традиционный учитель, расширение культуры “копирования-вставки”, цифровое образование, цифровая грамотность.

This article examines in detail the types of digital technologies used in pedagogical theory, the conveniences of working with them, the problems that arise, the negative consequences of these problems in practice, and a number of ideas about what should be paid attention to in eliminating them.

Key words. Constructivism, modern pedagogical model, “traditional” teacher, expansion of “copy-paste” culture, digital education, digital literacy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel PQ2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida quyidagi fikrlarni ilgari surgan holda oliy ta’limda raqamli texnalogiyalarni joriy etish yuzasidan ilk ishlarni amalga oshirishga “start” beradi: “O‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish asosida yanada takomillashtirish bu bizning oliy maqsadimiz bo‘lmog‘i darkor.”

Axborot telekommunikatsiya texnologiyalarining keng tizimiga ega global axborot hamjamiyati allaqachon shakllangan va inson hayotiga kirib kelgan. Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalarida qo‘llaniladi, jamiyatdagi axborot oqimlari orqali tarqaladi va global raqamlashtirilgan makonini tashkil qiladi. Bugungi kunda ular dunyoda keng tarqalmoqda, chunki jamiyatimiz yangilangan axborotni talab etadi. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu jarayonning markaziy qismi ta’limni raqamlashtirishdir. Bugungi kunda ta’lim jarayonlarini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitishning pedagogik usullarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida – fanlar bo‘yicha ta’lim resurslarini va topshiriqlarni joylashtirish, talabalar bilimini nazorat qilish, o‘qituvchi bilan fikr almashishnishni tashkil

etishga yordam beradigan tegishli vositalarni o‘zida mujassamlashtirgan ta’limni boshqarish LMS (Learning Management System) tizimlarini joriy qilinmoqda. Coursera, Udacity, FutureLearn, Udemy kabi platformalarga bo‘lgan qiziqishning ortishi yurtimizda ham oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish uchun mo‘ljallangan “HEMIS” milliy axborot tizimining yaratishga olib kelmoqda va oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabalari ushbu tizimdan foydalanish imkoniyatini yaratilmoqda. AKTdan turli sohalarda keng qo‘llanila borayotgani bilan bog‘liq vaziyat davlatdan ushbu yo‘nalishda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni talab qildi.

Jahon darajasiga moslashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6079-son qarori qabul qilindi. Strategiya ikkita dasturni tasdiqlashni nazarda tutadi: hududlarni raqamlashtirish va sohalarni raqamlashtirish. Shunday qilib, ikkita yondashuv taqdim etiladi - hududiy va tarmoq. Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim sharti aholining raqamli savodxonligini oshirishni ta’minlashdan iborat. Hujjatga ko‘ra, oliy ta’lim o‘qitish tizimining barcha bosqichlarida raqamli ta’limni joriy etish, IT-ta’limni rivojlantirish va hokazolar orqali aholi o‘rtasida raqamli ko‘nikmalar mavjudligini ta’minlash rejalashtirilgan.

Raqamli pedagogika aynan nima? Bu savolga javob berish orqali biz terminologik chalkashliklarga yo‘l qo‘ymaslik, pedagogik tadqiqotlarni uslubiy jihatdan malakali olib borish, maqsad va vazifalarni to‘g‘ri shakllantirish, qanday natijaga erishmoqchi ekanligimizni aniq tushunib olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni raqamlashtirish orqali zamonaviy texnik vositalarning yagona transformatsiyasidir. Raqamli pedagogika ta’limning nazariy va amaliy muammolarini, ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim xizmatlarini samarali taqdim etishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni o‘rganadi.

Darhaqiqat, axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi tufayli ta’lim sohasida yangi holat yuzaga keldi. Bunday vaziyatda ko‘p qirrali pedagogik merosning saqlanishi kuzatiladi, ammo u amaliy pedagogik faoliyat modeli bilan bog‘liq quyidagi yangi imkoniyatlar bilan to‘ldiriladi:

1. O‘quv materiallarini oliy ta’lim muassasalarida qo‘llab-quvvatlash tizimlarida yoki o‘qituvchining shaxsiy veb-saytida joylashtirish.

2. Materiallarni elektron pochta va maxsus aloqa tarmoqlari orqali tarqatish.

3. Yuqorida qayd etilgan o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan foydalangan holda testlar yaratish bo‘yicha maxsus dasturiy ta’minot va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda nazorat faoliyatini amalga oshirish.

4. Elektron pochta, ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali o‘qituvchi bilan talabalarning fikr almashinuvini amalga oshirish.

5. Fanning o‘quv rejasiga xorijiy va milliy ta’lim platformalaridan taniqli universitetlarning ommaviy ochiq onlayn kurslarini kiritish, yakuniy nazorat sifatida test sinovlaridan o‘tish va sertifikat olish yoki kurs uchun qo‘shimcha material sifatida ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish.

6. O‘quv mashg‘ulotlari va qo‘shimcha maslahatlar sifatida talabalar bilan onlayn ma’ruzalar yoki onlayn seminarlar o‘tkazish uchun veb-seminarlar va videokonferensiyalardan foydalanish, taniqli professor-o‘qituvchilarning nutqlaridan takroriy foydalanish uchun yozib olish, talabalar bilan masofadan turib ishlash; xorijda stajirovka o‘tash yoki boshqa universitetlarda qo‘shimcha diplom dasturlari bo‘yicha o‘qish.

7. Maxsus tayyorlangan (pedagogik jihatdan moslashtirilgan) hamda tarmoqdagi audio va video materiallardan foydalanish.

8. Kurs uchun taqdimot materiallarini yaratishda turli dasturlardan foydalanish;

9. Elektron kutubxonalar, ma’lumotlar bazalari, ilmiy jurnallarga o‘quv maqsadlarida foydalanish maqsadida tarmoqqa kirish imkoniyati.

10. O‘quv adabiyotlarining raqamli nusxalaridan, maxsus tayyorlangan elektron darsliklardan foydalanish.

Raqamli ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini va aralash modelni (masofaviy ta’lim texnologiyalari, elektron ta’lim elementlari va raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan holda) hisobga olgan holda o‘qitish tajribasiga asoslanib, biz raqamli ta’lim o‘qituvchisi uchun bir qator talablarni ta’kidlaymiz:

– doimiy ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyati;

– kasbiy va fan kompetensiyasi (o‘qitilayotgan kursni bilish, qo‘shimcha ma’lumotlar manbalari, fan bo‘yicha yangi ma’lumotlarni “kuzatish” va boshqalar). Bu talab yaqqol ko‘rinadi, chunki o‘z fanini bilish o‘qitishning zaruriy shartidir.

– AKT kompetensiyasi (ofis dasturlari to‘plamida ravonlik, Internetda ishlash va o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish uchun Internet muhiti imkoniyatlaridan foydalanish, elektron ta’lim resurslarini va pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqish malakasi va boshqalar).

– aralash ta’limga xos bo‘lgan o‘quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarini qo‘llash qobiliyati.

– pedagogik faoliyatning har xil turlarini amalga oshirish qobiliyati (diagnostika, o‘z va o‘quvchilarning maqsadlariga alohida e’tibor qaratgan holda o‘qitishni loyihalash, faoliyatni tashkil etishning turli usullari orqali o‘quvchilarni ta’lim faoliyatiga rag’batlantirish, o‘zaro aloqalarni boshqarish, o‘quv jarayonini tashkil etish; refleksiya, aloqa, nazorat).

– interfaol mashqlar, elektron kurslar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yaratish usullarini bilish.

– rivojlangan intellekt, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga doimiy intilish.

– maksimal pedagogik natijalarga erishish uchun texnologik, tashkiliy, didaktik, uslubiy, psixologik va axborot-kommunikatsiya imkoniyatlarini ko‘rish qobiliyati.

Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogika oldida turgan vazifalar hajmining ortib borishi pedagogik tadqiqotchilardan ham, pedagogik amaliyotchilardan ham jiddiy harakatlarni talab qiladi. Bu borada V.V. Grinshkun o‘z qarashlarini aniq ifodalaydi: “Ta’limni axborotlashtirishga mutanosib va asosli yondashuvlarni izlash zarur, bunda axborotlashtirishning o‘zini yakuniy maqsad deb hisoblab bo‘lmaydi, balki kursantlarni o‘qitish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga yo‘naltirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

2. Ostanaqulov X.M. Ta’limda onlayn kurslar va o‘quv platformalarining roli va ularning pedagogik samaradorligi. – Andijon Mashinasozlik Instituti, 2025. – B. 70-73.

3. Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. – Buxoro: BuxDU, 2022. – 5-80 b.

4. Berdiyev J.Q. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Qarshi: QMII, 2023. – 250-252 b.

Rasulbek DAVLETOV,
Xorazm viloyati, Pedagogik mahorat Markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchi

DARS JARAYONIDA O‘YINGA ASOSLANGAN “KAHOOT” O‘QUV PLATFORMASIDAN FOYDALANIB TEST TUZISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida Kahoot dasturiy ta’lim vositasidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Kahoot interaktiv viktorinalar va so‘rovlar orqali talabalarning bilimini baholash, ularning qiziqishini oshirish va faol o‘qish jarayonini ta’minlashga xizmat qilishi va Kahootning oliy ta’limda qo‘llanilishi, pedagogik samaradorligi va talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kahoot, interaktiv ta’lim, pedagogik texnologiyalar, talabalarning kompetensiyasi, bilimni baholash.

В статье анализируются возможности использования программного образовательного инструмента Kahoot в образовательном процессе. Кроме того, Kahoot служит для оценки знаний студентов посредством интерактивных викторин и опросов, повышения их интереса и обеспечения активного учебного процесса, а также освещается применение Kahoot в высшем образовании, педагогическая эффективность и дидактические возможности в развитии знаний, умений и компетенций студентов.

Ключевые слова. Kahoot, интерактивное образование, педагогические технологии, компетенции студентов, оценка знаний.


The article analyzes the possibilities of using the Kahoot software tool in the educational process. Also, Kahoot serves to assess students’ knowledge through interactive quizzes and surveys, increase their interest and ensure an active learning process, and the application of Kahoot in higher education, pedagogical effectiveness, and didactic possibilities in the development of students’ knowledge, skills, and competencies are highlighted.

Key words. Kahoot, interactive education, pedagogical technologies, student competencies, knowledge assessment.

Kahoot o‘yinga asoslangan o‘quv platformasi bo‘lib, maktablar va boshqa ta’lim muassasalarida ta’lim texnologiyasi sifatida foydalanish mumkin. Uning o‘quv o‘yinlari “kahoot.com” foydalanuvchi tomonidan yaratilgan ko‘p tanlovli viktorinalar bo‘lib, ularga veb-brauzer yoki Kahoot ilovasi orqali kirish mumkin. O‘quvchilar bilimini tekshirish, formativ baholash, o‘quvchilar o‘rtasida viktorinalar o‘tkazishda foydalaniladi. Test (ing. Test-sinash, tekshirish) (psixologiyada)-shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatlari, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qo‘llaniladigan qisqa mashqlar hisoblanadi. Amaliyotda test odamning qanday kasb hunar egallashi mumkinligi, uning kasbga layoqati yoki layoqatsizligini, iste’dodli yoki aqli zaifligini aniqlashda, muayyan hamkorlikdagi faoliyatga shaxslarni saralashda keng qo‘llaniladi. Uning yordamida tajribaning ilmiylik darajasi, kafolatligi, tekshiruvlarning mahorati, qiziqishi, to‘plangan amaliy ma’lumotlarning haqqoniyligi, ishonchlilik ko‘rsatkichi bir necha mezonlarga asoslanib tahlil qilinadi. Ushbu platforma istalgan mavzuda va istalgan tilda topshiriqlaringizni tuzish imkonini beradi, yoki ilovaning boshqa foydalanuvchilari tomonidan ilgari yaratilgan ko‘plab vazifalarni o‘z ichiga olgan kutubxonada tayyor tematik test yoki so‘rovni tanlashingiz mumkin.

O‘qituvchi auditoriyadagi talabalarni platformaga to‘liq kirib bo‘lganini tekshirgandan so‘ng keyin “START” tugmasini bosib testni ishlashga ruhsat beradi. Talabalar test ishlab bo‘lgandan keyin qancha ball olganliklari va guruh bo‘yicha nechanchi o‘rinda turganliklarini ko‘rib turadi. Har bir mavzu bo‘yicha talabalarni testdan olgan ballari platformada saqlanib turadi. Semestr oxirida esa talabalar fanni necha foizga o‘zlashtirganini ham bilib olish mumkin. Albatta talabalar test jarayonida qatnashishi uchun internet, noutbuk yoki internetni qo‘llab quvvatlaydigan telefonlari kerak bo‘ladi. Dars jarayonlarida bunday platformalardan foydalanilsa talabalarni darsga bo‘lgan qiziqishlari ortib boradi. Testdan yuqori ball olay degan umidda mavzuni o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratadi.

Kahoot platformaning inkoniyatlari o‘quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishdagi afzalliklari ta‘kidlanadi.







“Kahoot.com” sayti

Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan.









Kahoot-onlayn testlar va so‘rovlar yaratish imkonini beradi. Masalan:

Kahoot xizmati bilan ishlashga tayyorgarlik va tashkil etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Testlarni turli ko‘rinishlari mavjud. Bularga:

– mavzuni aniqlash;
– test uchun mos savollarni o‘ylab ko‘rish va yozish;
– testga qo‘shiladigan rasmlarni tanlash;
– test yaratish.

Maxsus kod yordamida o‘quvchilarni testga ulash mumkin. Bundan tashqari

matnga qo‘shimcha ravishda Kahoot rasmlar, grafiklar, jadvallar shuningdek, audio va video kontentni yuklash imkoni mavjuddir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham bunday rasmli testlarni tezkorlik bilan bajarish imkonini beradi. Test ishlash jarayonida o‘quvchilar fikrlashi qobilyatlari qanday ekanligini aniqlash oson bo‘ladi.

An’anaviy o‘qitish usullari hozirgi o‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyani yo‘qotadi. Shu munosabat bilan ta‘lim tizimi zamonaviy talablarga moslashishi, axborot texnologiyalari yutuqlarini hisobga olgan holda o‘qitishning faol usullaridan foydalangan holda yangi o‘qitish usullarini shakllantirishi va rivojlantirishi zarur. Ta’lim jarayoniga o‘yin usullarini joriy etish amaliy malakalarni, fikrlash va mantiqni rivojlantiradi, shuningdek, materialni o‘rganish samaradorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, o‘yin elementlari o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga jalb qilish darajasini oshiradi. Internet resurslari va o‘quvchilar smartfonlari yordamida samarali interaktiv ta’lim muhitini tashkil etish mumkin. Shunday manbalardan biri Kahoot.com hisoblanadi. Kahoot bilan ishlash uchun siz Internetga ulangan shaxsiy kompyuter, noutbuk, planshet yoki smartfondan foydalanishingiz mumkin.

O‘quvchilar savollarga Internetga ulangan istalgan qurilmadan javob berishlari mumkin. Ushbu resursning ajoyib afzalligi natijalarni saqlab qo‘yishidir. Shunda kelajakda o‘qituvchi kelgusi o‘quv yili uchun o‘quv materialining mazmunini tahlil qilishi va qayta ko‘rib chiqishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar uchun qaysi mavzularni o‘rganishda qiyinchilik tug‘dirishini aniqlash mumkin. O‘rganilayotgan material yuzasidan bilimlarni sinab ko‘rish uchun turli interaktiv testlar va so‘rovlardan foydalanib, o‘quv jarayonini hayajonli va qiziqarli ko‘rinishda amalga oshirish mumkin. Viktorina yaratish bir necha daqiqa davom etadi va jarayonning o‘zi juda oddiy va hech qanday qiyinchilik bo‘lmaydi. Viktorina tayyor bo‘lishi bilan o‘qituvchi o‘yinni joylashtiradi va uni o‘quvchilarga tarqatadi. Bunda ishtirokchilar bitta ekran oldiga yig‘ilishadi va o‘yin kodidan foydalanib o‘z qurilmalarini o‘yin orqali boshlaydi. Savollarga javoblarning to‘g‘riligi tezkorlik bilan ballarga aylantiriladi va to‘plagan ballar ko‘rsatib boriladi. Har bir savoldan keyin ekranda eng ko‘p ball to‘plaganlarning ismlari ko‘rinib turadi. O‘qituvchi istalgan vaqtda to‘xtatishi va agar o‘quvchilar javob berishga qiynalsa savolga izoh berishi mumkin bo‘ladi. Kahoot mavzularni mustahkamlash ushun bilimlarni sinab ko‘rish va mustahkamlash bilan birga yangi mavzuni kiritish va bu bo‘yicha muhokamalarni amalga oshirish uchun qulay vositadir. Ushbu platforma istalgan mavzuda va istalgan tilda topshiriqlaringizni tuzish imkonini beradi, yoki ilovaning boshqa foydalanuvchilari tomonidan ilgari yaratilgan ko‘plab vazifalarni o‘z ichiga olgan kutubxonada tayyor test yoki so‘rovni tanlashingiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, Kahoot dasturiy ta’lim vositasi talabalarning bilimini baholash va ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishda samarali ekanligi aniqlandi. Kahoot interaktiv viktorinalar va so‘rovlar orqali talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kahoot! AS. Kahoot Teacher Guide. – Norway, 2020. – 1–48 p.

2. Wang A.I. The Wear Out Effect of a Game-Based Student Response System // Computers & Education. – 2015. – P. 45–60.

3. Raximov A., Xodjayev B. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent, 2021. – B. 41–49.

4. Sarev R.Yu. Primeneniye Kahoot! pri geymifikatsii v obrazovanii // International Journal of Advanced Studies. – 2017. – № 1. – S. 9–17.

Elsuyar SHAMSUVALIYEVA,
Toshkent shahridagi ADJU universiteti (Koreya Respublikasi), v.v.b. dotsent

OLIY TA’LIMDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION-MADANIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, xususan, talabalarda turli kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, chet tilini o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llash, muloqot jarayonida uchraydigan psixologik, lingvistik va metodik qiyinchiliklarni bartaraf etish masalalari tahlil qilingan. Muallif kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, turlari, uning metodologik talqinlari bo‘yicha ilmiy qarashlar, xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari asosida yoritib bergan.

Tayanch so‘zlar. Kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar, integrativ yondashuv, pedagogik kompetentlik, til ko‘nikmalari, nutq madaniyati, motivatsiya, , xalqaro standartlar.

В статье освещается значение компетентностного подхода в системе высшего образования, в частности, теоретические основы и практические аспекты развития различных компетенций у студентов. Также проанализированы вопросы использования инновационных образовательных технологий, применения интегративного подхода в обучении иностранному языку, преодоления психологических, лингвистических и методических трудностей, возникающих в процессе общения. Автор осветил содержание, виды коммуникативной компетенции, ее методологические интерпретации на основе научных взглядов, мнений зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, компетентностный подход, инновационные педагогические технологии, интегративный подход, педагогическая компетентность, языковые навыки, культура речи, мотивация, международные стандарты.

The article highlights the importance of the competency-based approach in the higher education system, in particular, the theoretical foundations and practical aspects of developing various competencies in students. Also analyzed are the issues of using innovative educational technologies, applying an integrative approach to teaching a foreign language, and overcoming psychological, linguistic, and methodological difficulties encountered in the communication process. The author highlights the content, types of communicative competence, scientific views on its methodological interpretations, based on the opinions of foreign and domestic scientists.

Key words. Communicative competence, competency-based approach, innovative pedagogical technologies, integrative approach, pedagogical competence, language skills, speech culture, motivation, international standards.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti o‘quv fanlari, bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarida ta’lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilganligini ta’minlashi lozimligiga alohida ahamiyat berilgan. Albatta, ushbu qo‘yilgan talablar oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya jarayonini yuqori darajaga ko‘tarish, o‘qitishni yangi metodlar asosida amalga oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish va bilim darajasini oshirish kabi vazifalar kasbiy mahorat orqali sifatli darajada bajarishini taqozo etadi. Shuning bilan bir qatorda talabalarni tayyorlashda ularning pedagogik kompetentligi va kreativligini rivojlantirishga innovatsion yondashish, zamonaviy axborot-texnologi-

yalaridan foydalanish ustuvor bo‘lmoqda. Biz olib borgan tadqiqotning maqsadi ham talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish mazmuni, shakl va metodlarini aniqlash va tajriba-sinov ishlari orqali ularni amaliyotga keng tatbiq etishdan iboratdir.

Hozirgi zamon innovatori nafaqat biror soha mutaxassisi sifatida, balki chet tillarini va axborot texnologiyalarini ham yaxshi biladigan, dunyoqarashi va bilimi keng inson sifatida shakllanmog‘i kerak. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori ta’lim sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, har tomonlama barkamol zamonaviy shaxsni tarbiyalashga qaratilgan va yoshlarni ta’lim sohasida amalga oshirayotgan islohotlarining faol ishtirokchisiga aylantirish va bo‘lajak chet (ingliz) tili o‘qituvchilarining ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlanish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta’limni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, ingliz tili o‘qituvchisi professionalligini aniqlashdan iborat.

Rivojlanishning hozirgi sifat jarayonida ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzluksizlik va uzviylikni mazmuniy ta’minlangan o‘quv dasturlari, darsliklar va metodik uslubiy qo‘llanmalar yaratilmoqda. Talabalarga fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’limning samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlarning samarasi o‘laroq ta’lim jarayoniga eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKT texnologiyalari joriy etilib, o‘qitish uslubi tubdan o‘zgartirildi, ta’lim subyekti (o‘qituvchi va talabalar)ni faollashtirishga, mustaqil, ijodiy fikrlashga undaydigan innovatsion texnologiyalar kiritildi.

Shuni ta’kidlash zarurki, bugungi kunda barcha fanlarni o‘qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tadbiq etilmoqda. Endilikda talabalarga fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar berishning o‘zi yetarli emasligi, balki hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo‘llash malakasini shakllantirib borish kerakligi ayon bo‘lib qoldi. Oliy ta’lim muassasasidagi ta’limning o‘ziga xos jihati kommunikativ kompetentsiyaning yuqori darajasiga ega bo‘lgan raqobatbardosh pedagoglar tayyorlashdan iboratdir. Innovatsion texnologiyalarni bilish va undan foydalanish zamonaviy talabalarga talabning mavjudligidagi muhim shartlardan biridir. Kompetensiyaviy yondashuv orqali ta’lim egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, ta’limda innovatsion texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Rus tilining izohli lug‘atida “kompetensiya” terminining (lot. Competens-muvofiqlik, bir o‘lchamlilik) ikki ma’nosi keltiriladi: qandaydir organ va mansabdor shaxsning vakolatlari doirasi; mazkur shaxs bilim, tajribaga ega bo‘lgan masalalar doirasi.

I.A.Zimnyayaning qayd qilishicha, XX asrning 60-yillarida kompetensiya (so‘zlovchi-tinlovchi o‘z tilini bilishi) bilan uning qo‘llanishi o‘rtasida fundamental tafovut borligini: faqat ideallashtirilgan holatda qo‘llanish kompetensiyaning bevosita aksi bo‘la olishini ta’kidlagan. I.A.Zimnyaya kompetensiyani subyektlar shaxsiy faoliyatining qadriyatli-mazmunli, xulq-atvorga oid, motivatsiyali, hissiy-irodaviy, kognitiv natijalarini yaratishga ko‘maklashadigan yangi tuzilmalar: bilim, qadriyatlar, munosabatlar va shu kabilar tizimi sifatida talqin qiladi. Egallangan kompetensiyalar insonning kompetentliklarida

namoyon bo‘ladi. Kompetentlikni u insonning dolzarb, shakllantiriladigan, bilimlarga asoslangan, intellektual va shaxsiy belgilangan ijtimoiy-kasbiy xarakteristikasi, uning shaxsiy sifati tarzida baholaydi.

Ch.Velde ta’kidlashicha, kompetensiya shaxsiy toifa sifatida ko‘rib chiqila boshlanganida kompetensiyalar o‘quv dasturining birliklariga aylandi va kompetensiyaning “anatomiyasi” ni shakllantiradi degan nazariyani ilgari surgan. “Kompetensiya” - bu yuqori sifatli samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan obyektlar va jarayonlarning ma’lum bir doirasiga nisbatan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxs fazilatlari (bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar, faoliyat usullari) yig‘indisi ekanligini ta’kidlashimiz mumkin. O‘z navbatida, “kompetentlik” - bu “shaxsning tegishli qobiliyatlarga ega bo‘lishi, shu jumladan uning unga bo‘lgan shaxsiy munosabati va faoliyat predmeti” deb ta’kidlagan. Ushbu talqin bizga ushbu tushunchalar o‘rtasida aniq munosabatni o‘rnatishga imkon beradi: “kompetensiya - bu oldindan belgilangan talab, kompetentlik – allaqachon o‘rnatilgan shaxsiy sifat”.

A.T.Nurmanov talabalarning samarali muloqot yuritishida nazariy, personologik, texnologik, individual, tabaqalashtirilgan, emotsional, ratsional, reproduktiv, produktiv, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni muhim deb hisoblaydi.

Oliy ta’limning bosqichli tizimiga o‘tish ta’limning turli bosqichlarida o‘qituvchi kommunikativ kompetensiya mohiyati, maqsadli va sifat oriyentirlari (mo‘ljallari) ni belgilab bergani sababli zamonaviy sharoitlarda metodologiya ahamiyatiga ega bo‘lgan va uni modernizatsiyalashning jiddiy pedagogik omili sanalayotgan kompetent (kompetensiyaviy) yondashuv qoidalarini dolzarblashtiradi.

Kommunikatsiyalar sohasidagi kompetentlilik umumta’lim kompetentliliklari qatoriga kiradi: kompetensiyalar ro‘yxatini tuzish davomida Yevropa Kengashi ingliz tilini yetarlicha (umumevropa muloqot tili sifatida) egallashni va eng muhim kompetentlar sifatida muloqotni mos holda qurish, aloqalarni olib bora bilish kabilarni ajratib ko‘rsatdi. I.A.Zimnyaya asosiy ijtimoiy kompetensiyalarni ko‘rib chiqa turib, muloqotdagi kompetentlilikni ajratib ko‘rsatadi, unga muloqat qilishning turli shakllarini, shu jumladan, ham ona tilida, ham ingliz tilida kommunikativ masalalarni hal qilish hamda kommunikatsiyani olib borishning subyektli tajribasiga ega bo‘lgan holda kommunikativ jarayonni boshqara olish mahoratini ham kiritadi.

Kompetentli yondashuv zamonaviy ta’limning ko‘p yondashuviga uyg‘un holda birikib ketadi va shaxsga o‘z-o‘zini namoyon qilish, ijtimoiy o‘zaro harakatlar tarzida o‘z shaxsiy potensialini namoyon qilishga imkoniyat beradi.

Kompetentlilik yondashuviga asoslangan holda biz kommunikativ kompetensiyani yakuniy maqsadini belgilaymiz va nutq madaniyatini o‘qitishning aniq natijasiga (mahsuliga) yo‘naltiramiz. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi ingliz tilida muloqot qilishdagi nutq ko‘nikmalarini egallash, shuningdek, filologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini integrative yondashuv asosida o‘qitishning shart-sharoitlari bo‘lib hisoblanadi.

Bu kabi yondashuvda kompetensiya bir tizimga birlashtirilgan bilimlar, malakalar va shaxsiy sifatlarni kommunikativ xatti-harakat samaradorligi va optimal rentabelligi bilan bevosita aloqadorlikda safarbar qilishga oid oliy integral qobiliyat sifatida qaraladi.

Rossiyalik olimlar ishlarida “kommunikativ kompetensiya va kompetentlik” tushunchasi nisbatan keyin paydo bo‘lgan va ko‘proq ma’lum kasbiy sohada faoliyat yuritishga tayyorgarlik tavsifi sifatida qo‘llanadi.

Hozirga qadar olimlar kommunikativ kompetentlikni tavsiflash masalasida bir qarorga kelmaganiga qaramasdan, u ko‘proq mustaqil va mas’uliyat bilan harakatlanish imkonini beradigan qandaydir tayyorgarlik ruhiy holati, insonning ma’lum mehnat funksiyalarini

bajarish qobiliyati va malakalari sifatida mehnat subyektining kommunikativ faoliyat vazifalari va majburiyatlarini bajarishga kommunikativ qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotimiz uchun kommunikativ kompetentlik haqidagi talabalarning pedagogik tayyorgarligining maqsadli vazifalarini tushuntirish uchun ilmiy asos yaratadigan metodologik ahamiyatli tushuncha sifatidagi umumlashma tasavvur ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotidan shuni ko‘rish mumkinki, kommunikativ madaniyatini oshirish va ularda kompetensiya bo‘yicha ilmiy qarashlarni takomillashtirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanib, bunda ta’limning har bir bosqichida shaxsning shakllanishi va rivojlanib borishida innovatsion texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirilishi, va ularni o‘rgatishda fanlarga integratsiyalashtirilgan holda o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘qitishning mazmuni va o‘quv jarayonidagi yangicha yondashuvlar o‘quv jarayonidagi subyektlarning har tomonlama rivojlanishini talab etadi. Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va rivojlanish muammolarini hal qilishda o‘qitishning innovatsion texnologiyalari muhim omil hisoblanib, ularda jadal o‘qitish – ta’lim olayotgan shaxsning fikrlashga doir ishlarini qat’iylik asosida tashkil etishga, mustaqillik, o‘z-o‘zini takomillashtirish va baholash, ijodkorlik kabi qobiliyatlarini ta’minlovchi o‘zaro harakatlarga yo‘naltirilgan jarayondir.

Jamiyatimizning ham shiddat bilan rivojlanishida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan axborotlarning hajmi hamda boshqa bir qancha omillar talabalarni o‘qitishda insonning qobiliyatlaridan maksimal darajada foydalanishni talab qiladi. Muloqot, bilish, axborotni olish va to‘plash vositasida innovatsion ta’lim texnologiyasidan foydalanishning hozirgi zamondagi shart-sharoitlari tahliliy o‘qish, o‘quv axborotlarining ketma-ketligi va mantiqiyligi hamda kommunikativ kompetensiyalarning egallash zaruratini belgilab beradi. O‘qitishning intensiv ta’lim texnologiyalari o‘qitilayotgan shaxsda nafaqat qisqa muddatlarda kompetensiyalarni shakllantirilishiga, balki talabaning ikkinchi tilga oid kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida psixologik muammolarni yengib o‘tishga mo‘ljallangandir.

Oliy ta’lim muassasalari talabalariga kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishda bir qancha qiyinchiliklar aniqlandi, bular quyidagilardan iborat:muloqotga oid qiyinchiliklar, uyalish, qo‘rquv, so‘z boyligining yetarlicha shakllanmaganligi;mazmunga doir qiyinchiliklar, ya’ni olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo‘lishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog‘lanishni ilg‘ab olish, shuningdek, umumiy g‘oyaga taalluqli qiyinchiliklar mavjuddir;nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar. Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audio matnning murakkabligini eslatish kifoya. shu bilan birga, audio matnni bir marta idrok qilish, notanish odamni tinglash, ovozdagi o‘ziga xoslik kabilar ham tushunishda g‘ov bo‘lishi tabiiy;nutq shakliga oid qiyinchiliklar, ya’ni dialogik nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa jumlalarni eshitib xotirasida saqlash talaba uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo‘ladigan qiyinchiliklar lisoniy leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi.

Leksikada juft tushunchalar (masalan, dunyo tomonlarini ifodalovchi so‘zlar, ko‘p ma’nolilik (polisemiya) turg‘un birikmalardagi so‘z ma’nosi, yordamchi so‘zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo‘q hodisalar yoki fonetik tarafdan so‘zning yozuvda va talaffuzda keskin tafovuti, urg‘u va ohangning o‘xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi;audio matn tuzilishiga oid qiyinchiliklar, ya’ni audio matnning tuzilishi (kompozitsion - mazmuniy tuzilishi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg‘ab olishga uning bevosita aloqasi bo‘lib, gapning yoki satr boshining bir-biriga mantiqan yopishishi, matnning yuzaki yoki chuqurligi, notanish

leksik birliklar ishtiroki va qator o‘xshash kompozitsion – mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilishi darajasini belgilovchi omillardir.

Talabaga kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni e’tirof etishdan maqsad, ularning oldini olish choralarini ko‘rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi hamda maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug‘diradi. Qiyinchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish yo‘li bilan ta’lim jarayonini jadallashtirish va o‘qitishning eng maqbul metodikasini ishlab chiqarishga muvaffaq bo‘lishi mumkin.

Ta’lim jarayonida texnologik (tamoyillar, shart-sharoitlar, mazmun, shakl, metod va vositalar) va zahiraviy (mahsuldor faollik, intensiv ishchanlik va boshqalar) imkoniyatlarga nazariy-metodologik ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, amaliyot va tajribalarning ko‘rsatishicha, ta’lim tizimida tobora faol ravishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga ehtiyoj ortib bormoqda. Ingliz tilini o‘rganish davomida talabalarda nutq va muloqotning samaradorligini oshirishda kommunikativ yo‘nalishdagi turli xil ijodiy vazifalarni yechish muhim ahamiyatga ega. Sababi vazifa bilishga, izlanishga va ijodiy yondashishga doir asosdir.

Biroq, oliy ta’lim muassasalarida kompetensiya amaliyoti jarayonida ko‘pincha talabaning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga qaratilgan zamonaviy ta’lim metodlariga emas, balki bir xildagi topshiriqlardan foydalaniladi.

Bu jihatlar o‘z ichiga nafaqat tilning grammatik va tilli tizimni, balki uning muloqot madaniyatini, uning milliy madaniyat, shu jumladan, begona til tuzilishi, uning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari, ona tili bilan o‘xshash hamda farqli tomonlari bilan o‘zaro aloqalarini ham o‘z ichiga oladi. O‘qitishning barcha sanab o‘tilgan texnologiyalari kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish davomida o‘quv-bilish jarayoni samaradorligi va talabalarning kompetensiyalari ortishi muammosini hal qilishga yordam beradi.

Zamonaviy globallashuv va raqamli kommunikatsiya asrida ingliz tili xalqaro ijtimoiy, madaniy, ilmiy va iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasiga aylangan. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nafaqat metodik ehtiyoj, balki ijtimoiy zarurat darajasiga ko‘tarilgan.

Ingliz tilida erkin va mazmunli muloqot qilish – bugungi kunda xalqaro akademik almashuvlar, onlayn ta’lim, xorijiy universitetlarda o‘qish, ishchi bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun muhim shart hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim strategiyalarida (xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan Ta’lim konsepsiyasi) kompetensiyaviy yondashuv asosiy mezon sifatida e’tirof etilgan. Bu yondashuvga ko‘ra, talaba faqat bilimga ega bo‘lishi emas, balki uni amaliyotda qo‘llay olish, muloqotga kirishish, mustaqil fikrlash, ijtimoiy muhitga moslashish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa aynan kommunikativ kompetensiyaning mazmunini tashkil qiladi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida kommunikativ kompetensiya shaxsning nutqiy faoliyatini ijtimoiy, madaniy va diskursiv kontekstda samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Shu boisdan, talabalarda mazkur kompetensiyani rivojlantirish jarayoni integrativ yondashuv asosida olib borilishi ta’lim mazmunini boyitish, nutqiy faoliyatni real kommunikativ muhitga yaqinlashtirish hamda madaniy interaktsiyani faollashtirish imkonini beradi.

Til va madaniyat o‘zaro bog‘liq hodisalar bo‘lib keladi. Shu sababli, ingliz tilini o‘qitishda nutqiy etiket, madaniy konnotatsiyalar va diskursiv muhitni o‘quv jarayoniga kiritish talabalarni til birliklarining orqasidagi madaniy ma’nolarni tushunishga o‘rgatadi. Masalan, “How are you doing?”, “Could I give a question”, “Could, would” kabi ifodalar oddiy grammatik birlik emas, balki ingliz jamiyatining odob, ijtimoiy masofa va muloqot

madaniyati haqidagi tushunchalarini ifodalaydi.

O‘quv jarayonida bunday birliklarni kontekstda tahlil qilish talabalarda madaniy sezgirlikni, ya’ni boshqa millat vakillari bilan muloqotda madaniy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik qobiliyatini shakllantiradi. Shu tariqa, lingvokulturologik ong talabalarda tilni madaniyat bilan bir butun hodisa sifatida idrok etish, uni ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘lash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Masalan, ingliz tilidagi “Could you possibly…?” yoki “Would you mind if…?” kabi ifodalar pragmatik jihatdan muloyimlik, hurmat yoki ijtimoiy masofa ifodasini bildiradi. Talabalarga bu kabi iboralarning pragmatik yukini anglatish ularni muloqotda strategik fikrlovchi, kontekstdan kelib chiqqan holda tilni boshqaruvchi subyektga aylantiradi.

Chet tili o‘qitishda mazmuniy interaktivlik - bu talabalar o‘rtasida faol muloqotni, fikr almashuvni, bahs-munozarali o‘rganishni tashkil etishdir. Bu jarayonni samarali tashkil etishda kross-muloqot lokolizatsiyasi muhim o‘rin tutadi.

Mazmuniy interaktivlikning bunday shakli o‘quv jarayonida madaniyatlararo refleksiyani kuchaytiradi, ya’ni talaba o‘z madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan qiyoslab, tahliliy tafakkur asosida yangi muloqot tajribasini shakllantiradi. Bu jarayon kommunikativ kompetensiyani chuqurlashtiradi va talabani global kommunikativ muhitga tayyorlaydi.

Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi, natijada talabalar nutqiy faoliyatda kognitiv, pragmatik va ijtimoiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu tariqa, tadqiqot doirasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslab, amaliy jihatdan aniqlashtirilgan.

Amaliy jihatdan esa, mazkur natija oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini kontekstual, madaniy va pragmatik asosda rivojlantirish uchun yangi didaktik imkoniyatlar yaratadi.

Global tarmoqlarda, xalqaro korporatsiyalarda, akademik hamjamiyatlarda samarali ishtirok etish uchun inson faqat tilni bilishi emas, balki madaniyatlararo muloqotga tayyor bo‘lishi zarur. Kommunikativ kompetensiya orqali talaba yokida til o‘rganuvchida turli madaniy kontekstlarda muloqot qiladigan tolerant, moslashuvchan va ochiq shaxs sifatida rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori.

2 O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standarti (DTS). Oliy ta’lim to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar.

3. Badelbayeva Y.O. Integrativ yondashuv asosida talabalarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirish: Dissertatsiya. – Toshkent: TDPU, 2024.

5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.

6. Qayumov R., To‘rayeva G. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

7. Turdiyev A. (2022). Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning metodologiyasi.

Rustam ERGASHEV,
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, v.v.b. professor, p.f.n.
Shodiya YOQUBJONOVA
Guliston davlat pedagogika instituti, magistrant

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy metodlari, xususan raqamli san’at, STEAM yondashuvi, muhitga asoslangan o‘qitish modeli, interaktiv madaniy loyihalar va refleksiv pedagogika usullarining ta’siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda so‘rovnoma, kuzatuv, tajriba-sinov ishlari hamda sifat tahlili metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar estetik ta’lim va tarbiyada kreativlik, vizual tafakkur va madaniy savodxonlikni oshirishning samarali vositalari sifatida baholandi.

Tayanch so‘zlar. Estetik madaniyat, kreativ pedagogika, raqamli san’at, STEAM, ijodiy fikrlash.

В статье рассматриваются современные методы формирования эстетической культуры у старшеклассников, включая цифровое искусство, STEAM-подход, обучающие модели, основанные на среде, интерактивные культурные проекты и рефлексивную педагогику. В исследовании использованы анкетирование, наблюдение, эксперимент и качественный анализ. Полученные результаты показывают эффективность данных методов в развитии креативности, визуального мышления и культурной грамотности учащихся.

Ключевые слова. эстетическая культура, креативная педагогика, цифровое искусство, STEAM, творческое мышление.

This article explores modern methods of developing aesthetic culture among high school students, focusing on digital art, the STEAM approach, environment-based learning, interactive cultural projects, and reflective pedagogy. The study employed surveys, observation, experimental trials, and qualitative analysis. The results show that the proposed methods effectively enhance creativity, visual thinking, and cultural literacy in aesthetic education.

Key words. Aesthetic culture, creative pedagogy, digital art, STEAM, creative thinking.

Estetik madaniyat – bu o‘quvchining san’atni anglash, go‘zallikni his qilish, badiiy tafakkur va kreativ ifoda ko‘nikmalarini namoyon etish darajasidir. XXI asr texnologiyalashtirilgan ta’lim muhitida estetik madaniyatning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki o‘quvchilar vizual axborot bilan to‘qnash keladigan global raqamli makonda yashamoqdalar. Yuqori sinf o‘quvchilarining yoshga oid xususiyatlari (abstrakt fikrlash, identitet qidiruvi, kreativ faol bo‘lishga intilish) sababli estetik tarbiyani zamonaviy, innovatsion metodlar asosida tashkil etish talab etiladi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida ta’lim tizimi jahon pedagogik tajribasi bilan hamohang holda izchil modernizatsiya qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodni nafaqat fan va texnologiyalar bo‘yicha bilim bilan ta’minlash, balki ularning ma’naviy-axloqiy va estetik madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ta’lim jarayonida o‘quvchining o‘zligini, milliy qadriyat va madaniyatga nisbatan his-tuyg‘ularini chuqur anglashini ta’minlash estetik madaniyat ta’limining ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda. Bu esa zamonaviy jamiyatning ijtimo-

iy-me’yoriy talablariga mos keluvchi barkamol shaxs – millat va Vataniga sodiq fuqaroni tarbiyalash yo‘lida muhim pedagogik maqsad hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan milliy taraqqiyot strategiyasida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish hamda yoshlarni yuqori estetik va madaniy darajada tarbiyalash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, 2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash haqidagi Prezidentning PF-134-sonli Farmoni ta’lim jarayonidagi zamonaviy pedagogik metodlarning joriy etilishi, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va darsliklar mazmunini kengaytirish orqali yoshlar madaniy qarashlarini boyitishga qaratilgan.

Ta’lim va tarbiya tizimida estetik madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi shundaki, bu jarayon o‘quvchining insoniy fazilatlarini, badiiy didini va go‘zallikni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik madaniyat – bu nafaqat san’at asarlarini tushunish, balki ularning axloqiy-ijtimoiy mazmunini anglash, hayotiy voqeliklarni estetik fazilat bilan qabul qilish va shaxsiy ijodiy yondashuvni rivojlantirish demakdir. Shu bois, maktab pedagogikasi kontekstida estetik madaniyatni shakllantirish yo‘nalishi innovatsion ta’lim metodlari va interaktiv pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san’at sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar ham yoshlarning estetik va madaniy darajasini oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Masalan, madaniyat va san’at muassasalarida yoshlarni ko‘proq jalb etish, teatr, muzey va konsert faoliyatini kengaytirish orqali ularning madaniy tajribasini boyitishga qaratilgan 2017-yil 31-maydagi qaror yoshlar estetik madaniyatini shakllantirish jarayonida davlat siyosatining muhim elementi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda yuqori sinf o‘quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirish ta’limning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda, chunki u shaxsning ijodiy fikrlash, estetik did va badiiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, milliy madaniyatni anglash va qadrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Estetik madaniyat – bu o‘quvchining dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari hamda estetik didi orqali shakllangan ijtimoiy va madaniy faol shaxsga aylanishning fundamental omilidir.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

So‘rovnoma

300 nafar 10-11-sinf o‘quvchisi o‘rtasida “estetik qiziqishlar”, “vizual kreativlik”, “san’at darslariga munosabat” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazildi.

Kuzatuv metodi

Dars jarayonida o‘quvchilarning badiiy idroki, kreativ ishlari, mustaqil loyihalarini tahlil qilish maqsadida 1 o‘quv yili davomida kuzatuv ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari

Eksperimental sinflarda quyidagi zamonaviy metodlar qo‘llandi:

AR/VR texnologiyalar orqali raqamli muzey sayohatlari;

STEAM asosida san’at va texnologiyani uyg‘unlashtirgan darslar;

“Kreativ studio” loyihasi;

Refleksiya kundaliklari.

Sifat tahlili

O‘quvchilarning ishlari mazmunan, texnik jihatdan, kreativlik bo‘yicha baholandi.

So‘rovnoma natijalari

O‘quvchilarning 67 foiz raqamli san’atga qiziqishini bildirdi.

54 foiz o‘quvchilar an’anaviy san’at darslari zerikarli bo‘lishini aytdi.

73 foiz kreativ loyihalarda qatnashishga tayyorligini bildirdi.

81 foiz estetik madaniyatni rivojlantirishda vizual kontent muhimligini ta’kidladi.

Eksperiment natijalari

Zamonaviy metodlar qo‘llangan sinflarda:

kreativlik bo‘yicha o‘sish 28 foizga;

vizual tafakkur ko‘nikmalari 35 foizga;

estetik qiziqish darajasi 41 foizga oshdi.

Aryumentativ xulosalar

Raqamli texnologiyalar – o‘quvchilarni san’at jarayoniga faol jalb qiladi.

STEAM yondashuvi – estetikani ilm-fan bilan bog‘laydi.

Interaktiv loyiha ishlari – o‘quvchilarda madaniy ong va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Refleksiya – o‘z-o‘zini baholash va estetik idrokni chuqurlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinf o‘quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirish an’anaviy “badiiy tasvir” darslari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Zamonaviy metodlar o‘quvchilarning diqqatiga mos, kreativ faoliyat uchun qulay sharoit yaratadi.

Estetik madaniyatni rivojlantirishda quyidagi innovatsion metodlar o‘zini oqladi:

Raqamli san’at (Digital Art);

Grafika dasturlari;

Animatsiya;

Raqamli kollajlar;

Bu usullar yoshlarning texnik qiziqishi va estetik tafakkurini birlashtiradi.

STEAM yondashuvi:

San’atni fizika, biologiya, robototexnika bilan bog‘lash orqali o‘quvchi dunyoqarashini kengaytiradi.

VR/AR texnologiyalari:

Virtual muzeylar, san’at galereyalari, tarixiy obidalarga immersiv kirish imkonini beradi.

Refleksiv pedagogika:

San’at asari tahlili + shaxsiy his-tuyg‘uni ifoda etish – estetik ongni mustahkamlaydi.

Muhitga asoslangan o‘qitish:

Shahar manzarasi, tabiat, arxitektura obyektlari bilan bog‘langan darslar o‘quvchining real hayotiy estetik idrokini kuchaytiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirish zamonaviy metodlarni talab qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli san’at, STEAM, VR/AR texnologiyalari, loyihaviy yondashuv va refleksiv pedagogika o‘quvchilarni san’atga qiziqtirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va madaniy savodxonligini oshirishning eng samarali vositalaridir. Zamonaviy usullar estetik tarbiyani hayotiy, amaliy va mazmunli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov B. Estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘qituvchi, 2010.

2. Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – T.: Fan, 2012.

3. Jo‘rayev N. Estetik madaniyat va ta’lim integratsiyasi. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

4. Karimova D. Maktab o‘quvchilarida madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish. – T.: Innovatsiya, 2022.

5. Abdullayeva G. Raqamli texnologiyalar va estetik ta’lim. Farg‘ona: FDU, 2023.

Muqaddas TEMIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi, o'qituvchi

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA ERTAK TANLASHGA OID MASHQLARNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak tanlashga oid mashqlarni tashkil etish orqali bolalarga ezgulik, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, do'stlik kabi fazilatlarni singdirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, ertak mazmunini tahlil qilish, ertak tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ertak tanlash mashqlarini baholash mezonlari kabi usullari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada ertaklar bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni to'g'ri hayotiy yo'lga yo'naltirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar. Ertak, o'quvchi, voqea, axloq, boshlang'ich sinf, mezon, psixolog, ijodkorlik, fantastik, tanlov, mantiqiy, mashq.

В данной статье анализируются способы привития детям таких качеств, как доброта, честность, терпение, трудолюбие и дружба, посредством организации упражнений по выбору сказок для учащихся начальной школы. Также представлены методы анализа содержания сказок, развития навыков выбора сказок и оценки результатов упражнений по выбору сказок. Статья обосновывает роль сказок в развитии самостоятельного мышления детей и направлении их на правильный жизненный путь.

Ключевые слова. Сказка, ученик, история, мораль, начальная школа, критерий, психолог, креативность, фантазия, выбор, логика, упражнение.

This article analyzes ways to instill in children such qualities as kindness, honesty, patience, hard work, and friendship by organizing fairy tale selection exercises for elementary school students. It also shows methods such as analyzing the content of fairy tales, developing fairy tale selection skills, and evaluating fairy tale selection exercises. The article substantiates the role of fairy tales in developing children's independent thinking and guiding them on the right path in life.

Key words. Fairy tale, student, story, morality, elementary school, criterion, psychologist, creativity, fantasy, selection, logic, exercise.

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning adabiy didini shakllantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda ertak janri alohida o'rin tutadi. Ertak – bolalar adabiyotining eng qadimgi va eng sevimli janrlaridan biri bo'lib, u nafaqat o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda, balki axloqiy tarbiya berishda, milliy qadriyatlarni singdirishda va ijodiy tasavvurni boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ertak tanlash mashqlari maxsus pedagogik yondashuv talab qiladi. Bu mashqlar orqali o'quvchilar turli xil ertaklarni tahlil qilish, ularning xususiyatlarini farqlash, o'zlariga mos keladigan ertaklarni mustaqil tanlash ko'nikmalarini egallaydi. Ushbu maqolada ertak tanlashga oid mashqlarni tashkil etishning nazariy asoslari, amaliy usullari va samarali pedagogik texnologiyalari ko'rib chiqiladi.

Ertak – xalq og'zaki ijodiyotining eng qadimgi janrlaridan biri bo'lib, u avloddan-av-

lodga o‘tib, bolalar dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynab kelgan. Bu janrning quyidagi xususiyatlari uni boshlang‘ich ta'limda alohida qadrli qiladi:

Fantastik elementlar: Ertaklarda ajoyib voqealar, sehrli predmetlar, g‘ayritabiiy kuchlar tasvirlangan bo‘lib, bu bolalarning tasavvurini boyitadi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Aniq kompozitsiya: Ertaklar odatda aniq tuzilishga ega: kirish qismi, asosiy voqea va yakun. Bu struktura bolalarga hikoyaning mantiqiy ketma-ketligini tushunishda yordam beradi.

Yaxshilik va yomonlik kurashi: Deyarli barcha ertaklarda yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qiladi, bu esa bolalarda axloqiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sodda va tushunarli til: Ertaklar bolalar uchun tushunarli, jonli va obrazli til bilan yozilgan bo‘lib, lug‘at boyligini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari.

Boshlang‘ich sinf o‘uvchilarining psixologik rivojlanishi ertak tanlash mashqlarini o‘rgatishda hisobga olinishi kerak bo‘lgan bir qator xususiyatlarga ega. O‘quvchining o‘ziga mos ertak tanlash xususiyati tobora shakllanib boradi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchining psixologik jihatdan faoliyat olib borishida.

Konkret-obrazli fikrlash: Bu yoshdagi bolalar abstrakt tushunchalardan ko‘ra muayyan obrazlar va voqealar orqali dunyoni anglaydi va shuning uchun ertaklardagi aniq qahramonlar va voqealar ularga oson, tushunarli bo‘ladi.

E'tiborning cheklangan davomiyligi: Kichik yoshdagi o‘quvchilar uzoq vaqt bitta mashg‘ulotga e’tiborini qarata olmaydilar. Shu sababli, mashqlar qisqa va dinamik bo‘lishi lozim.

Emotsional idrok: Bolalar ertaklarni birinchi navbatda hissiy jihatdan qabul qiladilar. Ular qahramonlar bilan empatiya quradilar, ularning his-tuyg‘ularini his qiladilar.

Taqlid qilishga moyillik: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ertaklardagi ijobiy qahramonlarni taqlid qilishga moyil bo‘lishadi, bu tarbiyaviy jihatdan muhim imkoniyat yaratadi.

Ertak tanlash ko‘nikmalarining rivojlanish bosqichlari

Ertak tanlash ko‘nikmasini shakllantirish bir necha bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich (1-sinf): O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan ertaklarni tanishish. Bu bosqichda bolalar ertaklarni tinglash, oddiy savollar berishga javob berish ko‘nikmalarini egallaydi.

Ikkinchi bosqich (2-sinf): Turli xil ertaklarni taqqoslash, ularning umumiy va farqli jihatlarini topish. Bolalar xalq va adabiy ertaklarni farqlay boshilaydi.

Uchinchi bosqich (3-sinf): Mustaqil ertak tanlash, o‘z tanlovini asoslash. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘zlariga yoqqan ertaklarni tanlashda muayyan mezonlardan foydalanishni o‘rganadi.

To‘rtinchi bosqich (4-sinf): Tanqidiy yondashuv, ertaklarni baholash, tahlil qilish va tavsiya etish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ertak tanlash mashqlarining turlari va tashkil etish metodikasi

Taqqoslash mashqlari

Taqqoslash mashqlari o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu mashqlar turli xil shakllarda tashkil etilishi mumkin:

Ikki ertakni taqqoslash: O‘quvchilarga ikki xil ertak taqdim etiladi va ular quyidagi mezonlar bo‘yicha taqqoslash qilishadi:

Qahramonlar (odamlar, hayvonlar, sehrli mavjudotlar);

Voqealar joyi (shahar, qishloq, o‘rmon, sehrli mamlakat);

Syujet (oddiy yoki murakkab);

Yakun (baxtli, ibratli, ochiq);

Til xususiyatlari (sodda, og‘ir, she'riy).

Misol mashq: “Repka” va “Teremok” ruscha ertaklarini taqqoslang. Qaysi ertakda ko‘proq qahramonlar bor? Qaysi ertakda hamkorlik g‘oyasi yaqqolroq ko‘rinadi?

Bir mavzudagi turli ertaklarni taqqoslash: Masalan, ayiq haqidagi turli xalqlarning ertaklarini taqqoslash orqali milliy o‘ziga xosliklarni aniqlash.

Klassifikatsiya mashqlari

Klassifikatsiya mashqlari o‘quvchilarga ertaklarni turli mezonlar asosida guruhlash ko‘nikmalarini beradi:

Mavzu bo‘yicha klassifikatsiya:

– Hayvonlar haqidagi ertaklar;

– Sehrli ertaklar;

– Kundalik hayot haqidagi ertaklar;

– Maserali ertaklar.

Kelib chiqishi bo‘yicha klassifikatsiya:

– Xalq ertaklari,

– Adabiy (muallif) ertaklari,

– Zamonaviy ertaklar.

Qahramonlar bo‘yicha klassifikatsiya:

Inson qahramon bo‘lgan ertaklar;

Hayvonlar qahramon bo‘lgan ertaklar;

Sehrli mavjudotlar qahramon bo‘lgan ertaklar.

Amaliy mashq: O‘quvchilarga 10-15 ta ertak nomi beriladi va ular bu ertaklarni kamida ikki xil mezon bo‘yicha guruhlashlari kerak. Bu mashq ularning mantiqiy fikrlashini va sistematik yondashuvini rivojlantiradi.

Baholash va tanlov mashqlari

Bu mashqlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan:

Kriteriyalar asosida tanlash: O‘quvchilarga muayyan va o‘ziga xos vaziyat beriladi va ular shu vaziyatga mos ertak tanlashlari kerak:

Kichik ukam yoki singlim uchun mos ertak tanlash;

Do‘stim bilan o‘qish uchun qiziqarli va mazmunga boy ertak tanlash;

O‘zimni yaxshi his qilish uchun fantastik va noan’anaviy ertak tanlash;

Biror narsa o‘rganish uchun ibratli ertak tanlash.

“Eng yaxshi ertak” tanlov: O‘quvchilar o‘qigan ertaklaridan eng yaxshisini tanlaydilar va o‘z tanlovini asoslaydilar. Bu mashq nutq rivojlanishiga va argumentatsiya qilish ko‘nikmalariga yordam beradi.

Reytinglash mashqi: Bir necha ertakni muayyan mezonlar (qiziqarlilik, ibratlilik, qahramonlarning jozibadorligi) bo‘yicha baholash va reytinglash.

Ijodiy tanlash mashqlari

Ijodiy mashqlar o‘quvchilarning tasavvurini va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi:

Ertak yaratish uchun model tanlash: O‘quvchilar o‘zlari ertak yozmoqchi bo‘lsalar, qaysi ertakni model sifatida olishlarini asoslaydilar.

Davomi uchun ertak tanlash: Qaysi ertakka davom yozish qiziqarli bo‘lardi va nima uchun?

Dramatizatsiya uchun tanlash: Sahnalashtirish uchun eng mos ertakni tanlash va o‘z tanlovini asoslash.

Illyustratsiya qilish uchun tanlash: Rasm chizish uchun eng vizual va tasviriy ertakni tanlash.

Ertak tanlash mashqlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

– Interaktiv metodlar

Zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar muhim o‘rin tutadi. Ertak tanlash mashqlarida quyidagi interaktiv usullardan foydalanish mumkin:

“Ertak bozori” o‘yini: Sinf o‘quvchilari bir necha guruhga bo‘linadi. Har bir guruh bir ertakni “sotish” uchun tayyorlaydi – uning afzalliklarini ko‘rsatuvchi taqdimot tayyorlaydi. Boshqa guruhlar “xaridorlar” sifatida savollar berishadi va eng yaxshi taqdimotni tanlaydilar.

"Edvokatura" usuli: Ikki guruh turli ertaklarni "himoya qiladi", har biri o‘z ertagi nima uchun yaxshiroq ekanligini dalillar bilan isbotlaydi.

"Karusel" texnikasi: O‘quvchilar doira bo‘lib turishadi. Har biri o‘z sevimli ertagi haqida qisqacha gapirib, keyingi o‘quvchiga o‘tadi. Har bir o‘quvchi oldingi ertak haqida qisqacha fikr bildiradi va o‘ziniki haqida gapirib beradi.

"Akvarium" texnikasi: Bir guruh o‘quvchilar markazda ertak tanlash bo‘yicha muhokama olib borishadi, qolgan o‘quvchilar ular atrofida o‘tirib kuzatadilar va keyinroq o‘z kuzatishlarini baham ko‘radilar.

– Loyiha metodikasi

Loyiha metodikasi o‘quvchilarning mustaqil izlanish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi:

"Bizning sinf kutubxonasi" loyihasi: O‘quvchilar sinf uchun eng yaxshi ertaklar to‘plamini yaratishadi. Har bir o‘quvchi 3-5 ta ertak tavsiya qiladi va nima uchun aynan shu ertaklarni tanlaganligini yozma tarzda asoslaydi.

“Ertaklar ensiklopediyasi” loyihasi: Guruh bo‘lib ishlagan holda o‘quvchilar turli mavzulardagi ertaklarni to‘playdilar, klassifikatsiya qiladilar va qisqacha tavsiflarini tuzadilar.

“Virtual ertak muzeyi” loyihasi: Raqamli texnologiyalardan foydalanib, o‘quvchilar eng muhim va qimmatli ertaklarning virtual ko‘rgazmasini tashkil qilishadi.

– Differensiatsiyalashgan yondashuv

Har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, o‘qish darajasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda mashqlar tuzilishi kerak:

Boshlang‘ich daraja uchun: Oddiy, qisqa ertaklar va sodda tanlash mezonlari. Masalan, ikki ertakdan qaysi biri qiziqarli ekanligini tanlash.

O‘rta daraja uchun: Murakkabroq ertaklar va ko‘proq tahlil talab qiladigan mezonlar. Masalan, bir necha ertakni turli jihatlari bo‘yicha taqqoslash.

Yuqori daraja uchun: Murakkab adabiy ertaklar, chuqur tahlil va mustaqil baholash. Masalan, ertaklarning adabiy qiymatini baholash, muallif mahoratini tahlil qilish.

– Raqamli texnologiyalar

Bugungi kunda raqamli vositalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi:

Elektron kutubxonalar: O‘quvchilar onlayn kutubxonalarda ertaklar izlash, ularni kategoriyalar bo‘yicha saralash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Multimediya taqdimotlar: PowerPoint yoki boshqa dasturlar yordamida o‘quvchilar o‘z tanlagan ertaklari haqida taqdimot tayyorlaydilar.

QR-kodlar: Sinf kutubxonasida ertaklar QR-kodlar bilan belgilanadi, o‘quvchilar

bu kodlar orqali qo‘shimcha ma’lumotlarga kirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Interaktiv doskalar: Ertak tanlash mashqlarini interaktiv doska yordamida o‘tkazish, guruhli ishlarni tashkil qilish.

Ertak tanlash mashqlarini baholash mezonlari va diagnostika

– Baholash mezonlari

Ertak tanlash ko‘nikmalarini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

*Tanlov asosliligi: O‘quvchi o‘z tanlovini qanchalik aniq va mantiqiy asoslaydi. Bu mezon quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

– Dalillarning mavjudligi;

– Dalillarning mantiqiyligi;

– Shaxsiy fikrning aniqligi;

*Tahlil chuqurligi: O‘quvchi ertakni qanchalik chuqur tahlil qila oladi:

Qahramonlarni tahlil qilish qobiliyati;

Syujet xususiyatlarini tushunish;

Muallif g‘oyasini anglash;

Til xususiyatlarini farqlash.

*Mustaqillik darajasi: O‘quvchi qanchalik mustaqil ravishda qaror qabul qiladi:

O‘qituvchi yordamisiz tanlov qilish;

O‘z mezonlarini ishlab chiqish;

Noan'anaviy tanlov qilish jasorati.

*Kreativlik: Tanlovda ijodiy yondashuv:

Noan'anaviy mezonlarni qo‘llash;

Qiziqarli asoslar topish;

Original g‘oyalarni ilgari surish.

Kuzatish: O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini, tanlov jarayonidagi xatti-harakatlarini kuzatadi va qayd etadi.

So‘rovnoma: O‘quvchilarga ularning ertak tanlashdagi afzalliklari, qiyinchiliklari haqida savollar beriladi.

Test topshiriqlari: Maxsus ishlab chiqilgan testlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirish. Masalan:

1. 5 ta ertak beriladi, ularni mavzu bo‘yicha guruhlash,

2. Berilgan vaziyatga mos ertak tanlash va asoslash,

3. Ikki ertakni taqqoslash va tahlil qilish.

Portfolio baholash: O‘quvchining ertak tanlash bo‘yicha bajargan barcha ishlari to‘planadi va davr oxirida tahlil qilinadi.

- Xatolarni bartaraf etish

O‘quvchilar ertak tanlashda quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin:

Sirtki tanlov: O‘quvchi faqat ertak nomiga yoki muqovasiga qarab tanlaydi, mazmunini hisobga olmaydi. Bu xatoni bartaraf etish uchun ertak mazmunini oldindan tanish usuli qo‘llaniladi.

Bir xil turdagi ertaklarni tanlash: O‘quvchi faqat bitta janr yoki mavzudagi ertaklarni tanlaydi. Bu holda o‘qituvchi turli xil ertaklarni taqqoslash mashqlarini tashkil qiladi.

Boshqalar fikriga haddan tashqari bog‘liqlik: O‘quvchi doim do‘stlari yoki o‘qituvchi tavsiyasiga amal qiladi, o‘z fikriga ishonmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun mustaqillikni rag‘batlantiruvchi mashqlar zarur.

Asoslab bera olmaslik: O‘quvchi ertakni tanlaydi, lekin nima uchun aynan shu

ertakni tanlaganini tushuntira olmaydi. Bu holda nutq rivojlantirish va argumentatsiya mashqlari kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlik

1. Ota-onalarning roli

Ertak tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda oila muhitni rol o‘ynaydi. O‘qituvchi ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilishi zarur:

Ota-onalarni ma’lumotlantirish: Maxsus uchrashuv yoki bukletlar orqali ota-onalarga ertak tanlashning ahamiyati, uyda qanday mashqlar qilish mumkinligi haqida ma'lumot berish.

Birgalikda o‘qish dasturlari: “Oila o‘qish kechalari” tashkil etish, bu yerda ota-onalar va bolalar birgalikda ertak o‘qiydi va muhokama qiladi.

Uy vazifalarida hamkorlik: Uy vazifalari shunday loyihalashtirilishi kerakki, ota-onalar o‘z farzandlariga yordam berishlari mumkin bo‘lsin.

2. Uy sharoitida mashqlar

Ota-onalarga tavsiya etiladigan mashqlar:

“Kechki ertak” an’anasi: Har kuni kechqurun ertak o‘qishni odatga aylantirish. Haftada bir-ikki marta bolaning o‘zi ertakni tanlashiga imkon berish.

Kutubxonaga tashrif: Oyda kamida bir marta oilaviy kutubxona tashrifini tashkil etish, bu yerda bola mustaqil ertaklar tanlaydi.

"Ertak jurnali": Uyda o‘qilgan ertaklar jurnalini yuritish, bu yerda bola ertak haqida qisqacha fikr yozadi va rasm chizadi.

Ertak muhokamasi: Ertakni o‘qib bo‘lgandan keyin, ota-onalar bolaga savol berishlari: “Bu ertakni nima uchun tanladingiz? Sizga nima yoqdi? Qaysi qahramon eng yoqimli bo‘ldi?”

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ertak tanlashga oid mashqlarni tashkil etish – murakkab, ko‘p qirrali jarayondir. Bu jarayon nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini, balki tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O‘quvchi shaxsini kamol toptirishni ta‘minlashda xalq ertaklarining o‘rni beqiyosdir. O‘quvchi o‘zi sevib qolgan ertaklarning ijobiy qahramonlaridan halollik, to‘g‘ri so‘zlik, mehnatsevarlikni o‘rnak qilib oladi. Salbiy qahramonlardan esa nafratlanib, ularga o‘xshamaslikka harakat qiladi. Ularning bilimga qiziqishini oshirish hamda komil inson qilib tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Shu bilan birga ertak o‘quvchilar nutqi, fikrlash qobiliyati, so‘z boyligini o‘stirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova D. Boshlang‘ich sinflarda ertak janri: metodika va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston Ta’limi, 2021.

2. Akramov M. Boshlang‘ich ta’limda axloqiy qiymatlar va ularni o‘rgatish metodikasi. – Samarqand: SamDU, 2022.

3. Jumaniyozova M. Boshlang‘ich ta’limda ertaklarni o‘qitishning maqsad va vazifalari // Science and Innovation. – 2022. – Vol. 1, Issue 5.

4. Mamatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Istiqlol, 2010.

Gulmira SATTOROVA,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat Markazi, metodist,
"Oriental universiteti" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, mustaqil izlanuvchi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Boshqaruv kompetensiyasi tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari, rahbar shaxsida namoyon bo'ladigan boshqaruv faoliyati sifatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, direktorlar faoliyatida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining qo'llanishi, rahbarlarning professional rivojlanishini ta'minlovchi metodik model taklif etilgan.

Tayanch so'zlar. Boshqaruv kompetensiyasi, maktab direktori, ta'lim menejmenti, kompetensiyaviy yondashuv, rahbarlik salohiyati, metodologik asoslar, innovatsion boshqaruv.

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы развития управленческой компетентности директоров общеобразовательных школ. Раскрыто содержание понятия «управленческая компетентность», его структурные компоненты и профессионально-личностные качества руководителя. Рассматриваются условия внедрения компетентностного подхода в системе образования Узбекистана, применение современных управленческих технологий в деятельности директоров школ, а также предлагается методическая модель развития управленческих компетенций.

Ключевые слова. управленческая компетентность, директор школы, образовательный менеджмент, компетентностный подход, лидерские качества, методологические основы, инновационное управление.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing the management competencies of general secondary school principals. The concept and structure of management competency, as well as the professional and personal qualities required of school leaders, are examined based on scientific sources. The study highlights the implementation of a competence-based approach in the education system of Uzbekistan and the application of modern management technologies in the activities of school principals. A methodological model for improving management competencies is proposed.

Key words. Management competency, school principal, educational management, competence-based approach, leadership capacity, methodological basis, innovative management.

Zamonaviy ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatining mazmuni tubdan o'zgarib bormoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, mehnat bozori talablari va xalqaro reytinglarga integratsiya jarayonlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlaridan nafaqat tashkiliy boshqaruvni, balki strategik fikrlashni, innovatsion yondashuvni, pedagogik jarayonni tizimli tahlil qilishni, inson resurslarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Shu boisdan so'nggi yillarda maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ta'lim menejmenti sohasining dolzarb ilmiy

yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazkur talablarga mos ravishda rahbar kadrlar salohiyatini oshirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilab bermoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Milliy o‘quv dasturining joriy etilishi, maktabni boshqarishda jamoatchilik, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabi omillar rahbarlardan yuqori darajadagi boshqaruv kompetensiyasini talab qilmoqda. Bugungi kunda maktab direktori faqat ma’muriy-boshqaruv figurasi emas, balki ta’lim jarayonining sifat va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik lider sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Biroq, mavjud tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktab rahbarlarining aksariyatida boshqaruv kompetensiyasining nazariy asoslari yetarli darajada shakllanmagan, metodik ko‘mak tizimi esa barqaror va tizimli mexanizmlarga ega emas. Amaliyot shuni isbotlaydiki, ko‘plab direktorlar boshqaruvni ko‘proq hujjat yuritish va ma’muriy buyruqlar bilan bog‘laydi, lekin zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini, motivatsion mexanizmlarni, innovatsion ta’lim muhitini yaratish metodlarini yetarlicha qo‘llay olmaydi. Bu esa o‘z navbatida maktabdagi ta’lim sifati, o‘qituvchilarning kasbiy rivoji va o‘quvchilarning natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini yoritish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda zamonaviy yondashuvlar asosida konseptual modelni taklif etishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarish jarayoni olingan, predmeti esa maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilmiy-metodik yondashuvlardir.

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi: nazariy tahlil va taqqoslash, pedagogik modellashtirish, kompetensiya asosidagi yondashuv, boshqaruv faoliyatini diagnostika qilish, xorijiy tajribani o‘rganish. Boshqaruv kompetensiyasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari, baholash mezonlari, rivojlantirish mexanizmlari va innovatsion boshqaruv texnologiyalarining maktab rahbarlik amaliyotiga tadbiqi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shunday qilib, ushbu maqola ta’lim menejmenti nazariyasiga ilmiy hissa qo‘shish, amaliyotchi rahbarlar uchun metodik asos yaratish va xalqaro tajribalar asosida zamonaviy boshqaruv kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonining samaradorligi, avvalo, rahbar shaxsining kasbiy yetukligi, liderlik salohiyati va boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Boshqaruv kompetensiyasi zamonaviy pedagogik menejment nazariyasida integrativ kategoriya sifatida talqin qilinadi hamda u bilim (knowledge), ko‘nikma (skills), shaxsiy sifatlar (personal qualities) va boshqaruv tajribasining kompleks uyg‘unligini anglatadi.

Ilmiy manbalarda boshqaruv kompetensiyasi tushunchasi turlicha izohlanadi. Xususan:

G. Mintzberg boshqaruvni “ijtimoiy tizimda qaror qabul qilish va resurslarni boshqarishga qaratilgan ko‘p funksiyali faoliyat” sifatida talqin qiladi.

P. Drucker rahbarning asosiy vazifasi “tashkilotni o‘zgarayotgan sharoitga moslashtirish va natijadorlikka yo‘naltirish” ekanligini ta’kidlaydi.

Mazkur yondashuvlar asosida maktab direktori uchun boshqaruv kompetensiyasi quyidagi tarkibiy elementlardan iborat ekanligi ko‘rinadi:

Kompetensiya turi	Mazmuni	Amaliy ko‘rinishi
Tashkiliy	Maktabning ichki jarayonlarini samarali tashkil etish	Vazifalar taqsimoti, boshqaruv hujjatlari
Strategik	Uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishini belgilash	Maktabning rivojlanish dasturi
Kommunikativ	Pedagog, o‘quvchi, ota-ona, hamkorlar bilan muloqot	Jamoaviy boshqaruv, media bilan aloqa
Innovatsion	Yangiliklarni tatbiq etish va modernizatsiya qilish	Raqamli texnologiyalar, STEAM, monitoring
Analitik	Muammolarni tahlil qilib, qaror qabul qilish	Data-based management, reyting tahlili
Ijtimoiy-boshqaruv	Jamoa psixologiyasini boshqarish	Konfliktologiya, liderlik

1-jadval.

Shu nuqtayi nazardan, maktab direktori oddiy ma’mur emas, balki ta’limiy tashkilotning rivojlanish strategiyasi uchun javobgar bo‘lgan transformatsion lider sifatida qaraladi. Bu yondashuv XXI asr ta’lim menejmentining asosiy paradigmasiga aylanib bormoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida boshqaruv sifatini oshirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirildi. Xususan:

– “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil yangi tahriri) maktab direktori shaxsiy va kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan rahbar sifatida belgilaydi.

– “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” rahbarning zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish kompetensiyasini shakllantirishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

Prezident qarorlari asosida maktab direktorlarini attestatsiyadan o‘tkazish, malaka oshirish va ochiq tanlov asosida tayinlash tizimi joriy qilindi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda direktorlar faoliyatida strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv va raqamli platformalardan foydalanish sohalarida yetishmovchiliklar mavjud.

Pedagogik menejment nazariyasida boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish uchta metodologik asosga tayanadi:

Metodologik asos	Mazmuni	Amaliy ko‘rinishi
Faoliyat yondashuvi	Rahbarning kundalik boshqaruv amaliyoti orqali o‘sishi	Taym-menejment, qaror qabul qilish, KPI
Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv	Rahbarni subyekt sifatida rivojlantirish	Liderlik, emotsional intellekt
Innovatsion yondashuv	Raqamli va ilmiy asoslangan boshqaruvni tadbiq etish	Big data, elektron nazorat tizimlari

2-jadval.

Dunyoning ilg‘or ta’lim tizimlarida (Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Germaniya) maktab rahbarlari boshqaruv jarayoniga quyidagi o‘ziga xos tamoyillar asosida tayyorlanadi:

Direktor – “byurokratik nazoratchi” emas, balki “ta’lim yetakchisi”

Boshqaruvda raqamli tahlil (data-based management);

Maktabni korporativ boshqaruv modeli asosida yuritish;

Har bir direktor sertifikatlashdan o‘tishi shart (masalan, NPQH – Buyuk Britaniya);

70 foiz boshqaruv qarorlari jamoaviy tahlil asosida qabul qilinadi;

Rahbarlar psixologik barqarorlik va konfliktologiya bo‘yicha majburiy tayyorgarlikdan o‘tadi.

Mazkur tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish, ayniqsa, “pedagogik rahbarlik” konsepsiyasini joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida olib borilgan monitoring natijalari shuni ko‘rsatadiki:

41foiz direktorlar zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga tatbiq eta olmaydi;

53 foiz direktorlar ta’lim sifatini baholash va tahlil qilishda raqamli platformalardan foydalanmaydi;

32 foiz direktorlar innovatsion jamoa boshqaruvi bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emas;

47 foiz direktorlarning strategik rejalashtirish bo‘yicha bilimlari yetarli emas.

Demak, tizimli va ilmiy yondashuvga asoslangan metodik qo‘llanma, qayta tayyorlash kurslari va sertifikatlash mexanizmini kuchaytirish zarur.

Direktorlarning boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Diagnostika bosqichi – rahbarning mavjud bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlari auditi va boshqaruv xaritasini tuzish orqali aniqlanadi.

Rivojlantirish bosqichi – modul asosida o‘qitish, amaliy stajirovkalar va mentorlik tizimi orqali rahbarlarning bilim va ko‘nikmalari oshiriladi.

Baholash bosqichi – kompetensiyalar KPI tizimi asosida qayta o‘lchanadi va faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi.

Doimiy monitoring – professional portfelni yangilash, reyting va monitoring tizimi orqali rahbar faoliyati nazorat qilinadi.

Shunday qilib, mazkur mexanizm rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini tizimli va samarali rivojlantirish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rahbarning boshqaruv kompetensiyasi nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, strategik qaror qabul qilish, innovatsion yondashuv va jamoa boshqaruvi bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston sharoitida direktorlarning boshqaruv kompetensiyasini tizimli rivojlantirish uchun diagnostika, rivojlantirish, baholash va doimiy monitoring bosqichlarini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan model tatbiq etilishi lozim. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rahbarlarni sertifikatlash, modul asosida o‘qitish va mentorlik tizimi orqali boshqaruv kompetensiyasini mustahkamlash samarali natija beradi. Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish, KPI asosida faoliyatni tahlil qilish va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: Harper & Row, 1974.

2. Fayol A. Administration Industrielle et Générale. Paris, 1916.

3. Ivanov S. Educational Leadership. Moscow: Prosveshchenie, 2018.

4. Bass B. Leadership and Performance Beyond Expectations. New York, 1990.

5. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi, 2022–2026 y.

Gulnoz AXMADALIEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Olimpiya va Paraolimpiya Shon-sharafi muzeyi direktori

OLIMPIYA TA’LIMINING PEDAGOGIK ASOSLARINI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi maktab ta’lim tizimiga olimpiya ta’limini joriy etishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Olimpiya ta’limi do‘stlik, adolat, halollik, o‘zaro hurmat va o‘z-o‘zini takomillashtirish ideallariga tayangan ma’naviy va ruhiy qadriyatlarni yosh avlod ongida shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, olimpiya harakatining insonparvarlik mohiyati bilan zamonaviy maktab tarbiyasi vazifalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib beriladi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) hujjatlari, Per de Kuberten asarlari, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ)ning me’yoriy hujjatlari va “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi materiallariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tayanch so‘zlar. Olimpiya ta’limi, pedagogik asoslar, olimpiya qadriyatlari, maktab tarbiyasi, har tomonlama rivojlangan rivojlanish, olimpizm, jismoniy madaniyat.

В данной статье анализируются педагогические основы внедрения олимпийского образования в систему школьного образования Республики Узбекистан. Олимпийское образование рассматривается как эффективный механизм формирования у молодого поколения духовных и нравственных ценностей, основанных на идеалах дружбы, справедливости, честности, взаимного уважения и самосовершенствования. Кроме этого в статье раскрывается взаимосвязь гуманистической сущности олимпийского движения с современными задачами школьного воспитания. Особое внимание уделяется документам Международного олимпийского комитета (МОК), трудам Пьера де Кубертена, нормативным актам Национального олимпийского комитета (НОК) Узбекистана и материалам Стратегии “Новый Узбекистан – 2030”.

Ключевые слова. Олимпийское образование, педагогические основы, олимпийские ценности, школьное воспитание, гармоничное развитие, олимпизм, физическая культура.

This article analyzes the pedagogical foundations of implementing Olympic education in the school education system of the Republic of Uzbekistan. Olympic education is considered as an effective mechanism for the formation of spiritual and moral values in the younger generation, based on the ideals of friendship, justice, honesty, mutual respect, and self-improvement. In addition, the article reveals the interconnection of the humanistic essence of the Olympic movement with the modern tasks of school education. Special attention is paid to the documents of the International Olympic Committee (IOC), the works of Pierre de Coubertin, the regulatory acts of the National Olympic Committee (NOC) of Uzbekistan, and the materials of the “New Uzbekistan - 2030” Strategy.

Key words. Olympic education, pedagogical foundations, Olympic values, school education, harmonious development, Olympism, physical culture.

Zamonaviy maktab intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlangan, insonparvarlik va xalqaro hamkorlik ideallarini ro‘yobga chiqara oladigan avlodni shakllantirishga qaratilgan strategik vazifani bajaradi. “Yangi O‘zbekiston – 2030” rivojlanish strategiyasida bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularda faol

fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash, shuningdek, tinchlik va o‘zaro hurmat madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu maqsadlarga erishishning eng muhim vositalaridan biri – olimpiya ta’limi bo‘lib, u Olimpizm ideallariga tayangan pedagogik sistema sifatida qaraladi. Olimpizm ideallari XOQ Olimpiya xartiyasida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, ushbu hujjatda (31-modda) milliy olimpiya qo‘mitalari maktab va universitetlardagi ta’lim dasturlari orqali olimpizm tamoyillarini keng targ‘ib etishga ko‘maklashishi shartligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi maktab ta’lim muassasalarida olimpiya ta’limining pedagogik asoslarini shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki olimpizm nafaqat sport harakati, balki har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladigan universal pedagogik falsafa sifatida talqin etiladi.

Per de Kubertenning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, olimpiya ta’limining asosiy missiyasi – “sport orqali insonni tarbiyalashdir”, ya’ni hurmat, halollik va intizomga asoslangan ma’naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishdan iborat. U shunday deb yozgan edi: “Olimpiya o‘yinlari – bu nafaqat tanalar musobaqasi, balki olijanoblik va kamolotga intilayotgan aql va qalblarning uchrashuvidir”. Shu tariqa, olimpiya ta’limi o‘quvchilarda faqat jismoniy madaniyatni emas, balki o‘zaro munosabatlar madaniyatini ham shakllantiradi, ijtimoiy faol va axloqan mas’ul shaxs kamolotiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogikada olimpiya ta’limi jismoniy faollik orqali shaxs tarbiyasini amalga oshiradigan, biroq axloqiy tarkibiy qismga ustuvor ahamiyat beradigan ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuv MOQ hujjatlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-iyundagi № 485-sonli “Sportchilarni olimpiya tayyorgarligidan o‘tkazish markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z ifodasini topgan. Respublikadagi zamonaviy ta’lim tizimi xar tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni davlatning strategik vazifasi sifatida ko‘radi. Shu jihatdan olimpiya ta’limi jismoniy madaniyat, etika va ma’naviy rivojlanishni o‘zaro bog‘laydigan gumanistik tarbiyaning asosiy vositalaridan biriga aylanadi.

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarda faol hayotiy pozitsiya, vatanparvarlik va sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish zarurligi alohida qayd etilgan. Bu o‘rinda sport insonning har tomonlama rivojlanishi va xalqlar o‘rtasida tinchlikni mustahkamlash vositasi bo‘lishi kerakligi haqidagi Olimpizm tamoyillari bilan to‘liq mos keladi. Ushbu hujjatlarda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk va ijtimoiy javobgar avlodni shakllantirish vazifasi alohida ta’kidlanadi.

Strategik hujjatlarda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor deb belgilanadi: jismoniy va ma’naviy tarbiya tizimiga innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish; xalqaro sport va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik dasturlarini kengaytirish; o‘quvchi-yoshlar ijtimoiylashuvi va vatanparvarlik ruhida tarbiyasiga xizmat qiluvchi maktab sport klublari va olimpiadalarini rivojlantirish. Olimpiya ta’limi Strategiya – 2030 maqsadlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, millat salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, yoshlarda halol o‘yin, bag‘rikenglik va o‘z-o‘zini takomillashtirish qadriyatlarini tarbiyalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tajriba olimpiada ta’limi shaxs rivojlanishi va global fuqarolikni shakllantirishning samarali vositasi sifatida maktab dasturlariga integratsiya qilinishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Yevropa, Osiyo va Amerikada olimpiya qadriyatlari jismoniy tarbiya, gumanitar fanlar va tarbiyaviy dasturlar tizimiga kiritilgan.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi va YuNeSKO hamkorligida ishlab chiqilgan Olympic

Values Education Programme (OVEP) dasturlari dunyoning 100 dan ortiq davlatida amalga oshirilmoqda. Ularning pedagogik asosi uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga tayanadi:

– bilimlar – olimpiya o‘yinlari tarixi, ramzlari, taniqli sportchilar biografiyasini o‘rganish;

– ko‘nikmalar – amaliy faoliyat orqali o‘quvchilarda kommunikativ, yetakchilik va irodaviy sifatlarni shakllantirish;

– qadriyatlar – halollik, adolat, hurmat va kamolotga intilish fazilatlarini tarbiyalash.

Masalan, Kanada tajribasida olimpiya ta’limi jismoniy tarbiya bo‘yicha federal standartlarga integratsiya qilingan bo‘lib, u o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va emotsional intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Yaponiyada olimpiya ideallari sog‘lom turmush tarzi madaniyati va xalqaro o‘zaro tushunishni rivojlantirishga qaratilgan “Sport for Tomorrow” milliy dasturiga kiritilgan. Rossiyada MOQ va Maorif vazirligi hamkorligida amalga oshirilayotgan “Olimpiyskiy urok” loyihasi maktab o‘quvchilarini halol o‘yin va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston ta’lim, madaniyat va sport sohalarida davlat siyosati doirasida olimpiya harakatini jadal rivojlantirmoqda. 1992-yildan mamlakat Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi a’zosi hisoblanadi, 1993-yilda esa O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-iyundagi № 485-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi huzuridagi olimpiya tayyorgarlik markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, olimpiya ta’limi va tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: yoshlarni sport va jamoat hayotida faol ishtirok qilishga tayyorlash; o‘quvchilarda olimpiya sport turlariga qiziqishni rivojlantirish; maktab o‘quvchilarida olimpizm ideallariga asoslangan ma’naviy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash; jismoniy madaniyatni rivojlantirish va halol o‘yin tamoyillarini ommalashtirish uchun shart-sharoit yaratish.

Xalqaro OVEP modellari va O‘zbekiston milliy strategiyalarining uyg‘unlashtirilishi natijasida olimpiya g‘oyalarini amalga oshirishga xizmat qiladigan o‘ziga xos ta’lim maydoni vujudga kelmoqda. Bu jarayon quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda: XOQ, MOQ va Xalq ta’limi vazirligi o‘rtasidagi qo‘shma dasturlar; maktablarda Olimpiya darslari va Olimpiya bilim kunlarini o‘tkazish; MOQ qoshida “Olympic Education Ambassadors” dasturi bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash.

O‘zbekistonda ushbu g‘oyalar MOQ faoliyati va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda sport faqat jismoniy emas, balki ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham qaraladi.

Olimpiya ta’limi maktab tarbiyasida umumiy strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rilishi zarur. U o‘quvchilarda axloqiy barkamollik, sog‘lom turmush tarzi madaniyati va vatanparvarlik hissini shakllantirishga qaratilgan. Uning joriy etilishi Per de Kuberten tomonidan ilgari surilgan “sport orqali tarbiya” konsepsiyasiga hamda XOQ Olimpiya xartiyasida o‘z ifodasini topgan asosiy tamoyillarga tayanadi.

Olimpiya ta’limi bolaning jismoniy, axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishini qamrab oluvchi kompleks pedagogik hodisadir. Uning asosiy tamoyillari Olimpiya xartiyasida bayon etilgan bo‘lib, Kazan amal rejasi va YuNeSKO hamkorligida ishlab chiqilgan Olympic Values Education Programme (OVP) kabi xalqaro tashabbuslar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.Ushbu hujjatlar asosida olimpiya ta’limi quyidagi nazariy tamoyillarga tayanadi: insonparvarlik tamoyili har bir inson shaxs sifatida qaysi jins, millat yoki jismoniy imkoniyatdan qat’i nazar qimmatga ega ekanini tan olish; halol o‘yin (fair play) tamoyili qoidalarga va raqibga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash; har tomonlama rivojlanish tamoyili-jismoniy, aqliy va ruhiy kamolotning birligi; ijtimoiy

mas’uliyat tamoyili shaxsning jamoa va jamiyat oldidagi rolini anglash; madaniyatlararo muloqot tamoyili madaniy xilma-xillikka hurmat va bag‘rikenglikni tarbiyalash.

Olimpiya ta’limi maktabda o‘quv va sinfdan tashqari ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. O‘quv yo‘nalishi doirasida: jismoniy tarbiya darslarida olimpiya sport turlari elementlari joriy etiladi, “halol o‘yin”, “jamoa ruhi”, “barcha ishtirokchilarning tengligi” mavzulari muhokama qilinadi; adabiyot va tarix darslarida qadimgi Olimpiya o‘yinlari, Per de Kuberten shaxsiyati bilan tanishish, hurmat, adolat va matonatni targ‘ib etuvchi matnlarni tahlil qilish amalga oshiriladi; tasviriy san’at darslarida olimpiya ramzlari, plakatlar, emblemalar va medallar eskizlarini yaratish orqali estetik did va jahon olimpiya hamjamiyatiga mansublik hissi rivojlantiriladi.

2. Sinfdan tashqari yo‘nalish doirasida: maktab Olimpiya kunlari, mini-turnirlar va “do‘stlik va halol o‘yin” shiorlari ostida sport bayramlari tashkil etiladi; “Olimpiya qadriyatlari” mavzusida loyiha haftaligi o‘tkazilib, o‘quvchilar gazetalar, videoreportajlar va taqdimotlar tayyorlaydilar; MOQ huzuridagi mahalliy bo‘linmalar hamkorligida “yosh olimpiadachilar klublari” tashkil etilib, bolalar liderlik va jamoada ishlash asoslarini o‘rganadi.

Maktabda olimpiya ta’limiga asoslangan pedagogik model quyidagi tamoyillarga tayanadi:

insonparvarlik yo‘nalishi – har bir bolaning shaxs sifatidagi o‘ziga xosligini tan olish, unda o‘ziga hurmat, boshqalarga ehtirom va jamoaviy muvaffaqiyat uchun mas’uliyat hissini tarbiyalash;

integrativlik – olimpiya qadriyatlarini jismoniy tarbiya, adabiyot, tarix, musiqa va san’at kabi turli fanlarga integratsiyalash;

faoliyatga asoslanish – jamoaviy musobaqalar, loyiha va tadqiqot faoliyati orqali shaxsiy sifatlarni shakllantirish;

refleksivlik – o‘z harakatlari, yutuq va kamchiliklarni halol o‘yin va hurmat nuqtayi nazaridan tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish;

izchillik va uzviylik – maktabdagi jismoniy tarbiya bilan qo‘shimcha ta’lim va MOQ tizimidagi sport dasturlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar, o‘quv modullari va tarbiyaviy tadbirlar tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Maktab muhitida o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash, madaniy xilma-xillikka bag‘rikenglik, shaxsiy javobgarlikni anglash kabi psixologik va axloqiy muhitni shakllantirish muhimdir.

Qo‘shimcha ravishda, neyropedagogik va psixologo-motivatsion yondashuvlar o‘quvchilarda, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda olimpiya tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

Metodologik jihatdan olimpiya ta’limi uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda amalga oshirilishi zarur:

axborotli-bilimiy yo‘nalish – olimpiya g‘oyalari, ramzlari va olimpiya harakati tarixi haqida bilimlar tizimini egallash;

faoliyat-praktik yo‘nalish – sport, tadqiqot va loyihaviy faoliyat orqali jismoniy va ma’naviy sifatlarni rivojlantirish;

qadriyatli-yo‘naltiruvchi yo‘nalish – halollik, hurmat va adolat tamoyillarini aks ettiruvchi shaxsiy munosabat va e’tiqodlarni shakllantirish.

Olimpiya ta’limini joriy etish samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi: o‘quvchilarning olimpiya qadriyatlari haqidagi xabardorlik darajasi; ijtimoiy-axloqiy sifatlarning rivojlanish dinamikasi; sport va sog‘lom turmush tarziga

qiziqish o‘sishi; maktabda olimpiya tadbirlari va loyihalarida ishtirok faolligi; maktab jamoasidagi ma’naviy-psixologik muhitning yaxshilanishi.

Shu tarzda, O‘zbekiston Respublikasi maktablarida olimpiya ta’limining pedagogik asoslarini shakllantirish zamonaviy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, ularning ma’naviy, intellektual va fuqarolik sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Olimpizm g‘oyalarini maktab ta’lim tizimiga integratsiya qilish “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga – sport madaniyatini milliy birdamlik, tinchlik va taraqqiyot omili sifatida shakllantirishga to‘liq mos keladi. Olimpiya ta’limi halollik, do‘stlik va o‘z-o‘zini takomillashtirish tamoyillari asosida yashaydigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi, bu esa butun insoniyat uchun dolzarb bo‘lgan ideallardir.

O‘zbekiston maktablarida olimpiya ta’limi – yoshlarda sog‘lom turmush tarzi, vatanparvarlik, adolat va insonparvarlik ruhini tarbiyalovchi zamonaviy pedagogik vositadir. U “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan milliy qadriyatlar va jismoniy madaniyatni rivojlantirish maqsadlariga to‘liq mos keladi. Olimpiya ta’limi maktab ta’limi tizimida faoliyat, tafakkur va axloq uyg‘unligini ta’minlovchi innovatsion tarbiya modeli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

2. International Olympic Committee. Olympic Charter. – Lausanne: IOC Publications, 2024.

3. Pierre de Coubertin. Olympism: Selected Writings. – Lausanne, 1925.

4. UNESCO. Olympic Values Education Programme (OVEP). – Paris: UNESCO, 2021.

5. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.

Farxad TASHPULATOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor

O‘QUV MASHG‘ULOT GURUHIDA UCH HATLAB SAKROVCHI SPORTCHILARNING SAKRASH TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN ELEMENTLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada o‘quv mashg‘ulot guruhida uch hatlab sakrovchi sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda o‘yin elementlaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘yinli mashqlar sportchilarning koordinatsiya, tezkorlik, sakrash amplitudasi va ritmni his qilish kabi sifatlarni rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlanadi. Muallif amaliy mashg‘ulotlarga turli musobaqaviy o‘yinlar, relelar va koordinatsion topshiriqlarning qo‘llanilishi sportchilar motivatsiyasini oshirib, ularning sakrash fazalarini to‘g‘ri bajarishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Uch hatlab sakrash, o‘yin elementlari, sakrash texnikasi, yengil atletika, koordinatsiya, tezkorlik, ritm, sportchilarning tayyorgarligi, pedagogik texnologiyalar, o‘quv mashg‘ulotlari.

В статье анализируется эффективность использования игровых элементов в совершенствовании технической подготовки спортсменов, занимающихся тройным прыжком в тренировочной группе. Также установлено, что игровые упражнения являются важным фактором развития у спортсменов таких качеств, как координация, быстрота, амплитуда прыжков и чувство ритма. Автор отмечает, что применение различных соревновательных игр, реле и координационных заданий на практических занятиях повышает мотивацию спортсменов и положительно влияет на правильное выполнение ими прыжковых фаз.

Ключевые слова. Тройной прыжок, игровые элементы, техника прыжка, лёгкая атлетика, координация, быстрота, ритм, подготовка спортсменов, педагогические технологии, учебно-тренировочный процесс.

The article analyzes the effectiveness of using game elements in improving the technical training of triple jumpers in the training group. It is also determined that game exercises are an important factor in the development of such qualities of athletes as coordination, speed, jump amplitude, and sense of rhythm. The author noted that the use of various competitive games, relays, and coordination tasks in practical exercises increases the motivation of athletes and positively affects their correct execution of the jumping phases.

Key words. Triple jump, game elements, jump technique, athletics, coordination, speed, rhythm, athlete training, pedagogical technologies, training sessions.

Yengil atletikaning texnik jihatdan murakkab turlari qatorida uch hatlab sakrash sportchilardan nafaqat yuqori jismoniy tayyorgarlikni, balki murakkab harakatlar ketma-ketligini aniq va ritmik bajarishni talab qiladi. Bugungi kunda sportchilarni texnik jihatdan tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, jumladan, o‘yin elementlaridan foydalanish samarali usullardan biri bo‘lib bormoqda. Chunki o‘yin metodikasi sportchilarning motivatsiyasini oshirish, mashg‘ulot jarayonini jonlantirish, koordinatsion sifatlarni rivojlantirish va texnik malakalarni o‘zlashtirishni yengillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘quv mashg‘ulot guruhlari tarkibidagi yosh sportchilar uchun o‘yin orqali o‘rganish psixologik jihatdan qulay, tezkor va samarali yondashuv hisoblanadi. Shu sababli, uch hatlab sakrash texnikasini shakllantirishda o‘yin elementlaridan foydalanishni ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga joriy etish

bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Uch hatlab sakrash yengil atletikaning murakkab koordinatsiyani talab etuvchi turlaridan biri bo‘lib, uning muvaffaqiyati sportchining yugurib kelish, depsinish, uchish va qo‘nish fazalarini texnik jihatdan to‘g‘ri bajarishiga bevosita bog‘liqdir. Yosh sportchilarda ushbu fazalarning uyg‘unligini shakllantirish ko‘p vaqt va to‘g‘ri metodik yondashuvni talab etadi. Shuningdek, an’anaviy mashg‘ulotlar ba’zan sportchilarda qiziqishning pasayishi, charchoq yoki texnik topshiriqlarni bajarishda stereotiplarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mashg‘ulot jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish sportchilarni faollashtirish, mashqlarni qiziqarli shaklda bajarishga undash va texnik harakatlarni tabiiy tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi.

O‘yin elementlaridan foydalanish orqali sportchining koordinatsiyasi, fazoviy orientatsiyasi, tezkorligi, sakrash amplitudasi va ritmni his qilish qobiliyatlari sezilarli ravishda shakllanadi. Bundan tashqari, raqobat ruhidagi o‘yinlar sportchilarni maksimal darajada harakat qilishga, o‘z natijalarini yaxshilashga va murakkab harakatlarni yengilroq bajarishga undaydi. Mazkur tadqiqot o‘quv mashg‘ulot guruhi sharoitida uch hatlab sakrash texnikasini rivojlantirishda o‘yin metodikasining o‘rni va samaradorligini amaliy jihatdan o‘rganadi.

O‘quv mashg‘ulot guruhida uch hatlab sakrovchi sportchilarning sakrash texnikasini takomillashtirish jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Chunki zamonaviy yengil atletika mashg‘ulotlari nafaqat yuqori jismoniy tayyorgarlikni, balki sportchining koordinatsiyasi, harakatlar uyg‘unligi, ritmni his qilish va reaksiya tezligini rivojlantirishni ham talab qiladi. O‘yin shaklidagi mashqlar esa yosh sportchilarda qiziqish, faol ishtirok va motivatsiyani oshirib, murakkab texnik elementlarni tabiiy va yengil tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi. Uch hatlab sakrash texnikasi – yugurib kelish, depsinish, uchish va qo‘nish fazalarining to‘g‘ri bajarilishini talab qiladigan murakkab jarayon bo‘lgani sababli, uni o‘yin orqali takomillashtirish sportchilar harakat madaniyati va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali metod sifatida ko‘rilmoqda. Shu bois mazkur mavzuning o‘rganilishi o‘quv mashg‘ulotlari sifatini oshirish, yosh sakrovchilarning texnik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda ularni sportga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Yengil atletikaning sakrash turlari, xususan uch hatlab sakrash, sportchidan yuqori darajadagi koordinatsiya, kuch, tezlik va texnik mahoratni talab qiluvchi murakkab sport turi hisoblanadi. Ushbu mashqning samarali bajarilishi yugurib kelish jarayonidan boshlab, har bir bosqichdagi depsinish, uchish va qo‘nish texnikasining mukammal bo‘lishiga bog‘liq. O‘quv mashg‘ulot guruhlarida yosh sportchilarning texnik ko‘nikmalarini shakllantirishda an’anaviy takroriy mashqlar bilan bir qatorda, o‘yin elementlaridan foydalanish metodikasi tobora keng qo‘llanilmoqda. O‘yin shaklidagi mashqlar sportchining faol ishtirokini ta’minlab, texnik harakatlarni tabiiy, qiziqarli va samarali tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘yin elementlari sakrash texnikasidagi ritm, muvozanat, fazoviy sezgi, vaqtni his qilish va portlovchi kuchni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli uch hatlab sakrovchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda o‘yin metodikasidan foydalanish bugungi o‘quv mashg‘ulotlarida samarali yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda.

Uch hatlab sakrash murakkab koordinatsion harakat bo‘lib, sportchi uchta bosqichni depilish, qadam tashlash (step) va sakrash (jump) fazalarini mushtarak holda, ritmni buzmasdan bajarishi talab etiladi. O‘quv mashg‘ulot guruhida texnikani o‘rgatish jarayonida sportchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va indivi-

dual motor imkoniyatlari hisobga olinadi. Mazkur bosqichda asosiy vazifa — texnikani soddalashtirilgan shakllarda o‘rgatish va o‘yin elementlari yordamida jarayonni qiziqarli, samarali va dinamik qilishdir.

Uch hatlab sakrash sport turi yuqori koordinatsion tayyorgarlik, tezkor kuch, ritmni boshqarish va harakatlar ketma-ketligini aniq bajarishni talab etadi. O‘quv mashg‘ulot guruhlarida mazkur texnikani o‘rgatish jarayoni murakkab bo‘lib, sportchilarning yoshga oid fiziologik va psixologik xususiyatlariga tayangan holda tashkil etilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, mashg‘ulotlarda o‘yin elementlaridan foydalanish texnik ko‘nikmalarni samarali shakllantirishning qulay vositasidir.

O‘yin jarayonida sportchilar tabiiy harakat qiladi, harakatlar o‘rtasidagi ritm buzilmaydi va texnik bosqichlarni o‘zlashtirish jarayoni yengillashadi. O‘yinlar sportchining diqqatini faol qiladi, mashg‘ulotlarni qiziqarli va dinamik tarzda tashkil etadi, shu bilan birga murakkab sakrash elementlarini o‘zlashtirish jarayonidagi psixologik to‘siqlarni kamaytiradi. Ayniqsa uch hatlab sakrashda uch fazaning (depiilish – qadam tashlash – sakrash) uyg‘un bajarilishi uchun ritm, koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. O‘yinlar esa ushbu ko‘nikmalarni oson shakllantiradi.

Mazkur mashg‘ulot turi uchun o‘yin elementlaridan foydalanishning asosiy vazifasi – sportchi ongida texnik harakatlarni majburiy mashq sifatida emas, balki tabiiy va qiziqarli faoliyat sifatida shakllantirishdir. Bu esa o‘z navbatida sakrash uzunligi, depilish kuchi, fazalar orasidagi o‘tish aniqligi kabi ko‘rsatkichlarning barqaror rivojlanishiga imkon beradi.

Quyida uch hatlab sakrovchilarning sakrash texnikasini rivojlantirishga qaratilgan o‘yin elementlari tizimi hamda ularning ta’sir yo‘nalishlari jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘quv mashg‘ulot guruhi uzunlikka uch hatlab sakrovchi sportchilarining tadqiqot oxiridagi jismoniy tayyorgarligini shakllantirish dinamikasi, n=60

Tr	Nazorat mashqlari	Yoshi	O‘g‘il bolalar		Qiz bolalar	
			Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1	30 metrga yugurish pastki startdan, soniya	10	6,9±0,51	6,9±0,92	8,9±0,48	8,9±0,37
		11	6,7±0,69	6,4±0,73	8,7±0,91	8,7±0,62
		12	6,4±0,33	6,2±0,8	8,4±0,54	8,5±0,79
2	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, (sm)	10	157,2±21,1	154,6±19,7	152±22,3	152±24,5
		11	168,4±23,5	165,4±22,8	162,6±24,3	163,4±23,4
		12	180,2±27,6	178,3±23,2	173,5±28,4	175,9±26,7

3	Turgan joyidan uch hatlab sakrash, (m)	10	5,26±0,39	5,26±0,35	5,23±0,42	5,25±0,34
		11	5,4±0,36	5,42±0,32	5,32±0,39	5,33±0,31
		12	5,51±0,33	5,5±0,29	5,47±0,37	5,48±0,19
4	Yugurib kelib uzunlikka sakrash, (m)	10	4,01±0,25	3,98±0,32	3,91±0,29	3,93±0,34
		11	4,19±0,29	4,18±0,31	4,09±0,32	4,07±0,35
		12	4,35±0,38	4,34±0,39	4,25±0,41	4,24±0,49
5	1 kg to‘ldirma to‘pni ikki qo‘llab oldinga uloqtirish, (m)	10	5,2±0,68	5,2±0,61	4,8±0,59	4,8±0,42
		11	5,9±0,59	6,3±0,73	5,5±0,67	5,8±0,58
		12	6,8±0,62	7,9±0,85	6,3±0,79	7,3±0,72
6	Turgan holatda tizzalar bukilmagan holatda oldinga egilish, (sm)	10	6,2±0,94	7,4±0,72	5,6±0,74	6,4±0,69
		11	8,1±1,41	9,3±0,92	8,2±1,33	9,7±0,81
		12	9,9±1,34	11,8±1,13	9,1±1,61	13,2±1,28

O‘yin elementlaridan foydalanish texnik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoniga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi. Avval sodda sakrashlar, keyin ritmli yugurish mashqlari, undan so‘ng uch bosqichli sakrashlar qo‘llaniladi. Raqobatbardosh o‘yinlar sportchining motivatsiyasini oshiradi, rangli belgilar va sensor vositalar esa sakrash masofasi va ritmini boshqarishni osonlashtiradi.

Tajriba mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlarining muntazam qo‘llanilishi sakrash texnikasining bajarilish aniqligini oshiradi, harakatlar ketma-ketligini mustahkamlaydi va sportchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishini sezilarli ravishda ko‘paytiradi.

xulosa: Uch hatlab sakrash texnikasini o‘quv mashg‘ulot guruhlarida samarali o‘rgatish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, sportchilardan yuqori darajadagi koordinatsiya, ritmni boshqarish, muvozanatni saqlash, tezkor kuch va harakatlarni ketma-ketlikda aniq bajarishni talab qiladi. Ushbu sport turining murakkab harakat strukturasi yosh sportchilar uchun ba’zan qiyin kechishi, texnikani an’anaviy usullar bilan o‘zlashtirishda esa qiziqishning kamayishi yoki charchoqning tez yuzaga kelishi kuzatiladi. Shu bois mashg‘ulotlarga o‘yin elementlarini kiritish texnik ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy, pedagogik jihatdan asoslangan, samaradorligi yuqori yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin elementlaridan foydalanish uch hatlab sakrovchilarda texnik ko‘nikmalarning yanada tabiiy va erkin shakllanishiga xizmat qiladi. O‘yinlar sportchilarni mashg‘ulot davomida faol ishtirok etishga undaydi, harakatlarni majburiy bajarish emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qilishlariga imkon yaratadi. Natijada sportchilarning diqqat-e’tibori yanada faol bo‘ladi, koordinatsiya jarayoni yaxshilanadi, ritm sezgisi va fazalar orasidagi o‘tishlar aniq bajariladi.

O‘yinlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida sakrashning uch bosqichini

sapchish, qadam va sakrashni uyg‘unlashtirish, ularning texnik aniqligini oshirish va harakatlarni barqaror ritmda bajarish samaradorligi ortadi. Ayniqsa ritmni boshqarishga qaratilgan o‘yin mashqlari sakrash uzunligi va depilish kuchining to‘g‘ri taqsimlanishiga bevosita ta’sir etadi. Shuningdek, muvozanatni saqlashga qaratilgan o‘yinlar sportchining sakrashdan oldingi tayyorgarligini mustahkamlaydi va harakatlar ketma-ketligidagi xatoliklarni kamaytiradi.

O‘yin texnologiyalari yordamida mashg‘ulotlarning emotsional fonining ko‘tarilishi sportchilarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu esa texnikani o‘zlashtirish jarayonida psixologik barqarorlikni ta’minlaydi, jarohatlanish xavfini kamaytiradi hamda musobaqa holatlarida sportchining tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar sportchilarni jamoaviy ishlashga o‘rgatadi, raqobatbardoshlikni oshiradi va mashg‘ulotlarni monoton holatga tushishdan saqlaydi.

Tajriba natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, o‘yin elementlari asosida mashq bajarish uch hatlab sakrovchilarning texnik ko‘rsatkichlarini 12–18 foizgacha yaxshilashi mumkin. Bunda depilish kuchi, sakrash uzunligi, fazalar orasidagi o‘tishning aniqligi va sakrash sur’atining barqarorligi sezilarli darajada oshadi. Eng muhimi, mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lgani uchun sportchilar muntazamlikni saqlab qoladi, bu esa ko‘nikmalarni mustahkamlashda juda muhimdir.

Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, uch hatlab sakrash texnikasini o‘rgatishda o‘yin elementlaridan foydalanish – bu nafaqat pedagogik jarayonni soddalashtiruvchi, balki uni sifat jihatidan boyituvchi, sportchining jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi samarali metoddir. Mazkur yondashuv asosida mashg‘ulotlar tizimini to‘g‘ri tashkil etish kelgusida yuqori natijalarga erishgan sportchilarni tayyorlashga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xo‘jamkeldiyev G.S. va boshq. Kichik razryadli o‘rta masofalarga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 3. – C. 270-274.

2. Ziyayev F.C. va boshq. Yengil atletika sport turini rivojlantirishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi // CARJIS. – 2021. – T. 1. – № 3. – C. 348-355.

3. Ортиқов M. va boshq. Биатлончиларни мусобақаларга тайёрлашда машғулот юкламалари воситаларини оптималлаштириш // CARJIS. – 2021. – T. 1. – № 4. – C. 156-163.

4. Каримов Ф.М. va boshq. Бошланғич ихтисослик гуруҳидаги узунликка сакровчи қизларнинг депсиниш кучини ривожлантириш // CARJIS. – 2021. – T. 1. – № 4. – C. 119-125.

5. Ziyayev F.C. va boshq. O‘rta masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarni musobaqa oldi tayyorgarligi samaradorligini oshirish // CARJIS. – 2021. – T. 1. – № 4. – C. 78-90.

6. Karimov F.M. Uzunlikka sakrovchilarni chidamlilik sifatini rivojlantirish mezonlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 1. – C. 269-273.

Shirin MO‘MINOVA,
“International School of Finance Technology and Science” (ISFT institute),
pedagogika yo‘nalishi magistranti

INKLYUZIV TA’LIMDA ILG‘OR YONDASHUVLAR (Finlyandiya Respublikasi tajribasi)

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta’lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalar hamda turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb qilinishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’limning samarali joriy etilishi jamiyatning har bir a’zosiga teng ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ijtimoiy integratsiyani ta’minlash va ta’lim tizimini yanada demokratik qilishga xizmat qilishi va dunyo miqyosida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjudligi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, insonparvarlik, konvensiya, Finlyandiya professional, nogironlik, aqliy, jismoniy, resurs, munitsipalitet, diskriminatsiya,

В статье рассматривается, как система инклюзивного образования вовлекает детей с ограниченными возможностями и учащихся с различными потребностями в процесс общего образования. Также освещается, что эффективное внедрение инклюзивного образования служит созданию равных возможностей для получения образования каждым членом общества, обеспечению социальной интеграции и дальнейшей демократизации системы образования, а также существование различных подходов к развитию инклюзивного образования во всем мире.

Ключевые слова. инклюзивное образование, гуманизм, конвенция, Финландия, профессиональный, инвалидность, умственный, физический, ресурс, муниципалитет, дискриминация,

The article discusses how the inclusive education system involves children with disabilities and students with various needs in the general education process. It is also highlighted that the effective implementation of inclusive education serves to create equal opportunities for every member of society to receive education, ensure social integration and make the education system more democratic, and that there are various approaches to the development of inclusive education on a global scale.

Key words. Inclusive education, humanitarianism, convention, professional, disability, mental, physical, resource, municipality, discrimination,

So‘nggi yillarda alohida ta’limga muhtoj va sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolar bo‘lmagan bolalarni birgalikda o‘qitish masalasi tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda va shu bilan birga ularni sifatli ta’lim bilan qamrab olish maqsadida nogironligi bo‘lgan bolalarni umumta’lim maktablarida sog‘lom bolalar bilan ta’lim olishini samarali yo‘lga qo‘yish va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik inklyuziv ta’lim masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. U xalqaro hamjamiyat tomonidan eng insonparvar va samarali deb tan olingan, chunki u maktab tizimining mezonlariga javob berishi yoki javob bermasligidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish huquqini beradi; bundan tashqari, u barcha bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi; insonparvarlik, bag‘rikenglik, yordam berishga tayyorlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘rsatib o‘tilganidek, “bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo‘lsa, maxsus ravishda muhofaza

va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj”.

Inklyuziv ta’lim – barcha bolalar jismoniy, aqliy, intellektual, madaniy, etnik, til va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, umumiy ta’lim tizimiga kiritilgan va o‘zlarining sog‘-lom bolalari bilan bir xil mahalliy umumta’lim maktablarida o‘qitish jarayonini shunday tashkil etishdir. Bola dunyoga kelgach dastavval uning oilada erkin yashash huquqi ta’minlangan va uning hayoti uchun xavf tug‘diradigan har qanday harakat qat’iyan taqiqlanadi, bu bolaning dunyoga kelgach birinchi huquqi hisoblanadi. Shunday ekan har bir bola dunyoga kelgach aqliy va jismoniy yetukligidan qat’iy nazar yaxshi yashashi, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi va bepul ta’lim olish huquqiga ega, ushbu qoidalar “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyada” belgilab qo‘yilgan va unga a’zo davlatlar ushbu Konvensiya qoidalariga qat’iy amal qiladi. Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘mak-lashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi. Bir so‘z bilan aytganda har bir bola erkin bepul ta’lim olish huquqi qonunan mustahkamlab qo‘yilgan. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni joriy qilish va alohida ta’lim ehtiyojlari bor bolalarni sifatli ta’lim bilan qamrab olish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda, nogironligi bor bolalarning ta’limini bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda ularning kelajakda o‘zlarining aqliy xususiyatlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib jamiyatning turli sohalarida faoliyat yurita olishlari uchun sharoitlar yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Shunday ekan qaysi yo‘nalishda ish olib borishi lozim va bu yo‘l olib borgan harakatlar sama-rali bo‘lishini ta’minlaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak Finlyandiya tajribasida inklyuziv ta’lim jarayonlarida alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, avvalo jamiyat tomonidan qabul qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda nogi-ronligi bo‘lgan bolalar birinchi o‘rinda maktabgacha ta’lim muassasada tarbiyalanadi. Tarbiyachi va oila hamkorligi puxta yo‘lga qo‘yilgan. Finlyandiyaning muvaffaqiyati o‘qi-tuvchilardir. Yuqori sifatli mashg‘ulot o‘tkazishi uchun ularning maqomi va mustaqilligi ta’minlangan. Ta’lim siyosati maqsadli ravishda tenglikka yo‘naltirilgan. Shuningdek, maktablar ustidan nazorat markazlashmagani ham asosiy omildir.

Finlyandiyada 20 ta universitet (shundan 10 tasi pedagoglar tayyorlaydi) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. O‘quv dasturlarini tuzish huquqi hamda mas’uliyati ma-halliy munitsipalitetlar va maktablar zimmasida. Qonunchilikka ko‘ra, ta’lim beruvchilar o‘quv dasturini mahalliy sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mas’uliyati yuklangan idoralar bilan hamkorlikda “maktabning ish muhiti, mahalliy qiymat tanlovi va maxsus resurslar”ni hisobga olgan holda ishlab chiqishi shart. U nafaqat umumiy ta’limning yuqori standartlari, balki butun jamiyatning birgalikda belgilangan maqsad va tartiblarga sodiqligini ta’minlaydigan tarzda amalga oshiriladi.

O‘qituvchilar uchun o‘quv dasturining bir necha tamoyillari mavjud. Mustaqillik, mas’uliyat va ishonch. Finlyandiya pedagogik ta’limi zamirida “barcha darajadagi o‘qituvchilar nafaqat mustaqil mutaxassis, balki sohasi bo‘yicha professional bo‘lishi kerak”, degan ishonch yotadi. Shu bois, turli muammolar (pedagogik, ma’muriy, oila yoki jamoa bilan bog‘liq, hatto mahalliy sanoat bilan aloqalar) mustaqil, hamkasblar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda yechiladi.

Finlyandiyada o‘qituvchilar uchun ta’lim dasturini shakllantirish muhim omil. O‘qi-tish tizimining yana bir muhim xususiyati ishonch va hamkorlik madaniyatiga tayanadi. Mamlakat maktablaridagi o‘qituvchilarni ma’lumoti va ixtisosligi bo‘yicha maktabgacha

ta’lim o‘qituvchisi, hunarmandlik va texnologiya fani o‘qituvchisi, musiqa o‘qituvchisi kabi toifalarga bo‘lish mumkin. Biroq har bir toifadagi muallimlar turli o‘quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Finlyandiyada maktab ta’limining afzalligi jamiyatning yuqori va quyi sinflarga bo‘linmasligidir. Bundan tashqari, Finlyandiyada iqtidorli bolalar va badavlat ota-onalarning farzandlari uchun o‘rta ta’lim muassasalari deyarli yo‘q. Nogiron bolalar, “elita” farzandlari, kam ta’minlangan oilalar farzandlari, iqtidorli bolalar, barchasi bir xil ta’lim maskanlarida tahsil oladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan Finlyandiyada maktab ta’limi mutlaqo bepul va ta’lim zaruriyat, inklyuzivlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Shuning uchun 7 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan har bir bola ta’lim muassasasiga borishi shart. Finlyandiyada nogironlar uchun ta’lim qonun bilan kafolatlangan va patologiya turiga bog‘liq.

Ta’limning yana bir xususiyati shundaki, Finlyandiya maktabida dars 60 daqiqa davom etadi. Ammo bolalar bunday uzoq darslardan hech qachon charchamaydilar, chunki ular sinfda osongina harakat qilish imkoniyatiga ega. Finlyandiyada o‘qituvchilik kasbi juda obro‘li. Universitetlarda 15 tagacha abituriyent o‘qituvchilik darajasiga hujjat topshiradi.

Finlyandiya va O‘zbekistondagi o‘qituvchilar ta’limini qisqacha qiyosiy tahlil qilsak, qator farqlarni ko‘rish mumkin. Masalan, Finlyandiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlari (bog‘chalar)da ishlash uchun bakalavriat darajasi talab etiladi. Maktabda sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlash uchun pedagogika universitetining magistratura bo‘limini tugatgan bo‘lishi shart. OTMni tugatmagan talaba o‘quv muassasalarida dars berish huquqiga ega emas. Mamlakatimiz maktablarida o‘qituvchilik qilayotgan kadrlarning aksariyati bakalavriat darajasiga ega. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (bog‘chalar)da esa o‘rta maxsus ma’lumotga ega kadrlar ko‘p. Shuningdek, OTMni bitirmaganlarning ham maktablarda dars berishiga ruxsat etilgan. Finlyandiya inklyuziv ta’lim modelining asosiy tamoyillari Maktablarda o‘rganishga individual yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanishiga alohida e’tibor berildi.

Erta tashxis va qo‘llab-quvvatlash Finlyandiya ta’lim tizimi boshlang‘ich bosqichda o‘rganishdagi qiyinchiliklarni faol ravishda aniqlaydi. Maxsus o‘qituvchilar va psixologlar bolalar bilan ishlashda ularga o‘rganishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Rivojlangan qo‘llab-quvvatlash tizimi maktablarda maxsus o‘qituvchilar, nutq terapevtlari, psixologlar va o‘qituvchilarning yordamchilari kabi mutaxassislarning keng tarmog‘i mavjud. Ular alohida ta’limga muhtoj bolalarga ta’lim jarayoniga integratsiyalashuviga yordam beradi. Inklyuziv muhit Finlyandiya maktablari barcha bolalar uchun qulay muhit yaratadi. Ta’lim muassasalari qulay harakatni ta’minlaydigan me’moriy yechimlarni, shuningdek, moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etadi. Shu bilan bir qatorda alohida ehtiyojli talabalar va boshqa bolalar o‘rtasida qat’iy bo‘linish yo‘q. Ta’lim dasturlari har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatiga qarab o‘rganishi uchun moslashtirilgan. O‘qituvchilar malakasini oshirish Finlyandiyada o‘qituvchilar inklyuziv o‘qitish usullari bo‘yicha maxsus treningdan o‘tadilar. Ular turli toifadagi bolalar bilan ishlash, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatiladi. Albatta rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan ta’lim aynan bo‘lmasligi mumkin. Sababi har bir mamlakatning o‘z qonun qoidalari, madaniyati iqtisodiyotidan kelib chiqqan holda qaror qabul qilinadi. Agar to‘laligicha oladigan bo‘lsak ushbu tajriba boshqa mamlakatda o‘zini oqlamasligi mumkin. Shu sababdan biz o‘zimizga mos keladigan tabiat va jamiyat qoidalariga zid kelmaydigan joylarini mos ravishda ta’lim tizimida qo‘llashimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikrlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, birinchi o‘rinda katta

mas’uliyat professional malakaga ega bo‘lgan mutaxassisga tushadi. Malakali pedagoglarni tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb – hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, ta’lim jarayonini samarali olib borishda hali ham an’anaviy tizim saqlanib qolgani haqida so‘z yuritilgan.

Shuningdek, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ta’lim berishda noan’anaviy tizimga o‘tish va zamonaviy ilg‘or pedagogik va yangi kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish katta samara beradi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning oilalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xususan ko‘zi ojizlar uchun brayl yozuvidagi va audio o‘quv darsliklari va zaif eshituvchilar uchun noan’anaviy ko‘rgazmali va video darslar o‘tishni yo‘lga qo‘yish, maxsus pedagogik yondashuvlar har bir bolaga individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida differensial ta’lim metodlari joriy qilinishi, ta’lim muhitining moslashtirilishi maktab va bog‘chalarda maxsus infratuzilma yaratish, jumladan, panduslar, liftlar, maxsus darsliklar va boshqa zarur vositalarni joriy etish inklyuziv ta’limning muhim qismi hisoblanadi. Jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun butun jamiyat buni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Shu sababli, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali inklyuziv ta’limning ahamiyatini tushuntirish muhimdir, albatta shu bilan bir qatorda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lmagan bolalar uchun ham bir xonada dars jarayonlarini tashkil etish, nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan sog‘lom bolalar orasidagi to‘siqni olib tashlashga xizmat qilishi mumkin.

Darhaqiqat, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalardagi yashirin qobiliyatlarni aniqlash, ular bilan birga ishlash va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish uchun pedagoglardan yuqori malaka va professionallik talab etiladi. Shu bilan bir qatorda ular nafaqat pedagog balki tarbiyachi hamdir. Chunki boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli o‘laroq mamlakatimizda umumta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya birga olib boriladi.

O‘zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim” loyihasi 2014-yildan buyon hozirga qadar amalga oshirilib, uning doirasida alohida ehtiyojli 900 dan ortiq o‘g‘il-qiz maktablar, maktabgacha ta’lim maskanlarida umumiy ta’limga jalb etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori asosida 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiyaga muvofiq ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalari (“case study” uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o‘qitish, “amaliy o‘yin”, interfaol ta’lim uslubi va boshqalar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur o‘rganib chiqish lozimligi ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu qarorlardan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar ta’lim olishlari uchun ko‘zga ko‘rinarli ishlar bosqichma-bosqich olib borilmoqda va shu bilan birga jahon tajribasidan oqilona foydalanish orqali mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish hamda har bir bolaga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish mumkin. Sog‘lig‘ida muammolar bo‘lgan bolalarning ko‘plab ota-onalari bunday ta’limga qarshi, bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘yishga qarshi va inkluziv ta’limni faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Chunki inkluziv maktabda hech kim o‘z farzandini nogiron, boshqalardan farq qiladigan shaxs sifatida belgilamaydi. Ta’lim inkluziyasida

hamma narsa bolalar, nogiron yoki nogiron bo‘lishidan qat’i nazar, teng huquqli bo‘lib, shaxsga, ularning insoniy fazilatlariga: mehr-oqibat, o‘zaro yordam, do‘stlik, ochiqlik, halollik va boshqa ko‘plab fazilatlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Ota-onalarning bu istagini inklyuziv ta’lim uzoq vaqt qarindoshlaridan ajralmagan holda yaqin atrofdagi maktabga borish, do‘stlar bilan o‘qish imkoniyati – bu tengdoshlar bilan muloqot qilish, umumiy bayramlar va tadbirlarda qatnashish, to‘liq hayot kechirish imkoniyati ekanligi bilan izohlash mumkin. Inklyuzivlik barcha o‘quvchilarning bolalar bog‘chasi, maktab, kollej, maktabgacha ta’lim muassasasi va maktab hayotida ishtirok etish imkoniyatidir. Inklyuziv maktabning maqsadi – barcha o‘quvchilarga to‘liq ijtimoiy hayotga ega bo‘lish, guruhda, mahalliy hamjamiyatda ishtirok etish imkoniyatini berish, shu orqali jamiyat a’zolari sifatida o‘zaro munosabat va bir-birlariga g‘amxo‘rlik qilishni ta’minlashdir.

Zamonaviy ta’limga qo‘yiladigan asosiy talab shundaki, u insonparvarlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi, shaxsni asosiy qadriyat deb bilishi, shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ushbu yondashuv o‘qitishning har qanday shakllari, usullari va texnologiyalarini ta’limning asosiy vazifalaridan biri – o‘z-o‘zini rivojlantirish va moslashish uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlash kontekstida ko‘rib chiqadi. Ayni paytda mamlakatimizda inklyuziv ta’lim yanada keng tarqalmoqda. Bu xalqaro talablar va global integratsiya jarayonlariga mos keladigan qonunchilik bilan quvvatlanadi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu loyiha ko‘p vaqt va ishtirok etish istagida bo‘lganlarning ishtirokini talab qiladi.Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, barcha bolalar bilim olishi, rivojlanishi, birgalikda muloqot qilishi, baxtli va mamnun bo‘lishi, ta’lim sifati yuqori darajada bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tishimiz joizki, mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko’lamli ishlar va yangidan yangi texnologiyalar har bir bola uchun ta’lim muassasasida teng imkoniyatlar yaratish va inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish – har bir bolani qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatga to‘liq integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan. Buning uchun maxsus pedagogik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, inklyuziv muhit va hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta’lim olishini ta’minlaydi, agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo’lmasa muntazam maktablarga qabul qilishini nazarda tutadi. O‘ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus reabilitasiya markazlari yoki muntazam maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta’lim oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Batigina T.I. Nogiron bolalarning integratsiyasi: nazariya va amaliyot: o‘quv qo‘llanma. – Petrozavodsk: KSPA nashriyoti, 2009. – 63 p.

2. Alekhina S.V., Zaretskiy V.K. Ta’limga inklyuziv yondashuv // “Bizning yangi maktabimiz” milliy ta’lim tashabbusini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash. – Moskva, 2010. – B. 104-116.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 56-modda.

4. Голиков Н.А. Ребенок-инвалид: обучение, развитие, оздоровление. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2015. – С. 34.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi. – [Elektron resurs]. URL: lex.uz.

Jasurjon XALIQOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

MUSIQIY DIDNI RIVOJLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUV: O'QUVCHILARDA QADRIYATGA YO'NALTIRILGAN ESTETIK QARASHLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarda musiqiy didni shakllantirishning nazariy asoslari qadriyatga yo'naltirilgan (aksiologik) yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda aksiologiya, musiqiy did va qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim tushunchalarining mazmuni ochib berilib, ularning musiqa-pedagogik faoliyatdagi o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Musiqiy san'atning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tashuvchisi sifatidagi o'rni, shuningdek, uning o'quvchilarning hissiy, kognitiv va axloqiy sohalariga ta'siri alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari, aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilib, u o'quvchilarda musiqiy asarlarga ongli munosabatni shakllantirish, estetik qadriyatlarni idrok etish, baholash va ichki qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi.

Tayanch so'zlar. Aksiologiya, aksiologik yondashuv, musiqiy did, musiqa ta'limi, estetik tarbiya, qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim.

